



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

KREATIV FIKRLASH fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA



Namangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



“KREATIV FIKRLASH” FANIDAN
O‘QUV–USLUBIY MAJMUUA

NAMANGAN.

O'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan 25.08. 2023 yildagi buyrug'i bilan tasdiqlangan va "Umumiy pedagogika" fanining o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

K.R. Abdullayeva NamDU. "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi. PhD

M.N.Mahmudov NamMQL. "Jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti. PhD

Taqrizchi:

O'.M.Asqarova – NamDU. Pedagogika fanlari doktori. Professor

Mazkur o'quv uslubiy majmua "Pedagogika psixologiya" kafedrasining 2023 yil avgustdagi 1-sonli majlisida ko'rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:



D. Inamov

Fanning o'quv uslubiy majmuasi "Pedagogika Psixologiya" fakulteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2023 yil avgustdagi 1-sonli majlisida tasdiqlandi.

Fakultet ilmiy-uslubiy

Kengashi raisi:



M.L. Boltayeva.

Namagan Davlat Universitetining O'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil avgustdagi qarori bilan o'quv-uslubiy majmua sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig':



X. Mirzaaxmedov.

MUNDARIJA:

I. Ishchi dastur.....	6
II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari.....	20
III. Nazariy va amaliy mashg‘ulot materiallari.....	26
IV. Mustaqil ta’lim materiallari.....	255
V. Keyslar banki.....	264
VI. Glossariy.....	275
VII. Adabiyotlar ro‘yxati.....	284

ISHCHI DASTUR

O‘quv fanining dolzarbligi oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Ushbu dasturda talabalarni kreativ fikrlashning nazariy asoslari, tamoyillari, talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish kabi masalalar qamrab olingan. SHu bilan birga Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor)– individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘lishi, yosh avlod tarbiyasida kreativ g‘oyalardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. “Kreativ fikrlash” fani talabaning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanning maqsadi va vazifalari

“Kreativ fikrlash” fanining maqsadi: Talabalarni kreativ fikrlashning nazariy asoslari, tamoyillari, talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish orqali ularda o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonini, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini samarali tashkil etishga nisbatan kreativ yondashish malakalarni rivojlantirish.

“Kreativ fikrlash” fanining vazifalari:

-talabalarni kreativ fikrlashning nazariy asoslari, tamoyillarini, ularda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtirish; -talabalarda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallarni to‘plash va ularni saralash; o‘quv axborot (ma’lumot)larini samarali izlash; nazariy va amaliy mashg‘ulotlar uchun didaktik materiallar tayyorlash; o‘quv topshiriqlari uchun ish qog‘ozlarini hamma o‘quv fanlari bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini topshirishga kreativ yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- talabalarning mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish, ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o'quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir, giperbolik va b.) ko'rinishda bo'lishi)ga erishish, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to'plamini shakllantirish borasidagi ko'nikmalarining ta'minlashdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Kreativ fikrlash” fanining o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **talaba:** - “Kreativlik” va “Kreativ fikrlash” tushunchalarining mohiyati; - kreativ fikrlash fanining maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti; - kreativ fikrlash fanining tarkibiy tuzilmasi va muhim kategoriyalari; - kreativ fikrlash fanining metodlari; - talabalarning kreativlik sifatlari, kreativlik imkoniyatlari va malakalari; - talabalar kreativ imkoniyatining muhim darajalari va ularni aniqlovchi mezonlar; - talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari; - talabalarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar; - talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash shakllari, metod va vositalari; - talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, metod va vositalari to'g'risidagi **bilimlarga ega bo'lishi;** -joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlariga kreativ yondashish; - mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish; - ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o'quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir, giperbolik va b.) ko'rinishda bo'lishi)ga erishish **ko'nikmalarini egallashi;** - ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to'plamini shakllantirish; - ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda kreativlik sifatlarini to'laqonli namoyish etish; - mavzu mohiyati va o'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda auditoriya (joy)ni jihozlash; - ma'naviy-ma'rifiy tadbir mavzusi, yo'nalishi va xarakteridan kelib chiqqan holda u

o‘tkaziladigan joy (xona, zal)ni jihozlashga kreativ yondashish **malakalarini egallashi**; - kreativ yondashuv asosida talabalarda didaktik ishlar jarayoni muvaffaqiyatli tashkil etish; - talabalarning o‘quv faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda **kreativlik sifatlarini egallash**.

Fanni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Kreativ fikrlash” fanini o‘qitish jarayonida: - ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan; - o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspres- so‘rovlar, test so‘rovlari, kichik guruhlarda ishlash, interaktiv ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Kreativ fikrlash” fani bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Oliy ta’lim jarayonini boshqarishda tizimli tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish”, “Fanlarni o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar”, “Oliy ta’lim didaktikasi” va “Pedagogik kvalimetriya” submodullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Fanning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali talabalar faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishda kreativlik sifatleri va imkoniyatlaridan to‘laonli foydalana olishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi.

Fanning hajmi va mazmuni

N	Mashg'ulot turi	II-Semestr
1	Nazariy (leksiya)	32
2	Amaliy mashg'ulot	36
3	Attestatsiyalar	4
4	Mustaqil ta'lim	108
	Jami soat	180

Fan bo'yicha soatlar taqsimot

N	Fan mavzulari	Hamma si	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaq il ta'lim
			Ja mi	Nazariy mashg'ul ot	Amaliy mashg'ul ot	Attestatsiyal ar	
1	Kreativ fikrlash fanining nazariy asoslari	4	4	2	2		10
2	Kreativ fikrlash fanining metodologiyasi	4	4	2	2		8
3	Kreativlik va uning o'ziga xos xususiyatlari	4	4	2	2		8
4	Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishd	10	10	4	6		10

	a jahon tajribalari						
5	Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishd a jahon tajribalari(Ken Robinson, Gardner, Emebayl, P.Torrens qarashlarilari)	4	4	2	2		6
6	OTM talabalarida ijodiy yondoshish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish	4	4	2	2		8
7	OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metod va vositalar	6	6	2	4		8
8	OTM talabalarida	8	8	4	4		8

	<p> kreativlik sifatlar va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvch i texnologiyalar</p>						
9	<p> Boshqaruv faoliyatini tashkil etishga kreativ yondoshish</p>	4	4	2	2		6
10	<p> Ijodkorlikda qiziquvchanlik ni rivojlantirish masalalari</p>	4	4	2	2		8
11	<p> Talabalarni kasbiy kompetentligi ni shakllantirish</p>	8	8	4	4		8
12	<p> Mustaqil fikrlash madaniyati haqida qarashlar</p>	4	4	2	2		10
13	<p> Talabalarda mustaqil fikrlash</p>	4	4	2	2		10

	madaniyatini rivojlantirishning modeli						
	Jami: 180	68	68	32	36	4	108

MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI 1-mavzu:(2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) Kreativ fikrlash fanining nazariy asoslari. “Kreativlik” va “Kreativ fikrlash” tushunchalarining mohiyati. Kreativlik – yaratish, ijod qilish ekanligi. Kreativ fikrlashning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti.

2-mavzu: (2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) Kreativ fikrlash fanining metodologiyasi

SHarq va G‘arb mutafakkirlarining kreativ qarashlari. Kreativ fikrlashning muhim kategoriyalari. Kreativ fikrlashning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

3-mavzu: (2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) Kreativlik va uning o‘ziga xos jihatlari.

Talabanning kreativlik potentsiali. Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. Talabanning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar

4-mavzu: (4soat ma’ruza, 6soat amaliy mashg‘ulot) Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda jahon tajribalari

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari. AQSH, Janubiy Koreya, YAponiya, Finlyandiya, Germaniya va boshqa davlatlar ta’lim tizimi.

5-mavzu:(2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda jahon tajribalari

Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda Ken Robinson, Gardner, Emebayl, P.Torrens qarashlarilaridan foydalanish

6-mavzu: (2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) OTM talabalarida ijodiy yondoshish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish

Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari va shartlari. Talabalarda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar. Talabalarda kreativligini ifodalovchi belgilar.

7-mavzu: (2soat ma’ruza, 4soat amaliy mashg‘ulot) OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metod va vositalar

Talabalarning kreativlik imkoniyatlari. Talabalar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari. Talabalarning kreativlik imkoniyatlari. Talabalarda kreativ imkoniyatini ifodalovchi tamoyillar. Kreativlik imkoniyatiga ega talabalarda namoyon bo‘ladigan malakalar. Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo‘l va shakllari. Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari. Talabalarning kreativlik sifatlarini aniqlovchi psixologik testlar.

8-mavzu: (4soat ma’ruza, 4soat amaliy mashg‘ulot) OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalar

Talabalar kreativ imkoniyatining muhim darajalari. Talabalarning kreativlik imkoniyati darajasini aniqlovchi mezonlar. Kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash. Talabalar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari. Talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalar. Talabalarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalar.

9-mavzu: (2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) Boshqaruv faoliyatini tashkil etishga kreativ yondoshish

Boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish. Talabalar tomonidan boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etilishini ta’minlovchi innovatsion xarakterdagi omillar.

10-mavzu: (2soat ma’ruza, 2soat amaliy mashg‘ulot) Ijodkorlikda qiziquvchanlikni rivojlantirish masalalari

Ijodkorlik, ijodkorlikni o‘z o‘rnida ishlatish, amaliy tafakkur, qiziquvchanlikni rivojlantirish masalalar

11-mavzu: (4soat ma’ruza, 4soat amaliy mashg‘ulot) Talabalarni kasbiy kompetentligini shakllantirish

Ta'lim oluvchining kompetensiyasi. Kasbiy kompetensiya. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi omillar. Kasbiy kompetentligini shakllantirish

12-mavzu: (2soat ma'ruza, 2soat amaliy mashg'ulot) Mustaqil fikrlash madaniyati haqida qarashlar.

Mustaqil fikrlash madaniyati haqida falsafiy, psixologik va pedagogik qarashlar. Mustaqil fikrlashning turlari va vazifalari. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini tarbiyalash shartlari va vositalari.

13-mavzu: (2soat ma'ruza, 2soat amaliy mashg'ulot) Talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning modeli

Talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning modeli. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

Kreativ fikrlash fanidan mustaqil ish mavzulari:

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o'quv qo'lanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;
- 2) tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) Adabiyotlar bilan ishlash;
- 2) Ijodiy ish;
- 3) Ba'zi mavzular bo'yicha esse ,tezis yozish.

1.“Kreativlik” va “Kreativ fikrlash” tushunchalarining mohiyati.

2.Kreativlik – yaratish, ijod qilish ekanligi.

- 3.Kreativ fikrlashning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
- 4.SHarq mutafakkirlarining kreativ qarashlari.
5. G'arb mutafakkirlarining kreativ qarashlari
- 6.Kreativ fikrlashning muhim kategoriyalari. Kreativ fikrlashning boshqa fanlar bilan aloqadorligi..
- 7.Talabaning kreativlik potentsiali.
- 8.Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. 9.Talabaning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar
- 10.Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.
- 11.AQSH, Janubiy Koreya, YAponiya, Finlyandiya ta'lim tizimi
12. Germaniya va boshqa davlatlar ta'lim tizimi.
- 13.Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda Ken Robinson, Gardner, Emebayl, P.Torrens qarashlarilaridan foydalanish
- 14.OTM talabalarida ijodiy yondoshish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish
- 15.Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari.
- 16.Talabalarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar.
- 17.Talabalarda kreativligini ifodalovchi belgilar.
- 18.OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metod va vositalar
- 19.Talabalarning kreativlik imkoniyatlari.
- 20.Talabalar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari.
- 21.Talabalarning kreativlik imkoniyatlari.Talabalarda kreativ imkoniyatini ifodalovchi tamoyillar.
- 22.Kreativlik imkoniyatiga ega talabalarda namoyon bo'ladigan malakalar.
- 23.Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo'l va shakllari.
- 24.Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.
- 25.Talabalarning kreativlik sifatlarini aniqlovchi psixologik testlar.
- 26.OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalar
- 27.Talabalar kreativ imkoniyatining muhim darajalari.

- 28.Talabalarning kreativlik imkoniyati darajasini aniqlovchi mezonlar.Kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash.
- 29.Talabalar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari. 30.Talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
- 31.Talabalarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalar.
- 32.Boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish.
- 33.Talabalar tomonidan boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etilishini ta'minlovchi innovatsion xarakterdagi omillar.
- 34.Ijodkorlik, ijodkorlikni o'z o'rnida ishlatish,amaliy tafakkur, qiziquvchanlikni rivojlantirish masalalar
- 35.Talabalarni kasbiy kompetentligini shakllantirish
- 36.Ta'lim oluvchining kompetensiyasi.
- 37.Kasbiy kompetensiya. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi omillar.
- 38.Mustaqil fikrlash madaniyati haqida falsafiy, psixologik va pedagogik qarashlar.
- 39.Mustaqil fikrlashning turlari va vazifalari.
- 40.Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini tarbiyalash shartlari va vositalari.
- 41.Talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning modeli.
- 42.Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari.
- 43.Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

“Kreativ fikrlash” fanidan talabalar bilimni baholash mezonlari.

Kreativ fikrlash fani bo'yicha baholar, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal baho, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash baholari quyidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

“Kreativ fikrlash” fanidan talabalar bilimni baholash oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi

tugagandan keyin talabanning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

YAkuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabanning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Nazorat turi	Nazorat tartribi	Nazorat shakli	Topshriqlar soni	Bir topshiriq bahosi	Jami
Oraliq nazorat	1-ON	Test sinovi	25	0,2	5
	2-ON	Test sinovi	25	0,2	5
YAkuniy nazorat		YOzma sh	3	5	5

Nazorat turi	Nazorat shakli	Torshiriqlar soni	Bir topshiriq bahosi	Baho
Oraliq nazorat	YOzma ish	3	5	5
YAkuniy nazorat	Test	25	0	5

Talabalar bilimini baholashning 5 baholik tizimi mezonlari

Baho	Talabalarning bilim darajasi
5 (a'lo) baho	talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi
4 (yaxshi) baho	talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi
3 (qoniqarli) baho;	talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega bo'ladi
2 (qoniqarsiz)	talaba fan dasturini o'zlashgirmagan, fanning (mavzuning)

baho	mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda
------	--

Talabalar tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

YAkuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzidor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekani tomonidan ruxsat beriladi.

YAkuniy nazoratda "YOzma ish"larni baholash mezonlari

YAkuniy nazorat "YOzma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariydan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga kamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baho bilan baholanadi. Talaba maksimal 5 baho olishi mumkin.

YOzma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish baholari qo'shiladi va o'rtacha chiqarilgan qiymat talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bahosi hisoblanadi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1.Mirziyoev SH.M. "Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017 yil 8 dekabr. 247-son

2.Mirziyoev SH.M. "Namangan haqiqati" gazetasi.2017-yil 3-iyuldagi nutqi. 6-son

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Pedagogika nazariyasi / Darslik. Mual.: M.X. Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X. Toxtaxodjaeva tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moiya”, 2010. – 136-140-b.
5. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M. Usmonboeva, D. Inog‘omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
6. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
7. Jo‘raev R.H., Tolipov U.Q. Pedagogik faoliyat, texnologiyalar va mahorati // Uzluksiz ta‘lim, 2003.- № 2.

Elektron ta‘lim resurslari:

1. <http://www.istedod.uz>
2. <http://www.pedagog.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. <http://www.tdpu.uz>
5. <http://www.ilm.uz>

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

“KEYS-STADI” METODI

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nimanatija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarin*5i ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

B/B/B CHIZMASI

B/B/B chizmasi-Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivoj-lantiradi.

Tinglovchilar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz”va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo‘limlarini to‘ldiradilar.
3. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.
4. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3 bo‘limni to‘ldiradilar

B/BX/B JADVALI		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

“QARORLAR SHAJARASI” METODI

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyanfan asoslari borasidagi bir qator murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondoshuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilano qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini batafsil tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

UMUMIY MUAMMO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“FSMU” METODI

“FSMU” metodi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o‘tkazishda yoki o‘quv reja asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan qatorda ta’lim oluvchilarni, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Ushbu metod tinglovchilarga o‘z fikrlarini aniq, qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg‘ulotda avval har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars oxirida jamoa bo‘lib ishlaydilar.

Har bir tinglovchiga FSMU metodining 4-bosqichi yozilgan varaqalar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Tinglovchilar yakka tartibda topshiriqni bajaradilar. So‘ngra kichik guruhlar shakllantirilib, kichik guruhda har bir ta’lim oluvchi o‘zining yozgan javobini o‘qib tanishtiradi, so‘ngra guruh azolari birgalashib muhokama qilib umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

“Tushunchalar tahlili” metodi mazkur metod ta’lim oluvchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- ishtirokchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- ishtirokchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Pedagogik mahorat		
Insonparvarlik		
Kasbiy bilimlar		
Pedagogik texnika		
Pedagogik qobiliyat		

“BLITS-O‘YIN” METODI

“Blits-o‘yin” metoditezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallar alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. SHundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblarni tarqatmadagi "yakka baho" ustuniga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda pedagog ishtirokchilarni kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi pedagog tomonidan o'qib eshittiriladi va tinglovchilardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farqini yozish so'raladi. SHundan so'ng, "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Pedagog yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	YAKka xato	YAKka baho	Harakatlar mazmuni

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu:(2soat ma'ruza, 2soat amaliy mashg'ulot) Kreativ fikrlash fanining nazariy asoslari.

Reja:

- 1.“Kreativlik” va “Kreativ fikrlash” tushunchalarining mohiyati.
- 2.Kreativlik – yaratish, ijod qilish ekanligi. 3.Kreativ fikrlashning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti.

Foydalanish uchun adabiyotlar: 1. Вағыsheva T.A., Jigalov YU.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovы razvitiya kreativnosti. – SPb.: SPGUTD, 2006.

2. Bashina T.F., Ilin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

4. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: Direkt-Media, 2014. – 1229 s.

5. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posboie. – Kirov: ANOO “Mejreginalnyy SITO”, 2013. – 212 s.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, “Kreativ fikrlash” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning ob’ekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, metodlari

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Kreativ fikrlash – talabaning an’anaviy fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

Kreativ fikrlash (KF) – 1) talabada ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan

qobiliyat va malakalarini rivojlantirish; 2) talabalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o'quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan

KF kafolatlaydigan ikki holat: 1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish

KF fanining maqsadi va vazifalari:

-talabalarni (shaxsni) kreativ o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish.

-o'qitish taktika, strategiyalarini belgilash;

-talabalarning kreativ rivojlanishini bashoratlash;

- kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruv tizimini ishlab chiqish

KF fanining Ob'ekti: barcha yosh bosqichlari bo'yicha kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish jarayoni

Predmeti: kreativ shaxsni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish metodologiyasi, ustuvor tamoyillari, etakchi g'oyalari, muhim yo'nalishlari, asosiy bosqichlari va b.

KFning tarkibiy tuzilmasi:

- *kreativ ta'lim asoslari*: maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, sub'ektlari, mazmuni, metodologiyasi, shakllari, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari; - malakali karlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish bosqichlari

2-MAVZU: (2SOAT MA'RUZA, 2SOAT AMALIY MASHG'ULOT)

KREATIV FIKRLASH FANINING METODOLOGIYASI

Reja:

- 1.SHarq va G‘arb mutafakkirlarining kreativ qarashlari.
2. Kreativ fikrlashning muhim kategoriyalari.
- 3.Kreativ fikrlashning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Варышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб.: SPGUTD, 2006.
2. Башина Т.Ф., Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Sirotiyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: Direkt-Media, 2014. – 1229 s.
5. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posobie. – Kirov: ANOO “Mejregionalnyy SITO”, 2013. – 212 s.

1.SHarq va G‘arb mutafakkirlarining kreativ qarashlari.

O‘zbekistonda jamiyat qurilishi jarayonlari, strategik maqsad - fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma’naviy qadriyatlarimizni rivojlantirish o‘z ahamiyatiga ega. Erkin shaxs ma’naviyati, zamonaviy demokratik g‘oyalar va milliy-ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish fozil jamiyat haqidagi Forobiy, YUsuf Xos Hojib, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy adabiy–ilmiy merosidan ham quvvat oladi. SHunday ekan, O‘zbekistonning barkamol avlodiga yanada mukammalashtirilgan ta’lim berish va ularga ta’lim berish jarayonida buyuk mutafakkir olimlarimizni ijod yo‘llarini tanishtirib, yoshlarda yanada mustaqil O‘zbekistonimizga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir.

Bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy soxalardagi barcha isloxlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib xayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. SHu jihatdan har tomonlama mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, barkamol avlodni voyaga etkazish

davlatimiz siyosatining ustivor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Zeroki, istiqlol davrida maʼnaviy merosimizni tiklashda amalga oshirilgan ulugʻvor ishlar, tariximizni xolisona oʻrganish, ulugʻ allomalar adabiy-ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, taʼlim berishni takomillashtirish, adabiyot, sanʼat sohasidagi yutuqlar – bularning barchasi jamiyatda maʼnaviy-ruhiy koʻtarilishga olib keldi va iqtisodiyotimizning ustivor yoʻnalishlaridagi islohotlarga qoʻshimcha kuch bagʻishladi.

SHarq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yoʻnaltirish boʻyicha tengi yoʻq fikr, gʻoyalarni ilgari surganlar, taʼlimotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan oʻrganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash oʻzligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obroʻ-eʼtiborini yanada oshiradi. Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash boʻyicha ajdodlarimizning asrlar davomida toʻplagan tajribalarini oʻrganish esa taʼlim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

SHarqdagi taʼlim-tarbiyaga oid ilk asarlardan biri boʻlgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi **“Avesto”**- nafaqat diniy aqidalar majmuasi, balki badiiy, yuksak ahloqiy, falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan yodgorlik hisoblanadi. Mazkur yodgorlikda ayrim qayd va ishoralar, nom va atamalar zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo boʻla boshlagan davrlarda ham hozirgi Movarounnahr va Xuroson xalqlari yashagan mintaqalarda taʼlim va tarbiya rivojlanganligini koʻrsatadi.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi **“Avesto”**da ham taʼlimtarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: **“Tarbiya hayotning eng muhim tiringi, tayanchi boʻlib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi oʻqishni, keyin esa yozishni oʻrganish bilan eng yuksak pogʻonaga koʻtarilsin”**, — deyilgan.

“Avesto”da inson oʻz mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutulish mumkin, degan ulugʻ gʻoya yotadi. Unda axloqiylikning asosi — sahoatlilik, deb koʻrsatilgan. Ahloq — yaxshi fikr, soʻz va harakat birligidan iborat, deyilgan.

“Avesto”dagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan barcha bilimlar o‘qitilgan. Zardushtiylik dini, ya’ni yakka Tangriga e’tiqod rasman qabul qilingach, o‘lkada ta’lim-tarbiyaga e’tibor yanada kuchaygan. Ibadatxonalar huzurida podsholik tasarrufidagi maxsus maktablar tashkil qilingan, ta’lim tizimida matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, huquqshunoslik kabi fanlar o‘qitila boshlagan; bunda yoshlarning ma’naviy kamolotiga alohida e’tibor berilgan. Bir tomondan yoshlarga zardushtiylik dini asoslari, ya’ni “goh”lar maxsus yodlatilsa, ikkinchi tomondan uch yaxshi ishda sustkashlik qilmaslik-“kori nek”(ezgu fikr), “guftori nek”(ezgu so‘z), “kirdori nek”(ezgu amal)ni hamisha esda tutish; uch yomon ishdan, ya’ni “andeshai bad”(xurofotchi), “guftori bad”(tangrini unutmok, yolg‘onchi) va “kirdori bad”(hunarsiz, bilimsiz)dan yuz o‘girishni o‘rgatganlar.

SHarq jonlanish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo‘nalishda bo‘ldi. Birinchi yo‘nalish — matematika-tibbiyot yo‘nalishi bo‘lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakalogiya va boshqa shunga o‘xshash fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniyalar matematikaga oid, Zakarnyo Ar-Roziy va Ibn Sino kimyo va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo‘nalish — ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish, bunda falsafa, tarix, matniq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va shunga o‘xshash boshqa fanlar bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar Forobiy, Al-Kindiy, Ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalar faoliyat ko‘rsatganlar.

Uchinchi yo‘nalish — ta’lim va tarbiya yo‘nalishi bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar o‘z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarni tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyani nazariyasini ifodalaganlar. Ma’lumki, SHarq jonlanish davrida inson muammosi ma’naviyat sohasidagi asosiy masala bo‘lgan. SHuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan.

Ma’rifiy risolalarda asosan axloqning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Forobiy, Ibn Sino, YUsof Xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Tusiy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Navoiylarning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Ahloq haqida risola”, “Ishq risolasi”, “Qutadg‘u bilik”, “Axloqi Nosiriy”,

“Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muxsiniy”, “Hibbatul haqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Maxbubul-qulub” kabi ta‘lim va tarbiyaga oid asarlari inson shaxsini, ma‘naviyatini shakllantirish muammosini hal etishda sof ma‘rifiy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarlarda insonning ma‘naviy kamolga etishishi yuksak xulq-odob, ilmfanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan.

Forobiy(873-950) o‘z asarlarida ta‘lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e‘tibor berish zarurligi, ta‘lim-tarbiya usullari haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt va saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma‘nolari to‘g‘risida” kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Forobiy ta‘lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi. U ta‘lim-tarbiyaga birinchi bo‘lib ta‘rif bergan olim. *Ma‘rifat — tarbiyalanuvchining xohishi va irodasini kerakli yo‘nalishda boshqarshi san‘atidir*, deydi Forobiy.

Ta‘lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-ta‘limning nazariy fazilatlarini, ma‘lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Forobiy yana aytadi: *“Ta‘lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini byrlashtirish”*.

Forobiy bilimidan ma‘rifatli etuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm xikmatni o‘rganagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘ – salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi ahloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

Bu fikrlardan Forobiyning ta‘lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyaga alohida e‘tibor berganligi ko‘rinib

turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola etuk bo'lib etishmaydi.

Forobiy *“tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o'zi tarbiyali bo'lmog'i shart”*, deydi.

Abu Ali Ibn Sino(980-1037)ham bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota– ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Aхлоqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatda bo'lish, unga nasihat qilishdir.Ibn Sino bolada ahloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil, deb biladi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga etishishga da'vat etgan. U bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda engildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- jamo'a bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ibn Sino o'zining **“Tadbiri manzil”** asarining **“Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash”** bo'limida to'xtalib, ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Bolalarga bilim berish pedagogning asosiy burchidir. SHunga ko'ra, Ibn Sino pedagog qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimni bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;

- ta'limda turli usullardan foydalanish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni bolalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan ijtimoiy muhit alohida rol o'ynashini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki uning hulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishini, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish, uni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilai bir qatorda jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi. Bolaga hali u tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga etishida asosiy mezon sifatida talqin qilinadi.

YUsuf Xos Hojib(1015—1070) o'z davrining etuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. U “Qutadg'u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asari muallifidir.“Qutadg'u bilig” -baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasixatlari, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan etuk ma'rifiy asar ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

“Qutadg'u bilig” — XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlarini xususida batafsil ma'lumot berilgan.Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o'tish olimning ta'lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligi adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirin so'zlik, saxovat,

mardlik, xurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql-zakovat, xalollik, ezgulik kabi, xislatlar ulug‘lanadi.

“Qutadg‘u bilig”da bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. YUusuf Xos Hojib bu asari orqali o‘z tasavvurida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday qo‘rgan bo‘lsa, shu asosda o‘z prinsiplarini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasi masalasidir. Bu umuminsoniy axloqiy normaga SHarq etikasiga ahamiyat berib kelgan. SHarq xalqining ulug‘ an‘anasini, oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan shoir mazkur muhim axloqiy muammoni o‘ziga xos falsafiy talqin qiladi.

YUusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun, u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. SHundagina ularning noo‘rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

YUusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga etkazishning barcha masalalari o‘zining badiiy ifodasini topgan yirik ta’limiy-axloqiy dostonidir. Olim insonni kamolga etishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Aqliy kamolot-bilim va zakovat. O‘quvga bo‘lish.
2. Axloqiy kamolot.
3. Jismoniy kamolot.

YUusuf Xos Hojib insonning kamolga etishining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. SHuning uchun ham bu asar o‘zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir.

Kaykovusning (XI asr) “Qobusnoma” asari SHarqda saqlanib kelayotgan an‘anaga ko‘ra pand-nasixattarzida yozilgan bo‘lib, bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. U SHarq ma’rifatchilik fikri taraqqiyotida inson kamolotinn shakllantirishda muhim o‘rinni egallaydi.U yoshlarga o‘zini uch narsadan: ko‘zni yomon nazardan, qo‘lni yomon ishdan, tilni yomon so‘zdan saqlashni tavsiya etadi.

Kaykovusning “Qobusnoma”si XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o‘sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar, ifodali o‘qish, xattotlik, she‘r yozish, musiqa bilimini egallashi kabilar o‘z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni har tomonlama kamolga etkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyat bilan bog‘lab olib bordi, uning o‘g‘itlari har qanday tuzumda ham o‘z qiymatini yo‘qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulugbek (1394—1449) Markaziy

Osiyo xalqlari ilm–fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ siymolardan biridir. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma‘rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da‘vat etdi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta‘minlashga ishonadi.

Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e‘tibor berishlari lozim.

Mirzo Ulug‘bek o‘z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog‘lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib etishuviga alohida ahamiyat beradi. Mirzo Ulug‘bekning fikricha, odam sog‘lom va baquvvat bo‘lishi uchun yoshlik chog‘idayoq jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi, ta‘lim– tarbiyada qalloblik bo‘lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo‘lishi kerak.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni etishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi, ya‘ni oilada ota–onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e‘tibor berishlari lozim.

Qomusiy bilimlar soxibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham va san'atning turli sohalari; adabiyot, tarix, til, musiqa, xattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik va boshqa bilimlarni rivojlantirish bilan birga ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergandi.

Alisher Navoiy (1441-1501) o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ma'rifiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etadi. Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning karashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. U bilimni uzluksiz o'rganish zarur, deydi. Buyuk alloma bilim olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini o'z davrida maktab, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda bilim olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy har bir inson aqlli, ahloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdil, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo'lmog'i lozim, deb ta'kidlardi.

Navoiy bunday fazilatlarga ega bo'lgan barkamol insonning faqat badiiy obrazini yaratib qolmay, uni tarbiyalash usullarini ham bayon etdi va ma'rifat, ilm-fan taraqqiyotida "Nazmul-javohir", "Xayratul-abror", "Mahbubul-qulub"dek shoh asarlari bilan munosib o'ringa ega bo'ldi.

Alisher Navoiy bolaning voyaga etishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va etuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. "YOsh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi", deb voyaga etkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

Buyuk shoir va olim, fors–tojik mumtoz adabiyotning ulug‘ namoyondasi **Nuriddin Abduraxmon Jomiy** (1414-1492) o‘zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o‘lmas me’ros qoldiradi. U o‘z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo‘lda yozilgan “Bahoriston” asarida ta’lim–tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi. Jomiyo‘z asarlarida yoshlarni ilmlarini egallashga da’vat etadi. U o‘z pedagogik qarashlarida kishilarni adolat, xushmuomalalik va dono so‘z bilan zulmkorlarga ta’sir etishga da’vat etadi. A. Jomiy “Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”, deb ta’kidlagan.

G‘arb mutafakkirlaridan **YAn Amos Komenskiy**(1592-1670)o‘z davrining ilg‘or g‘oyalariga tayangan holda “Hammani hamma narsaga o‘rgatish” to‘g‘risida da’vat bilan chiqdi. Uning “Buyuk didaktika” degan katta risolasi nazariy pedagogikaning ilk asarlaridan hisoblanadi. YA.A.Komenskiy bolalarda kamtarlik, mo‘min-qobillik, shafqatlilik, pokizalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni axloqiy tarbiyaning asosi deb biladi. YA.A.Komenskiy intizomning ahamiyati juda kattaligini ko‘rsatdi. Buning isboti uchun u chexlarning “Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondir”, deb maqomini keltiradi. Uning eng katta xizmati shundaki, u o‘rta asrdagi kaltak vositasi bilan o‘rnatiladigan intizomga qarshi chiqdi, bolalarga insoniy muomala qilishni talab qildi.

“YAxshi yo‘lga qo‘yilgan maktab qonunlari”nomli asarida ta’lim oluvchilar xatti-harakatlariga taalluqli qimmatli qoidalar bayon etilgan. Komenskiyning pedagogika sohasidagi merosi ta’lim-tarbiyada ahamiyati juda kattadir. Uning ko‘p tillarga tarjima qilingan darsliklari ko‘pgina mamlakatlarda, shuningdek, XVII-XVIII asrlarda Rossiyada ham keng tarqaldi va 150 yildan ko‘proq davr davomida eng yaxshi darslik sifatida xizmat qilib keldi. Uning asrlari, qimmatli fikrlari hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Komenskiy barcha asarlarida, jumladan “Buyuk didaktika” asarida tarbiya tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. U tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lish tamoyilini birinchi bo‘lib yaratdi. Bu tamoyil XVIII-XIX asr pedagoglari tomonidan ham qayta-qayta takrorlandi. Komenskiy inson tabiatning bir qismidir,

shuning uchun ham u tabiatga bo'ysunadi, deb hisobladi. U "Buyuk didaktika" asarida bayon qilgan fikrlarning barchasi pedagogik tajribalari, orttirgan bilimlari bilan qimmatlidir. Bu asar din bilan sug'orilgan bo'lsa-da, unda tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini isbotlab berishdagi fikrlari va ko'rsatmalari diqqatga sazovordir. U o'z asarlarida bolaga tarbiya berishda inson tabiatiga (tug'ma belgilariga) e'tibor berishligini ko'rsatadi.

Komenskiy hamma maktablar uchun umumiy bo'lgan bir tizim bo'lishi, bolalarning qaysi toifaga mansubligidan, ota-onalarining kimligidan qat'iy nazar ona tilidagi maktablar hamma bolalar uchun umumiy va majburiydir, deb ta'kidlaydi. Komenskiy boshlang'ich umumiy ta'lim g'oyasini ilgari surdi.

Komenskiy fikricha, tarbiyaning uch bosqichi va uch vazifasi mavjud:

1. O'zini va tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya).
2. O'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya).
3. Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiy tarbiyaga yuksak baho berdi. Inson tarbiya tufayligina insonga aylanadi, u har qanday bolani ham odam qilishi mumkin, deydi. Komenskiy birinchi bo'lib ko'rsatmalilik tamoyilini asoslab berdi. U mumkin bo'lgan narsalarning o'zini, mumkin bo'lmaganlarda esa rasmlardan foydalanish kerak, deb ko'rsatadi. O'sha davrgacha to'plangan ko'rsatmalik tamoyili asosidagi bilimlarni umumlashtirdi, guruhlashtirdi va kengaytirdi, amalda keng qo'lladi.

Komenskiy o'qitilayotgan materialni ta'lim oluvchilarning mustahkam, asosli ravishda o'zlashtirishlariga katta e'tibor berdi. SHuningdek, ovoz chiqarib takrorlashning ahamiyati kattaligini, ta'lim oluvchilarning qobiliyatini o'stirishi, nutqining rivojlanishi va rovon bo'lishi, ta'lim oluvchilarning bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o'stirishga harakat qildi.

Komenskiy maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish to'g'risidagi tushunchani, ta'tilni kiritdi, o'quv kunini qanday tashkil etish belgilab berdi, o'quv mashg'ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi va buni amalda qo'lladi.

SHveysariyalik pedagog **Iogann Genrix Pestalotssi** (1746-1827) pedagogning kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarga to'xtalib o'tadi.

Atoqli nemis pedagogi **Fridrix Vilgelm Adolf Disterveg** (1790-1866) pedagogning ta'limdagi roliga baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi ta'lim oluvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. Pedagogta'lim oluvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Taniqli rus pedagogi **Konstantin Dmitrievich Ushinskiy** (1824-1870) pedagogni kasbiy faoliyatiga yuksak baho berib, uning mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: "Hali etilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta ta'lim oluvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun pedagog o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, serdiqqat bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi pedagog bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham etarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zarur matonat va mahorat talab qilinadi".

Buyuk rus adibi **Lev Nikolaevich Tolstoy** (1828-1910) pedagog faoliyati va fazilatini quyidagicha ta'kidlaydi: "...agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordi-yu, ikkala xislatni ham mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'ladi".

KFning asosiy kategoriyalari: Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan va aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni echishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g‘oya, ularni amalga oshirish ko‘nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so‘z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

- oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish;

- oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

- oliy ta’lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

- talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

- mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;

- talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Har qanday fan singari “Kreativ fikrlash” fani ham o‘zining tarkibiy tuzilmasiga ega. Ushbu fan quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

- **креатив таълим асослари**: мақсади, вазифалари, объекти, предмети, субъектлари, мазмуни, методологияси, шакллари, методлари, воситалари, методикаси ва технологиялари;

- малакали карларни тайёрлаш ва улар томонидан касбий фаолиятни ташкил этиш жараёнида ёш хусусиятларини инобатга олган ҳолда креатив шахсни шакллантириш **босқичлари**

Kreativ pedagogikaning umumiy mohiyati uning konpepsual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ижодкорлик – муайян янгиликнинг аҳамияти ва фойдали эканлигини белгиловчи шахс фаолияти ва унинг натижаси

Ижодкор шахс – ижодий жараёни муваффақиятли амалга ошира оладиган ҳамда аниқ ижодий натижа (маҳсулот)ларга эга шахс

Креатив шахс – жараён ёки натижа сифатида ижодкорликни намоён

этувчи, масалаларни ечишга ностандарт усуллар билан ёндаша олишга мойил, ўзига хос ҳаракатларни ташкил этиш, янгиликларни илгари

суришга, ижодий маҳсулотларни яратишга лаёқатли ва тайёр шахс

Бунёдкор шахс – ҳам жараён, ҳам натижа сифатида объектив ижодкорликни амалга оширадиган ва талаблар даражасида

Ижодкор шахсни тарбиялаш – касбий-ижодий фаолият тажрибаларини қарор топтириш ва бойитиш асосида ижодий ғоя, уларни амалга ошириш кўникма ва малакаларига эга шахсни шакллантириш ва ривожлантириш

Касбий-ижодий фаолият – мутахассиснинг касбий масалаларни ижодий ҳал қилиш муваффақиятини тавсифловчи фаолияти, инновацион хатти-ҳаракати

Ижодий топшириқлар – муаммоли вазиятларни тизимли таҳлил асосида ҳал қилишга йўналтирилган масалалар тизими

Касбий-ижодий имконият – 1) касбий компетенция, малакага эгаллик;
2) касбий ижод методологияси асосларини ўзлаштирганлик;
3) ижодий тафаккурнинг шаклланганлик даражаси;
4) касбий-ижодий лаёқат ва шахсий сифатларнинг ривожланганлиги

Касбий ижодкорлик методологияси – ижодкорликнинг жараён ва натижа сифатида объектлар ҳамда муайян касбий фаолият турларига муносабат кўринишидаги тузилиши, мантиқий ташкил этилиши, метод ва воситалари ҳақидаги таълимот

Ижодий тафаккур – тафаккурнинг ижод жараёнини ташкил этиш ва ижод натижалари (маҳсуллари)ни башоратлашни ифодаловчи тури

Креатив қобилият – шахснинг ижодий фаолиятни ташкил этиш ва унинг натижаланганлигига эришишни таъминлаш имкониятини белгиловчи индивидуал хусусияти

Ижодий қобилият – ижодий фаолиятни муваффақиятли амалга ошириш ва унинг натижаланганлигини баҳолашда намоён бўладиган индивидуал хусусияти

Ўзини ўзи ижодий фаоллаштириш – шахснинг ижодий фаолиятла ўз

Pedagoglarning kasbiy-ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarni ijobiy hal qilish va ularning echimini tegishli darajada baholashda ko‘rinadi.

“Kreativ fikrlash”ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. SHaxs kamolotini ta‘minlash, uning intellektual, ma‘naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. YAxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. SHu bilan birga “Kreativ fikrlash” fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi masalalarini tadqiq etadi (2-rasm):



2-расм. Креатив педагогиканинг педагогика туркум ва ижтимоий фанлар билан ўзаро алоқадорлиги

Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti – har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish, unda dunyoqarash va yuksak ma‘naviy-axloqiy

sifatlarni tarbiyalash, pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, turli davrlarda bola tarbiyasini tashkil etishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini tarbiyalash, ularga boshlang'ich bilimlarni berish masalalarining tadqiqi bilan shug'ullanadi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganadi.

Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya – bo'lajak o'qituvchilar, tinglovchilarda pedagogik jarayonni metodik jihatdan to'g'ri, samarali tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini oqilona yo'lga qo'yish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash, ta'lim va tarbiya jarayonlarini texnologik yondashuv asosida takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – imkoniyati cheklangan kar-soqov (surdopedagogika), ko'r (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortda qolgan (oligofrenopedagogika) bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Xususiy metodika (xususiy fanlarni o'qitish) – turli o'quv fanlari (m: fizika, matematika, biologiya, kimyo, tarix, huquq, jismoniy tarbiya va h.o.lar)ni o'qitishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qiladi.

Kasbiy pedagogika – turli (ijtimoiy, texnik, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish) yo'nalishlarida tegishli soha (mas., qishloq xo'jaligini rivojlantirish, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va boshqalar) bo'yicha kasbiy faoliyatni samarali yo'lga qo'yish yo'llarini o'rganadi.

Ta'lim menejmenti – ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish masalalarini tadqiq qiladi.

Qiyosiy pedagogika – ta'limning jahon, mintaqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendensiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini

o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganadi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlaydi.

Pedagogik innovatika – ta‘lim sub‘ektlari nuqtai nazardan pedagogik innovatsiyalarning mohiyati, paydo bo‘lish, rivojlanish qonuniyatlarini hamda pedagogik an‘analar bilan kelajak ta‘limining loyihalashtirilishi o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadigan fan.

Harbiy pedagogika – harbiy ta‘limning o‘ziga xos jihatlarini, uni tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari, ilg‘or texnologiyalarini, harbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish yo‘llarini ochib beradi.

Hamkorlik pedagogikasi – turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta‘lim beruvchi hamda oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot asosida samarali o‘rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalarini ko‘rsatib beradi.

Neyropedagogika – inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy hulq-atvorni psixologik korreksiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, shuningdek, yangi turdagi maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi.

Pedagogik texnika – nopedagogik OTM pedagoglarini pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari bilan tanishtirish orqali ularda ta‘lim jarayonini sifatli, samarali tashkil etish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish masalalarini o‘rganadi.

Pedagogik kvalimetriya – ta‘lim sifatini izchil nazorat qilish va samarali boshqarishga oid muammolarni tadqiq etadi.

Pedagogik jarayonlarning tizimli tahlili – pedagoglarda ta‘lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini yaxlit tizim sifatida anglash, turli, shu jumlaan, muammoli vaziyatlarni yaxlit, izchil tahlil qilish malakalarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etadi.

Pedagogik prognostika va pedagogikaning istiqbolli yo‘nalishlari – mavjud sharoitda pedagogik turkum fanlarni sifatli o‘qitish, ta‘lim va tarbiya jarayonlarining

samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash, istiqbolli yo'nalishlarini belgilash masalalarini tahlil etadi.

Pedagogik jarayonni boshqarishda qarorlar qabul qilish – pedagoglar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarining izchil, tizimli, samarali boshqarilishini ta'minlash, mavjud pedagogik vaziyatlarda tizimli tahlil asosida oqilona qarorlar qabul qilinishiga erishish masalalarini o'rganadi.

Falsafa – tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Estetika asoslari – nafis san'atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq o'rtasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganadi.

Psixologiya – inson faoliyati, shaxs xatti-harakatlarida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarning mohiyatini yoritadi.

3-MAVZU: (2SOAT MA'RUZA, 2SOAT AMALIY MASHG'ULOT)

KREATIVLIK VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

Reja:

1. Talabanning kreativlik potentsiali.
2. Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari.
3. Talabanning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Ijodkorlik fan va amaliyotda ma'lum bo'lmagan yangi g'oyalarni pedagogning tahlil qilishi, turli yangi texnik ijodiy echimlarni o'rganishi, ishlab chiqishi, sinab ko'rishi va taqqoslashi kabi tadqiqotchilik tavsifidagi vazifalarni amalga oshirishni ifodalaydi.

- ✘ 1. Amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondashuvi. Bunday yondashuv doirasida pedagoglar kasbiy ijodkorligini tashkil etish va rivojlantirishning

kreativ pedagogik texnologiyalari yangi amaliy-tatbiqiy ma'lumotlarni yig'ish bilan tavsiflanadi.

- ✘ 2. Nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondashuvi. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor pedagoglar kasbiy ijodkorligiga doir yangi nazariy bilimlarni hamda bilim sohalari qidirishga qaratiladi.

KREATIVLIK SIFATLARI:

- muammolarni ilg'ash va shakllantirish;
- - yangi g'oyalarni yaratish;
- - g'oyalarni uyg'unlashtirish;
- - nostandart echimlar yaratish;
- - ob'ektlarni takomillashtira olish

KASBIY IJODKORLIK

Mutaxassislik ko'nikma va malakalari, ilmiy-texnik bilimlar hamda iqtisodiyot sohalari innovatsion faoliyati, ta'lim – fan – ishlab chiqarish integratsiyasi asosida intellektual mulk, ya'ni ijodkorlik mahsulini yaratishga qaratilgan faoliyat

IJODKORLIK SIFATLARI:

SHaxsning aniq maqsad sari ongli tarzda faoliyat yuritishining yuqori ko'rsatkichi bo'lib, mustaqil fikrlar, tasavvurlar, tushunchalar, kuzatishlar diqqat va qobiliyatlar majmuidir.

KREATIVLIK NEGIZIDA AKS ETUVCHI MUHIM SIFATLAR:

- ✘ Refleksiya qobiliyati
 - ✘ Hissiyotga boylik
 - ✘ Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik
 - ✘ Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi
 - ✘ Boy tasavvur
 - ✘ O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish
 - ✘ Eruditsiya (bilag'onlik)
 - ✘ Mantiqiy fikrlay olish
- Ijodiy yo'nalganlik

SHaxsning kreativligi: shaxsning an'anaviy fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

SHaxs kreativlik potensialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- ✗ kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- ✗ - yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ✗ - ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- ✗ - hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

Kreativlik potensialiga ega talaba o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- Bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
 - masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
 - masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish

SHaxs kreativlik potensialining tarkibiy asoslari:

Maqsadli-motivli yondashuv - (ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi)

Mazmunli yondashuv - (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagi BKMni aks ettiradi)

Refleksiv-baholash - (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi)

Tezkor-faoliyatli yondashuv - (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi)

SHaxs kreativlik potensialining ustuvor tamoyillari:

- ✘ Kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi
- ✘ SHaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o'zaro uyg'unligi
- ✘ Individuallikka erishish
- ✘ Bir butunlik, izchillik va tizimlilik
- ✘ Imkoniyatlarni oshirib borish
- ✘ Ijodiy yo'naltirilganlik
- ✘ Muammoli xarakterga egalik

SHaxs kreativlik potensialini uch darajada aniqlash mezonlari

YUqori - muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o'ta faol, izlanuvchan

O'rta -ba'zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi

Past - garchi u etarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surshga intiladi, kreativ qobiliyati etarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi

4-MAVZU: (4SOAT MA'RUZA, 6SOAT AMALIY MASHG'ULOT)

KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA JAHON

TAJRIBALARI

Reja:

1. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.
2. AQSH, Janubiy Koreya, YAponiya, Finlyandiya, Germaniya va boshqa davlatlar ta'lim tizimi.

Tayanch iboralar: xalqaro baholash dasturlari, *PIRLS dasturi, TIMSS dasturi, PISA dasturi, STEAM metodi*

1. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim

tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini etishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jahon tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta'limi bo'yicha ko'pgina maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'qishlar, uchrashuvlar o'tkazildi. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet ellarda o'quv-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida jahon ta'lim tizimini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Jahon ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif kilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalkaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya

Kengashi, Gyote instituti, YUNESKO va YUNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermokdalar. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. SHu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSH, YAponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQSHda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish ta'lim oluvchilar va ota — onalar ixtiyoridadir. "YAngi dunyo"ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etdi.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv Dasturlari ham amalga oshirildi. Bu o'quv dasturi tobora tuliqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olмокda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografn, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat, ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

YAponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar

ko'zga tashlanadi. YAponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan. SHuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 80yillarda tabiiy ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSH va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirishdi. Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqalashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'limni tabaqalashtirish engdolzarb masalaga aylangan. Ta'lim oluvchilarni tabaqalashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, fransuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf ta'lim oluvchilarini uch tabaqaga ajratib o'qitishnn afzal ko'radilar.

Bular quyidagilar :

1. Gomogenlar — matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan ta'lim oluvchilar.
2. YArim gomogen — tabiiy turkumdagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil ta'lim oluvchilar.
3. Gegeron — barcha predmetlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan ta'lim oluvchilar va hokazo.

Tabaqalashtirish jarayoninig yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmokda.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarning ko'pchilida tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda. Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgari ketgan bolalar ko'plab topilmokda. Ular o'quvni jud erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta shov - shuvlarga sabab bo'ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar. SHunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60 - yillardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday maktablarning o'quv dasturlari bolalar qobiliyati va imkoniyatini to'la ro'yobga chiqarishni ta'minlab berish darajasida murakkab tuzilgan. Qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturlari AQSHda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda qobiliyatli bolalar bog'chalari ochilgan bo'lib, ularda 4-5 yoshli ta'lim oluvchilarmaktab dasturida o'qitiladilar. AQSHda "Merit" dasturi asosida har yil yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o'rtasida test sinovlari o'tkazilib eng qobiliyatli 35 ming ta'lim oluvchi tanlab olinadi va o'qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart - sharoitga ega bo'lgan turarjoy, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi. Lekin iqtidorli bolalarga qarama - qarshi qutbda turgan aqli zaif ta'lim oluvchilarning taqdiri ham xorijlik hamkasblarnitobora tashvishlantirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o'rganish, oldini olish bo'yicha ko'pgina profilaktik ishlar olibborilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda.

Germaniya maktablarida sinfda ta'lim oluvchilar sonini qisqartirish sari yo'l tutilgan. Bunday ta'lim oluvchilarni - har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni ta'lim oluvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u pedagogdan konsultatsiya oladi.

YUqorida bayon qilinganlardan ko'zda tutilgan maqsadlari :

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo'nalishlarini kuchaytirish.
- ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo'llarini qidirib topish.

- tarbiyaning yangi formalarida - ta'lim oluvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish.

- maktab o'quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o'zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish.

- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yaqinlashtirish, kasbga yo'naltirish ishlarini kayta tashkil etish.

- tabaqalashtirib o'qitishni yo'lga qo'yish, maxsus o'quv muassasalarini (ham talantlar, ham aqliy, jismoniy zaif ta'lim oluvchilar uchun) rivojlantirish.

- yangi, ya'ni o'quv texnik vositalarini ta'limdagi salmoqni oshirish, pedagoglar korpusida kompyuter ta'limini yo'lga qo'yish.

- pedagogik g'oyalarni amalga oshirishda keng qamrovli eksperiment tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

CHet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni Vatanimiz ta'lim tizimlarida qo'llash Resublikamizda ta'lim—tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g'oyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiytadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi.

Endilikda boshlang'ich 4-sinf ta'lim oluvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) tadqiqoti joriy etiladi.

SHuningdek, Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) tadqiqotidan 4 va 8-sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun foydalaniladi.

The Programme for International Student Assessment (PISA) tadqiqoti 15 yoshli ta'lim oluvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun qo'llaniladi.

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda pedagoglarning ish sharoitlarini o'rganish uchun joriy etish ko'zda tutilgan. Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;
- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish; □ ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Ta’lim oluvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta’lim sifati darajasini belgilaydi. SHu maqsadda o‘quv yili davomida har bir ta’lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o‘tkazib boriladi. Uning natijasiga ko‘ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, pedagoglar salohiyati va ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta’lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo‘lgani uchun Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim maktabi ta’lim oluvchilari bilimini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. YA’ni, ta’lim oluvchilar bilimini xalqaro talablarga etkazish, unga mosligini o‘rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) kabi baholash dasturlarini keng qo‘llash rejalashtirilmoqda.

PISA - 15 yoshli ta’lim oluvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo‘lib, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o‘tkaziladi. Unda ta’lim oluvchilarning bilim sifati o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha monitoring qilinadi va ballik tizimda baholanadi. Ushbu xalqaro dastur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda sqo‘llangan. Dastur ko‘magida turli davlatlar ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Bu

tadqiqotlarning natijasi dunyo bo'yicha katta qiziqish bilan kuzatib kelinadi. SHu bois yildan-yilga uning ahamiyati va qamrovi oshib boryapti.

Misol uchun, 2000 yilda dastur testlarida 32 davlatdan 265000 nafar ta'lim oluvchi ishtirok etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga oshishi, ya'ni 78 davlatdan 540000 nafardan ziyod ta'lim oluvchiqatnashishi kutilmoqda. Har bir davlatdan ishtirok etuvchi ta'lim oluvchilar soni mamlakatdagi jami 15 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan etakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.

TIMSS- maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Ushbu tadqiqot turli davlatlardagi 4- va 8-sinf ta'lim oluvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, pedagoglar salomiyati, ta'lim oluvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi.

Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQSHning ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. SHuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

STEAM-hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda **STEAM** abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: S – science, T – technology, e – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati,

ijod, matematika. Oddiy soʻz bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng koʻp talab etilayotgan fanlardir.

Hech kimga sir emaski, koʻplab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun oʻzlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Lekin bunga oʻquvchilarni qanday qilib tayyorlashimiz mumkin, chunki maktab darslari orasidagi bogʻliqlikni koʻrish juda murakkabdir. Aynan shunday muammolarni xal qilishda **STEAM** yordam beradi.

Bu metodika taʼlimni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qoʻllay olish koʻnikmalarini shakllantirishga imkon beradi. **STEAM** bu maktabda va maktabdan tashqarida loyixa va oʻquv–tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bogʻliqligini koʻrsatib oʻrgatiladi.

Fanlarni kundalik hayot bilan bogʻliqligini koʻrsatishdan tashqari, texnologiya oʻquvchilarning ijodkorligini ham koʻrsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv oʻquvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, oʻquvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni oʻrganadi. Bunday vazifalar yordamida oʻquvchi gʻoyalarni nafaqat oʻylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham oʻrganadi. SHu tariqa, oʻquvchi oʻz faoliyatini oldiga qoʻyilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga oʻrganadi.

2. AQSH, Janubiy Koreya, YAponiya, Finlyandiya, Germaniya va boshqa davlatlar taʼlim tizimi

AQSH TAʼLIM TIZIMI

Amerika Qoʻshma shtatlarida taʼlim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 1-8-sinflargacha boʻlgan boshlangʻich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha oʻqiydilar);

- 9-12-sinflardan iborat o'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqichi oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda hamda dorifununlardir. AQSHda majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalarixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa "Kinder garde" deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish ta'lim oluvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlardaturlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shoular va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat.

9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda quyidagi to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi:

- kasb-hunar ta'limi;
- biznes ta'limi;
- savdo va sanoat ta'limi; -qurilish ta'limi.

Oliy ta'lim esa quyidagi 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Kichik mutaxassis 2 yillik kollejlarda.
2. Bakalavr 4 yillik kollejlarda.
3. 4 yillik kollej yoki dorifununni tugatgandan so'ng, 1-2 yillik magistr maktabi.
4. Doktorantura.

Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: 1-ta'limni individuallashtirish;
2-talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish.

Pedagog yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad talabainellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, AQSH o'rtamaktablarida o'z ta'lim oluvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasbhunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi.

AQSHda har bir ta'lim oluvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan pedagoglar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il- qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar) ta'lim televideniesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoappaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat.

XXI asr arafasida AQSH yangi qabul qilingan «2000-yilda Amerika ta'lim strategiyasi» dasturi e'lon qilingan edi.

Turli yo'nalishdagi asosiy maqsadlar belgilangan mazkur dasturda 2000-yilda barcha amerikalik kichkintoylarning maktabga tayyor holda kelishlari, aholining 90 foizi oliy ma'lumotli bo'lishi, ta'lim oluvchilarning ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya fanlari bo'yicha jahonga o'z iqtidorlarini namoyish eta olishlari, talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlashtirishda jahonda eng oldingi o'rinlarga chiqishlari, har bir voyaga etmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari, maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish, o'qish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgandi. AQSH ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi mazkur dastur asosida o'tgan yillar davomida juda ko'p ishlar amalga oshirildi.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSH jahon mamlakatlari orasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini

firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining manbalari tashkil qiladi.

JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI

Janubiy Koreyada zamonaviy ta'lim tizimining qaror topishi 1945 yillardan, ya'ni mamlakatning yapon hukmronligidan ozod bo'lgan vaqtdan boshlanadi. 1945 yildan 1970 yillargacha ta'lim tizimi ayniqsa jadal rivojlandi. 1950–1953 yillardagi Koreya urushi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotishlar va vayronagarchiliklarga qaramay Janubiy Koreya savodsizlikni tugatishga qat'iy kirishdi.

1968 yilda qabul qilingan Milliy ta'lim nartiyasi koreys xalqi mentaliteti va vatanparvarligining o'ziga xos tomonlarini ayniqsa yorqin ifoda etadi. Xartiyaga muvofiq milliy ta'lim millatni jipslashtirishga, tarix va an'anlariga hurmat bilan qarashga, qadriyatlarni ulug'lashga, millatni yanada kuchliroq qaror topishiga va umuman, xalqning farovonligini ta'minlashga yaqindan yordam beradi va asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'limga bu kabi munosabatda bo'lish, koreys xalqi uchun tabiiy bir holatdir va aynan mana shu holat mamlakatning muvaffaqiyati uchun kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Koreya ta'lim tizimi muayyan bir xillikka ega bo'lish bilan bir qatorda, alohida maktablar uchun mahalliy va milliy dasturlar doirasida davlat ta'lim standarti doirasidan chekinishga ruxsat beradi. Davlat ta'lim dasturi davriylikka ega bo'lib, ta'limga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda, jamiyatning dunyoqarashlari va yangi fanlarning yuzaga kelishiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Ta'lim dasturi standartlari maktablar uchun o'quv mazmunini aks ettiruvchi va rahbarlarning o'quv dasturlari ishlab chiqishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hukumat milliy va ijtimoiy talablarni qondirish maqsadlarida, shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlanmalari bo'yicha turli ko'rsatkichlarni e'tiborga olgan holda, shu kungacha davlat dasturiga etti marotaba o'zgartishlar kiritdi. "Ettinchi dastur" 1997 yilning dekabr oyida joriy etilgan. YAngi globallashuv davri va modernizatsiyalashuv asrida har taraflama mukammal inson resurslarini kamol toptirish maqsadida Ettinchi

dastur eskicha ta'lim metodlaridan voz kechib, yangi mukammal ta'lim tizimini yaratishga intildi. Har bir fan bo'yicha talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta'lim berish metodlari ishlab chiqildi. Bunda talabalarning mustaqil bilim egallashiga, ularning dunyoqarashlarini yanada kengaytirishga katta e'tibor qaratildi.

SHunday qilib, Ettinchi dastur talabalarning individual talanti, ijodiy kuchi, mustaqillikka intilishlarini inobatga olishi bilan avvalgi dasturlardan farq qiladi. Bunda shaxsning mustaqilligiga ijodiy kuch uchun poydevor sifatida qaraladi.

Ettinchi dastur ikki qism: umumiy va maxsus qismlardan iborat.

YAngi dastur bo'yicha o'rta maktab o'n yillik bo'lib, keyingi 11- va 12-sinflarda ta'lim oluvchilar kelgusida egallaydigan kasblari bo'yicha ixtiyoriy tanlov asosida maxsus tayyorlov kurslarida ta'lim oladilar.

Milliy dastur doirasida pedagoglar uchun maxsus o'quv rejalari ham ishlab chiqilgan. O'rta maktab doirasida o'qitiladigan fanlar majburiy va qo'shimcha darslarga ajratiladi. Oliy maktab va universitetlarda maxsus fanlar o'qitiladi. Maktablarda ba'zi fan sohalari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar beriladi.

Davlatning ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan islohotlari natijasida Koreya Respublikasi ba'zi bir ko'rsatkichlar bo'yicha jahonda etakchi o'rinlarni egallaydi.

Bugungi kunda Janubiy Koreya ta'lim tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish hisoblanadi. Maktabgacha ta'limni bepul qilgan holda mamlakat maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnaydigan bolalar sonini oshirishga erishdi. Koreya Respublikasida bolalar bog'chasi ularga nazariy ta'lim berish maqsadiga intilmagan holda, o'zining muhim vazifasi – ularning har taraflama barkamol bo'lib etishishini ta'minlashga, ularning jismonan va ruhan sog'lom bo'lishiga, o'zida ishonchni tarbiyalab etishtirishga harakat qiladi.

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda, sababi bu davlat postindustrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan

Osiyo-Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy identivlik, SHarqning an'anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YUNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan.

Ko'pchilikning yagona fikricha, Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti va texnikadagi yutuqlari "Inson resursiga investitsiyani to'g'ri tikkanligida" deb ta'kidlashadi. Konfutsiy davridan saqlanib qolgan ziyoli odamga jamoat xizmati hozirgi kungacha bor. Janubiy Koreyada 1980 yillardan beri ilmiy kasblar eng nufuzli hisoblanadi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi yana bitta butunjahon tamoyilini amalga oshiradi: bu ta'lim va fan integratsiyasidir. Dunyo amaliyotida o'quv muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarini o'z ichiga oluvchi akademik konglomeratlar samarali faoliyat olib borishmoqda. Bunday birlashuv ilm va ta'lim integratsiyasining aniq asosi bo'lib xizmat qiladi va mamlakatda yagona ilmiy-texnik va ta'lim siyosatini olib borish imkoniyatini beradi. Oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining qo'shilishi bugungi kunda integratsiyaning eng samarali shakli hisoblanadi.

Ko'p rivojlanayotgan davlatlarda ta'lim bugungi kunda jamiyatning faqat sarf-harajatlar sohasi emas, balki asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylandi. YA'ni, ta'lim raqobatbardosh, jiddiy moliyaviy mablag'larni olib keluvchi soha bo'lishi kerakligi isbotlandi. Ta'limning deyarli 1bosqichidayoq davlat va iqtisodiyotning rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Faqat bilim olish uchungina emas, balki olingan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash uchun o'qish zarur.

Lekin shuni hisobga olish joizki, ta'limni tizimli modernizatsiya qilish jarayoni o'z-o'zidan eski tartib elementlarni engib o'tish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va tabiiy boshqaruvning boshqa metod va mexanizmlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Lekin bu shundoqligicha nusxa olish shaklida emas, balki yangiliklarni

qabul qilish bilan birga ta'lim rivojlanish bosqichidagi eng yaxshi an'analar va qo'lga kiritilgan yutuqlarni saqlab qolishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim

Koreyada bolalar bog'chalari umumiy ta'lim dasturining bir qismi hisoblanmaydi, ota-onalar bolalarni xususiy muassasalarga topshiradilar. Bolalar bog'chasiga bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Olti yoshga to'lgan bolalar odatda maktabga boradi. 1980yillardan boshlab bolalar bog'chalari va maktabgacha muassasalarga boradigan bolalar soni keskin o'sdi: bunday 901 ta muassasaga 1980 yilda 66 433 bola borgan bo'lsa, 1987 yilda 7 792 muassasa mavjud bo'lib, ulardagi bolalar soni 397 020 taga etdi. Ulardagi tarbiyachi va pedagoglar soni ham ortdi, ularning katta qismini ayollar tashkil etdi.

Koreya bog'chalari quyidagi turlarga bo'linadi: boshlang'ich; o'rta; yuqori.

Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim tizimi asosan bolaning boshlang'ich xar tomonlama rivojlantiruvchi ko'nikmalarni o'rgatishka qaratilgan. Bolalar uch yoshdan boshlab koreys va ingliz tillarida o'qish va yozishni o'rganadilar. SHu yoshdan boshlab bolajonlar matematika sirasrorlarini o'rganadilar. Koreyslar bolalarning jismonan sog'lom va baquvvatligiga, shuningdek musiqa darslarining o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratadilar. Bog'chadan boshlab bolalarga judayam katta xajmda uyga vazifalar beriladi, ingliz tili darslarida alohida so'z va jummalarni tarjima qilishdan tashqari, bolalar o'z fikr va qarashlarini ingliz tilida ravon va sodda so'zlashni o'rganadilar.

Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1 martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga xuquqli bo'lib, buning uchun maktab mas'ul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim

O'quv yili esa 1 mart Koreya Respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2 martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestrغا bo'lingan holda olib boriladi. Asosiy o'qitiladigan fanlar: koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyatshunoslik, tillar, tasviriy san'at, musiqa. Odatda bu fanlarning barchasini bitta pedagog o'qitadi, chet tillaridan tashqari.

Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul. Boshlang'ich maktabda quyidagi 9 ta fanlar o'qitiladi:

Koreys tili, matematika, aniq fanlar, jamiyat haqidagi fanlar, chet tili, tasviriy san'at, musiqa. Odatda bu fanlar sinf rahbari tomonidan o'qitiladi, faqatgina ba'zi fanlar uchun maxsus pedagoglar tayinlanadi. Boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga, undan yuqori ta'limga imtihonlar topshirish orqali emas, balki faqatgina yoshiga qarab o'tiladi. XX asrning 80 yillariga qadar ingliz tili o'rta maktablarda o'qitilgan, hozirda esa boshlang'ich maktabning 3-sinfidan o'qitilyapti. Koreys va ingliz tili grammatikasi juda juda katta farqli bo'lganligi uchun ingliz tilini o'rganish juda qiyin. SHu bois, ota-onalar o'z farzandlarini xususiy o'quv muassasalariga qo'shimcha o'qishga jo'natadilar. Xususiy o'quv muassasalari, ya'ni "xagvon"larbolalarga til o'rganishda individual yondashadilar. SHu maqsadda, ingliz tilida gaplashuvchi chet elliklarni boshlang'ich maktabga jalb qilish yo'lga qo'yilgan.

Boshlang'ich maktab koreyschasiga "chходын хаккыо" deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi. 1996 yil Janubiy Koreya hukumati bu nomni o'zgartirdi va "gukmin хаккыо" deb nomladi. Bu atama "fuqarolik maktabi" degan ma'noni anglatadi.

Koreyada davlat tasarrufidagi boshlang'ich maktablardan tashqari qator xususiy maktablar ham mavjud. Bu maktablarning o'quv dasturlari davlat maktablari o'quv dasturlariga birmuncha mos keladi, lekin o'qitish yuqori darajada amalga oshiriladi. Masalan, kam sonli ta'lim oluvchilarga ko'p pedagoglarning jalb

etilishi, qo‘shimcha fanlarning kiritilishi, umuman ta‘limning yuqori standartlarga egaligi va h.k. SHu bois ko‘pchilik ota-onalar o‘z farzandlarini xususiy maktabga berishga intiladilar. Lekin bunday maktablarda o‘qish narxining balandligi otaonalarni o‘ylantirib qo‘yadi. Boshlang‘ich maktabni bitirgan ta‘lim oluvchilar keyingi bosqichlarga imtixonsiz o‘tadilar. Janubiy Koreyada sinflarni raqamlash odatdagiday pastdan yuqoriga emas, balki har bir ta‘lim bosqichida 1 dan boshlanadi.

Masalan, boshlang‘ich maktab 1 dan 6 gacha, o‘rta maktab (3 yil) 1 dan 3 gacha, sanaladi: boshlang‘ich maktabning 1-sinfi (2,3,4,5,6-sinfi), o‘rta maktabning 1-sinfi (ya‘ni, o‘zbek maktablaridagi 7-sinf), oliy maktabning 2-sinfi (ya‘ni o‘zbek akademik litsey va kasb-hunar kollejining 2-kurs talabasi) kabi.

Janubiy Koreyada maktab tizimi: o‘rta va yuqori maktablar

Koreys tilida o‘rta maktab —”chunxakyo”deb nomlanadi va “o‘rta maktab” ma’nosini beradi. O‘rta maktabda ta‘lim majburiy, bepul va 3 yil o‘qitiladi. O‘rta maktabga 11 yoshdan oshgan, 12 yoshdagilar qabul qilinadi.

Boshlang‘ich maktabga nisbatan o‘rta maktabda ta‘lim oluvchilarga ancha yuqori talablar qo‘yiladi. Sinf rahbarlari-xangyillar ta‘lim oluvchilar hayotida muhim o‘ringa ega, ta‘lim oluvchilar ularni qattiq xurmat qilishadi. O‘rta maktabda bir kunda 6 ta fan o‘qitiladi, shuningdek, alohida maxsus 7-dars ham bor. O‘quv dasturining negizini quyidagi fanlar tashkil etadi: matematika, koreys va ingliz tili, qator aniq fanlar, **“qo‘shimcha”**fanlar: san‘at sohalari bo‘yicha, jismoniy tarbiya, tarix, xancha (xitoy peroglifi), etika, uy iqtisodini yuritish, kompyuter savodxonligi.

Mashg‘ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang‘ich sinfdagi 9 ta fanga, o‘rta maktabda yana 4 ta fan qo‘shilib, jami 13 ta fan o‘qitiladi. Maktabda chet tillariga e‘tibor kuchli. Ko‘pchilik ingliz tilida bermalol gaplasha oladi.

Koreyalik ta‘lim oluvchilar ingliz tilidan tashqari klassik xitoy tilini majburiy ravishda o‘rganadilar va 5-sinfdan boshlab, Xitoy tarixi o‘rgatiladi. Boshlang‘ich maktabdagi kabi o‘rta maktabda ham ta‘lim oluvchi sinfdan-sinfga imtihonsiz o‘tadi. Ma‘lum fanlar uchun imtihonlarning standart shakllari mavjud, fan

o'qituvchilar tavsiya qilingan o'quv qo'llanma va darsliklardan foydalanadilar. O'rta maktabning ko'plab ta'lim oluvchilari darsdan keyin qo'shimcha kurslar "xavgonlar"ga boradilar, yoki xususiy repetitorlarga qatnaydilar. Alohida e'tibor ingliz tili va matematikaga qaratilgan. Ba'zi xavgonlar bitta fanga asoslanadi, ba'zilari barcha asosiy fanlarni qamrab oladi. Bu o'z navbatida maktab mashg'ulotlarining yanada qiyin bo'lgan ikkinchi qismiga aylanadi. Undan tashqari juda irodali ta'lim oluvchilar kurash turlari va musiqa maktablariga qatnashadilar. Ta'lim oluvchilar shu tariqa darsdan keyin uylariga juda kech qaytadilar.

YUqori maktab koreyschasiga "кодѳмхаккѳ" deb nomlanadi. Koreyalik bolalar yuqori maktabga o'rta maktabdan keyin 17 yoshdan 1-kursga qabul qilinadi va 19 yoshgacha tahsil oladi. YUqori maktablar bir necha turlarga ajratiladi:

- *Davlat yuqori maktablari*: Koreya Ta'lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi;

- *Umumiy yuqori maktablar*: har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi;

- *Xususiy yuqori maktablar*.

SHuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi:

- Ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot);

- Umumiy maktablar;

- Maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab);

- Texnika maktablari;

- CHet tili maktablari; - Jismoniy tarbiya maktablari; - San'at maktablari

va h.

Janubiy Koreya Respublikasida ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi.

YUqori maktab o'rta maktab kabi majburiy emas. Biroq keyingi yillarning barchasida statistik ma'lumotlarga qaraganda **97-98 %** koreys yoshlari yuqori maktabni tamomlaganlar. "Ilmiy" yuqori maktablar, chet tillar va san'atshunoslik maktablariga kirish ancha murakkab imtihonlarni topshirishni talab etadi. YUqori maktablar xususiy va davlat tasarrufida bo'lishi mumkin, bu maktablarda mutaxassislik berilmaydi, balki ularni keyingi ta'lim bosqichiga tayyorlaydi.

Kollejda tahsil olishni istamagan ta'lim oluvchilar kasbiy bilim yurtlariga kirib o'qishlari mumkin. Bu bilim yurtlari texnologiya, agrokultura yoki moliya yo'nalishlariga ixtisoslashgan. YUqori maktablarning jadvali haqida gapiriladigan bo'lsa, har bir ta'lim oluvchi uchun kun yarmida qaytib kelish odatdagi holatga aylangan.

Janubiy Koreyada hunar maktablari 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45% bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23% da texnik kasb egalari etishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisosliklari o'zlashtiriladi. SHunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Janubiy Koreya "Ta'lim haqidagi qonun" talablaridan biri ham shudir. Bizning Respublikamizdagi kabi Janubiy Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor juda kuchli. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan. Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan.

Davlat maktablarida din fan sifatida o'qitilmaydi. Lekin 3sinfdan boshlab "Odobnoma" kabi kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat ajratilgan. Bu fan o'z ichiga dinni ham qamrab oladi. Din qotib qolgan bir aqida sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun bir tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanlarining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6.5% bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta pedagoglar tayyorlaydigan kollejlari mavjud har bir provinsiya (viloyat) o'z

kollejiga ega. YUqori maktab bitiruvchilari “susen” deb nomlanuvchi standart test topshiradilar. Maktab o‘quv dasturlari kirish testlari-imtihonlari mazmunini qamrab olgan. Susen 3 ta asosiy seksiya fanlardan iborat: koreys tili, matematika va ingliz tili. Undan tashqari tabiiy va ijtimoiy fanlardan tanlov asosida qator fanlar kiritiladi. Bunday test 1 yilda 1 marta topshiriladi, u intensiv tayyorgarlikni talab etadi. Bu testga bo‘lajak OO‘YU talabalari bog‘cha yoshidan tayyorlanishni boshlashadi.

Testni topshirolmagan va kollejga kirish 1 yilga surilgan ta‘lim oluvchilarni “chesusenlar” deb atashadi.

Janubiy Koreyada kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘lim tizimi

Janubiy Koreyada oliy ma‘lumotga ega bo‘lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqei muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham bu martabali ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishga bo‘lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada e‘tibor ko‘proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog‘liq fanlarga qaratiladi.

Janubiy Koreyada quyidagi ta‘lim muassasalari turlari mavjud:

- kollej va universitetlar (xususiy va milliy, davlat tasarrufida);
- industrial universitetlar;
- pedagogika institutlari; - sirtqi universitetlar; - ochiq universitetlar.

Janubiy Koreya ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida bo‘lganidek, oliy ta‘lim sohasida ham chuqur islohotlar olib borilgan. Mamlakatda ta‘limni isloh qilish va rivojlantirishga oid qabul qilingan qonunlar va me‘yoriy hujjatlarni oliy ta‘limni raqobatga tayyorlash, universitet ta‘limini rivojlantirishda tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, bitiruv maktab ta‘limi va amaliy mutaxassisliklarni kuchaytirish, universitetlarning mahalliy sanoat bilan aloqadorligini yaxshilash, sanoat talablariga javob beradigan kasbiy ta‘limni rivojlantirish, maktab bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy kam ta‘minlangan oilalar va ishchilar uchun kasbiy ta‘limni kuchaytirish, oliy ta‘lim uchun o‘smirlar imkoniyatlarini yaxshilash, axborot asrida ta‘lim boshqaruvi va uni

moliyalashtirish xalqaro ta'lim almashinuvini mustahkamlash kabi dolzarb masalalarga katta e'tibor qaratildi.

Koreyada oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish qattiq nazorat ostida bo'lib, har bir da'vogarning ma'lum bir kollej yoki universitetga muvofiqligi talabanning ta'limni o'zlashtirish qaydlari va standartlashtirilgan milliy test natijalari orqali belgilanadi.

Mamlakatda yagona sirtqi oliy o'quv yurti - Seuldagi sirtqi universitet o'ziga hos ahamiyatga ega. "Ochiq universitetlar" ning vazifasi ham shunga o'xshash bo'lib, ularga ishlab chiqarishda ishlayotganlarga kirishi mumkin, ularda kirish imtihonlari yo'q. Janubiy Koreyada kollejlarning asosiy vazifasi malakali ishchilar yoki bo'g'in idora xizmatchilarini tayyorlashdir. Talaba kollejni tugatgach, nazariy jihatdan birdaniga universitetning ikkinchi yoki uchinchi kursiga kirish uchun xarakat qilishi mumkin. SHu bilan birga maxsus o'tish imtihonini topshirib, boshqa mutaxassislik bo'yicha ham kirishi mumkin.

Bakalavriat. O'qish muddati 4 yil. Talabalar 140-150 kredit soat atrofida tahsil oladilar. Tibbiyot sohasida o'qish 6 yil davom etadi va 180 kredit soat o'qishadi. O'qish tugagach, bakalavr darajasini olganligi haqidagi diplom beriladi. Tipik yirik koreys universitetlari tarkibida 10 tadan 20 tagacha fakultetlar bor. Fakultetlar amerikacha termin bilan "kollixlar", ya'ni koreyscha "texak" deb ataladi. Koreyada o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor beriladi. Natijada Janubiy Koreya dunyoda o'z maktab va ta'lim muassasalarini kompyuter va internet bilan to'liq ta'minlagan ikkinchi davlatga aylandi.

Magistratura. O'qish muddati 2-3 yil. O'qish yakunida talabalar dissertatsiya yoqlaydilar. Tibbiyot sohasidagi talabalar Tibbiyot maktabining barcha talablarini bajarib, milliy imtihon topshiradilar. O'qish yakunida magistrlik darajasi beriladi.

Doktorantura. O'qish muddati 3-4 yil. O'qish yakunida doktorlik dissertatsiyasi himoya qilinadi, og'zaki yoki sohaga mos imtihon topshiriladi.

YAPONIYA TA'LIM TIZIMI

YAponiya juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehmatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda YAponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. YAponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo'llash siyosati eng muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda YAponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi.

YAponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. YAponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini YAponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'limga YAponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. YApon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasiularning hayotlarining maqsadlaridir.

YAponlar bolaning erta voyaga etishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda-o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda-amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda-burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda-yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda-liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni engishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.

YAponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar-"xan"larga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada "o'z ish o'rni" ajratiladi, ular o'z xanlariga nom

tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir ta'lim oluvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. YAponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. SHuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda.

Bolalar bog'chasi YAponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu erda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, ta'lim oluvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang'ich ta'lim –“syogakko”

Boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. *YAponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy.* O'quv rejasiga yapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma akademik predmetlar hisoblanmaydi.

YAponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, mashg'ulotlar aprel oyida boshlanadi. O'quv yili 3ta chorak-trimestrga bo'linadi. *1-chorak-6 apreldan-20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentyabrdan 2-trimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davom etadi. 25-martdan 6aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. SHu paytda ta'lim oluvchilar sinfdan sinfga ko'chadi.* Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida ta'lim oluvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar trimestrda yaxshi o'qimagan bo'lsa, maxsus kurslarda o'qiydilar. YAponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, pedagoglar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida.

Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji ieroglifdan 1006tasini yod olishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-ta'lim oluvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hissini o'rgatish;

-ta'lim oluvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;

-ona tilidan to'g'ri foydalanish; -iqtisodiy tarbiya berish;

-barkamol shaxsni tarbiyalash.

O'quv maqsadlariga aniq o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang'ich maktabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o'qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. SHuningdek "maxsus faoliyat" fani ham o'qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. Kam ta'minlangan oilalarning bolalari maktab nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to'lash uchun dotatsiya oladilar. Ota-onalar farzandlarini o'z

tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta'lim muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

YAponiyada o'rta va yuqori maktab tizimi.

Kichik o'rta maktab-tyugakko.

Boshlang'ich maktabni tugatgan ta'lim oluvchi o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi lozim. YApon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari ta'lim oluvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin.

Kichik o'rta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'limning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5% xususiy. 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik ta'lim oluvchilar bitta yoki bir necha maktab to'garaklari, qiziqishlari bo'yicha klublarga qatnashadilar. Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabki vaqtni egallaydi.

Kichik o'rta maktabda o'tiladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlov fanlar kiradi. Bu fanlarning tarkibi maktablarga bog'liq. Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili hisoblanadi.

YAponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori ta'lim olishini juda hohlaydilar. Ta'limga bunday katta e'tibor "dzyuku" maktablarining yaratilishiga asos bo'ldi. "Dzyuku" -nufuzli o'quv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo bo'lgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq.

"Kichik dzyuku" lar 5-6 ta'lim oluvchidan iborat bo'lib, pedagogning uyida shug'ullanadi. "Katta dzyuku"lar 5 minggacha ta'lim oluvchilarni yig'adi. O'qish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha bo'ladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi.

YUqori (o‘rta) maktab-kotogakko

YUqori (o‘rta) maktab majburiy emasligiga qaramay, unda 94% ta‘lim oluvchilar tahsil oladilar. YUqori o‘rta maktab soni 55%ni tashkil etadi, shunga qaramay davlat va xususiy katta maktablar pullik. YUqori o‘rta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keyingi 2 yil ichida oliy ta‘lim olish maqsadiga ko‘ra kursni tanlash nazarda tutilmoqda.

YUqori maktab dasturlari o‘rta maktab va boshlang‘ich maktab dasturlariga ko‘ra xilma-xil, lekin ta‘lim oluvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi bo‘yicha imkoniyatlar yaratiladi. YUqori maktablarda o‘qish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiy o‘rta va boshlang‘ich maktablar ham bor. Barcha pulli ta‘lim muassasalarida stipendiyalar konkursi g‘olibi bo‘lsa, tekin o‘qish mumkin yoki chegirmalar olish mumkin. O‘rta maktabdan yuqori maktabga o‘tish imtihonlar natijalariga bog‘liq holda amalga oshiriladi. O‘rta maktabda o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ko‘ra ta‘lim oluvchi kirish imkoniyati bor bo‘lgan katta maktab ro‘yxatini oladi.

Odatdagi davlat maktablaridan tashqari pulli xususiy maktabakademiyalar (gakuenlar) bor. SHuningdek, umumdavlat maktabi maqomidagi “milliy maktablar” mavjud. Bu akademiya kirish uchun yuqori konkurs asosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdin akademiya yaxshi ta‘lim dasturlari mavjud bo‘lib, ularning ko‘pchiligi oliy maktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi.

YAponiya hukumati OO‘YUleri bitiruvchilarini pedagog lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o‘laroq, davlat maktabi o‘qituvchisi bo‘lish uchun yapon fuqarosi o‘qituvchi diplomini olishi kerak va o‘qituvchilikka tayinlash imtihonidan o‘tishi kerak.

YAponiyada yuqori o‘rta maktablarning kunduzgi (o‘qish -3yil), kechki va sirtqi (o‘qish 4 yil) turlari bor. Kechki va sirtqi maktabni bitirganlik haqidagi guvohnomasi xuddi kunduzgi yuqori maktabnikiday bo‘lsa ham, 95% ta‘lim oluvchilar maktabning kunduzgi bo‘limida tahsil olishadi. YUqori maktablarga

qabul qilish kichik maktabni tugatganlik va kirish imtihonlari natijalari bo'yicha konkursdan o'tganligi haqidagi hujjat asosida amalga oshiriladi.

YUqori o'rta maktabda yapon tili, matematika, tabiiyot, jamiyatshunoslik va b. majburiy umumta'lim fanlariga qo'shimcha holda ta'lim oluvchilar tanlov bo'yicha fanlarni taklif qiladilar, bu ingliz tili, yoki boshqa chet tillar, shuningdek, texnik va maxsus fanlar bo'lishi mumkin. 12-sinfda ta'lim oluvchilar o'zi uchun ta'lim profillaridan birini tanlashi kerak.

Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi ko'rsatmasiga ko'ra, YUqori o'rta maktabda bilimlarni baholashda OO'YU tizimidan foydalaniladi. Bu har bir ta'lim oluvchi 12 yillik o'rta ta'limni tugatganligi haqida guvohnoma olishi uchun 80 kredit (zachyot birligi)ni yig'ishi lozim deganidir. Masalan, yapon tili va zamonaviy yapon adabiyotini har bir kursini o'rganish natijalari bo'yicha 4ta kredit beriladi, yapon tili leksikologiyasi bo'yicha 2 kredit, klassik til bo'yicha-2 kredit.

YAponiyada kasb-hunar ta'limi

YAponiyada yuqori o'rta maktabda o'qishni hohlamaganlar 5 yillik "texnik kollej"lar-kasbiy texnika bilim yurtlariga kirishlari mumkin. Lekin bu o'qishlarga kirish shunchalik oddiy emas, eng yaxshilaridan juda katta konkurs asosida qabul qilinadi, chunki YAponiyada yuqori malakali ishchilar juda ham zarur.

Universitet o'rniga 2 yillik kollejga kirish mumkin, unda maxsus ta'lim beriladi. Bu kollejlarda yapon qizlarining 90% o'qiydilar va ayollar kasbini egallaydilar: tibbiyot hamshirasi, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yuqori malakali uy xonimlari, aktrisa (seyyu).

YAponiya kollejlari o'z maqomi bo'yicha bizning o'rta maxsus ta'lim muassasalari bilan teng. Ular kichik, texnologik, va maxsus tayyorgarlik kollejlariga bo'linadi.

Kichik kollejlarda gumanitar, tabiiy, tibbiyot va texnik fanlar sohasida tayyorgarlikning ikki yillik dasturini tavsiya qiladi. Bu kollej bitiruvchilari universitetning 2 yoki 3-kursida o'qishni davom ettirishlari mumkin. Kichik kollejlarga qabul to'liq o'rta maktab bazasida amalga oshiriladi. Talabgorlar kirish imtihonlari va undan kamroq "Birinchi bosqich yutuqlari testi"ni topshiradilar.

YAponiyada texnologik kollejlarga to'liq emas yoki to'liq o'rta ta'limni tugatgach kirish mumkin. Birinchi holatda o'qish muddati 5 yil, ikkinchisida-2 yil.

Bu tipdagi kollejlarda elektronika, qurilish, mashina qurilishi va boshqa fanlar o'qitiladi. Maxsus tayyorgarlik kollejlari buxgalter, mashinist, dizayner, dasturchi, avtomexanik, tikuvchi, oshpaz va boshqalarkabi 1 yillik kasbiy kursni tavsiya etadi. Bitiruvchilar OO'YUda, kichik va texnik kollejlarda o'qishni davom ettirish xuquqiga ega bo'ladilar.

Noto'liq va to'liq o'rta maktab bitiruvchilarini ma'lum kasbga tayyorlash uchun 2 tipdan iborat maktab tizimi yaratilgan bo'lib, bular majburiy ta'lim bazasidagi 1-4 yillik maxsus tayyorgarlik maktablari, hamda bir necha oydan 1-3 yilgacha davom etadigan ko'p tarmoqli maktablardir.

1978 yil joriy qilingan va oxirgi yillarda uning sezilarli darajada oshgan maxsus tayyorgarlik va ko'p tarmoqli maktablar YAponiya uzluksiz ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bu maktablar ta'lim oluvchilarga kasbiy-texnik va umumta'lim yo'nalish kurslarini taklif etadi. O'rta kasbiy ta'lim 2-3 yillik kichik kollejlarda va 5 yillik texnik kollejlarda olinadi. Kichik kollejlarda "tanki-daygaku" deb ataladi va butun YAponiya ta'lim tizimining juda ko'p qismini tashkil etadi.

Ko'pchilik milliy kichik kollejlarda milliy universitetlar qoshida tashkil etilgan. Kichik kollejlarning yarmi o'rta tibbiy xodimlarni, choragi yurist va iqtisodchilarni, qolganlari- texnik mutaxassislarni tayyorlaydi. Munitsipal kichik kollejlarda jamiyatning ijtimoiy talablariga ko'ra ta'limiy va tadqiqot faoliyatini olib boradi.

YAponiyada davlat universitetlariga to'liq o'rta maktabni bitirib kirish mumkin. Qabul 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "YUtuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"ni topshiradilar. Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtihonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ball olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtihon topshiradilar.

Oliy ta'lim bakalavr darajasini olish uchun 4 yillik o'qish belgilangan. Ba'zan ma'lum kasbiy darajani egallash uchun 6 yillik dastur tavsiya qilinadi. 2 tipdagi universitetlar mavjud: milliy universitetlar davlat universitetlari.

YAponiyada kuchli 20talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir.

Universitet tanlashda birinchi mezon-uning nufuzliligida. Bunday nufuzli OO'YU bitirgan yosh yigit-qizlar darhol ishga olinadi.

YAponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi. Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa-talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Nazariy jihatdan umumilliy sikl tugagandan so'ng talaba mutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishi mumkin. Aslida, bunday holatlar kam uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Oxirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi. Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan. Oliy ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: gakushi. Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q. Lekin ba'zi universitetlar chet ellik talabalarni 2 yoki 3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi

(transfer examination).

Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi.

Ko'plab universitetlar o'quv jarayonini semestr tizimi bo'yicha tashkil qiladi. Universitetda zacet birliklari tizimi tashkil qilingan. Unda auditoriya va laboratoriyada semestr davomida har hafta ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitilayotgan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124dan 150 gacha zacet birliklarini to'plash lozim.

Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zacet birligidan iborat bo'lgan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi.

3 yillik doktorlik dasturlari 50 zacet birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari yapon oliy o'quv yurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor

Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar. YAponiya yoki chet el oliy o'quv yurtlaridan kelgan ko'chma talabalar bitta yoki qator ma'ruzalarda qatnashish yoxud magistratura va doktoranturadan ilmiy rahbarlikni olish uchun qabul qilinadilar. Tadqiqotchi talabalar (Kenkyu-sei) mazkur universitet professori rahbarligi ostida ma'lum ilmiy mavzuni o'rganish uchun bir yillik magistraturaga kiradi, lekin akademik daraja berilmaydi.

Globalashuv davrida oliy ta'lim jamiyat hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan YAponiyada oliy ta'lim tizimi juda qadrlidir.

YAponiyada oliy ta'lim 12 yillik boshlang'ich va o'rta ta'limdan keyin boshlanadi. YAponiya oliy ta'lim muassasalariga universitetlar, kichik mutaxassis diplomini beruvchi 2 yillik kollej, amaliy va ijodiy ta'lim beruvchi texnologik kollejlari va kasbiy va amaliy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kollejlari kiradi.

FINLYANDIYA TA'LIM TIZIMI

Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, finlyandiyalik maktab ta'lim oluvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko'p kitob ta'lim oluvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab ta'lim oluvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. SHunisi ajablanarliligi, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab ta'lim oluvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi.

Finlyandiyada o'rtacha majburiy umumta'lim tizimi ikki bosqichli maktabni o'z ichiga oladi:

- quyi (alakoulu), 1-6 sinf; □
- yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf.

Qo'shimcha 10-sinfda ta'lim oluvchilar o'z baholarini yaxshilashlari mumkin. So'ngra bolalar yo professional kollejga yo'l olishadi, yoki litsey (lukio)da o'qishni davom ettirishadi.

Finlyandiya ta'limi «o'rta» bosqichining 7 tamoyili:

1. Tenglik

-Maktablar

Mamlakatda na elita va na «bo'shroq» maktablar bor. Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar ta'lim oluvchi ta'lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo'lib, o'nlab xususiy maktablar bor. Ularning otaonalar qisman to'lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - ta'lim oluvchilarga bo'lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko'ra, bu o'ziga xos «pedagogik» laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlyandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlargacha. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta'lim olish mumkin. YAqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlyandiyada barcha maktablar birdek yaxshi.

- Barcha fanlar

Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U erda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

- Ota-onalar

O'qituvchi ta'lim oluvchisining ota-onasi kim bo'lib ishlashini oxirgi navbatda, zarurart tug'ilgandagina biladi. O'qituvchilarga otaonalarning ish joyiga doir savollar berish taqiqlangan.

- Ta'lim oluvchilar

Finlar ta'lim oluvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi. SHuningdek, "yaxshi" va "yomon" ta'lim oluvchilar ham yo'q. Ta'lim oluvchilarni bir-biriga taqqoslash taqiqlangan. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo'shroq bolalar ham "o'ziga xos" hisoblanib, barcha bilan birga o'qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham ta'lim oladi. Oddiy maktabda ko'rish va eshitish organlari kasalliklari bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun sinf tashkil qilingan bo'lishi mumkin.

Finlar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo'sh ta'lim oluvchilar orasidagi farq - juda kichik.

- O'qituvchilar

O'qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi, "sevimplilar" ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o'qituvchi bilan shartnoma

buzilishiga olib keladi. Fin o'qituvchilari faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar - fiziklar ham, adabiyotchilar ham, mehnat o'qituvchilari ham birdek teng. **Katta yoshli kishilar (o'qituvchilar, ota-onalar) va bolalar huquqlari tengligi**

Finlar bu tamoyilni "ta'lim oluvchiga hurmat" deb atashadi. Bolalarga 1-sinfdan ularning huquqlari tushuntiriladi, ijtimoiy xizmatchiga katta yoshlilar ustidan shikoyat qilish ham shular jumlasidandir. Bu finlyandiyalik ota-onalarni ularning farzandi - mustaqil shaxs ekanini, ularga so'z bilan ham, «qamchi» bilan ham ozor etkazib bo'lmasligini tushunishga rag'batlantiradi. Finlyandiya mehnat qonunchiligiga ko'ra, pedagog o'z kasbidan kelib chiqib ta'lim oluvchini taxqirlashga haqqi yo'q. Barcha o'qituvchilar faqat 1 yilga shartnoma imzolashadi, bu muddatni uzaytirish ham, to'xtatish ham mumkin. O'qituvchilarga juda yaxshi maosh to'lanadi: fan o'qituvchisi - 5000 evrogacha, yordamchi - 2500 evrogacha.

2. Bepul

O'qishning o'zidan tashqari quyidagilar bepul:

- tushlik;
- ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;
- bolani uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2 kilometrda uzoqda bo'lsa;
- o'quv darsliklari, barcha o'quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig'ish taqiqlanadi.

3. Individuallik

Har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik ta'lim oluvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg'ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta'lim materialiga ham tegishli.

Bir sinfning o'zida darsda bolalar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a'lo bahoga

bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqq olmasa, hechqisi yo‘q, yana oddiy mashq beriladi.

Finlyandiya maktablarida oddiy ta‘lim bilan bir qatorda ta‘lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

“Bo‘shroq” ta‘lim oluvchilar ta‘limini qo‘llab-quvvatlovchi — bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlyandiyada repetitorlik keng tarqalgan ta‘lim usuli hisoblanmaydi, maktab ta‘lim oluvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli ta‘lim oluvchilarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatishadi.

Korreksion ta‘lim — materialni o‘zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog‘liq. Masalan, bu ta‘lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba‘zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korreksion ta‘lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o‘tkaziladi.

4. Amaliyot

“YO hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz”, - deydi finlar. SHuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo‘q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o‘qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta‘lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o‘tkaziladi. SHunisi diqqatga sazovorki, o‘qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg‘urishmaydi, test natijalari uchun bironing oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko‘rishmaydi: boriga baraka.

Finlyandiya maktablarida hayotda kerak bo‘ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo‘lmaydi, uni o‘rganishmaydi ham. U erdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrifsaytini yarata olishadi va h.k.

5. Ishonch

Birinchiidan, maktab xodimlari va o‘qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo‘q, ta‘lim oluvchilarga ta‘lim berishga doir turli uslublarni o‘rgatuvchilar ham yo‘q.

Mamlakatda ta'lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o'zi to'g'ri deb bilgan uslubni qo'llaydi.

Ikkinchidan, bolalarga bo'lgan ishonch: darslarda ta'lim oluvchi o'zini qiziqtirgan ish bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o'quv filmi namoyish etilayotgan bo'lsa-yu ta'lim oluvchiga buning qizig'i bo'lmasa, u kitob o'qib o'tirishi mumkin. Ta'lim oluvchi o'zi uchun nima foydali ekanini o'zi tanlaydi.

6. Istak-xohish

O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar ta'lim oluvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

Bunga ham o'rta maktabda chora ko'riladi - muayyan o'smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari etarlimi, professional kasb-hunar maktabiga borish kerakdir, ehtimol. Ta'kidlash joizki, bu ikki yo'l ham mamlakatda birdek qadrlanadi.

Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash "kelajak o'qituvchisi" tomonidan test va suhbatlar yo'li orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, Finlyandiya maktabida ta'lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o'tkazib yuborilgan darslarda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. Masalan, o'qituvchi 6-sinf ta'lim oluvchisi uchun o'z jadvalidan "bo'sh soat"ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o'tiradi. Dars qiladimi, zerikib o'tiradimi, o'ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o'tmaydi, yana boshqa soatda qayta o'tirishga to'g'ri keladi.

O'qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o'tmaydi.

Finlyandiyada bir sinfda ikkinchi yilga qolish uyat hisoblanmaydi, ayniqsa 9-sinfdan keyin. Katta hayotga jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim, shuning uchun fin maktablarida qo'shimcha (majburiy emas) 10-sinf bor.

7. Mustaqillik

Finlyandiyada maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak deya hisoblanadi. SHu bois u erda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi mavzularni so'zlab o'tirmaydi - barchasi kitobda bor. YOd olingan formulalar emas, ma'lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatordan foydalanish - joriy muammolar echimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim.

SHuningdek, maktabdagi pedagoglar ta'lim oluvchilar o'rtasidagi mojarolarga ham aralashishmaydi, ularga hayotiy vaziyatlarga mustaqil tayyorlanish va o'zlari uchun javob berish mas'uliyatini rivojlantirish imkoni beriladi.

Finlyandiya maktablari bir xil bo'lsa-da, ulardagi o'quv jarayonlari turlicha tashkil qilingan. **Qachon va qancha vaqt o'qiladi?**

Finlyandiyada o'quv yili avgustda boshlanadi, ya'ni 8 avgustdan 16 avgustgacha, yagona kun yo'q. O'quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta'til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta'til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang'i" ta'tilini ham o'z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko'ra, oilaviy chang'i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta'tili ham bor.

Ta'lim- besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Nima o'rganiladi?

1-2 sinf:

Ona (fin) tili va o'qish, matematika, tabiat, din (e'tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo'la bir necha fan o'tilishi mumkin.

3-6 sinflar:

Ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo'shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o'ynashni o'rgatishadi, bolalar 9 yillik ta'lim davomida barcha musiqiy asboblarida o'ynashni mashq qilib ko'rishadi.

5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va tarix qo'shiladi. 1sinfdan 6-sinfgacha deyarli barcha fanlardan bir o'qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi haftada 1-3 marta istalgan sport o'yini shaklida o'tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o'qitilmaydi, bu ko'proq shunchaki o'qishni eslatadi.

Fan o'qituvchilari faqat 7-sinfdan kira boshlaydi.

7–9 sinflar:

Fin tili va adabiyoti (o'qish, o'lka madaniyati), shved, ingliz tili, matematika, biologiya, geografiya, fizika, kimyo, salomatlik asoslari, din (yoki hayotiy tushunchala musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, tanlov asosidagi fanlar va mehnat (o'g'il va qiz bolalar ajratilmaydi). Barcha birdek sho'rva tayyorlashni va arralashni o'rganadi. 9-sinfda ikki hafta davomida "mehnat hayoti" bilan tanishiladi. Bolalar o'zlari uchun istagan "ishchi o'rni"ni topib, katta ishtiyoq bilan "ishga" borishadi. **Baho kimga kerak?**

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so'zda baho qo'yiladi: o'rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko'rinishdagi baholar yo'q.

Finlyandiyada barcha maktablar "Wilma" davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo'yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak o'qituvchisi", feldsher ham u erda kerakli ma'lumotni qoldiradi.

Fin maktablarida baholar xavotir uyg'otmaydi, ular faqat ta'lim oluvchining o'zi uchun kerak, qo'yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o'zini

tekshirish uchun qo'llaniladi. Baholar o'qituvchi, maktab nufuziga ta'sir ko'rsatmaydi va hech qanday ko'rsatkichlarini buzmaydi.

Maktab hayotiga doir boshqa tafsilotlar

Maktablar hududi o'ralmagan, kiraverishda qo'riqchilar yo'q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin.

Darsda bolalar parta va stolda o'tirishi shart emas, polda (gilamda) o'tirish ham mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta'minlangan.

Forma yo'q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo'q, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo'shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o'rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma'qul ko'rishadi.

Iliq havoda darslar ko'pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o'tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab ta'lim oluvchilari albatta ko'chaga olib chiqiladi.

Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o'rniga pedagoglar muzey, o'rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi.

"Doska oldida" o'qitish usuli qo'llanmaydi, bolalar materialni so'zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O'qituvchi darsga umumiy tus beradi, so'ngra ta'lim oluvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. O'qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o'qituvchi yordamchilari ham bo'ladi) ham xuddi shu ish bilan band bo'ladi.

Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o'chirish mumkin. O'qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto'g'ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi

jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi.

SHunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo'riqishdan uyg'onmaydi, tezroq katta bo'lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo'q, ta'lim oluvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o'zlari va butun oila a'zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar ko'rishadi, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pesalari yaratishadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi.

Reklama 26 GERMANIYA DAVLATI TA'LIM TIZIMI

Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ erlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal erlar (FE) xuqumatining kompetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy raxbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO'YUlarini kengaytirishga mablag' ajratadi.

GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal Er o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, barcha Federal Erlar va Federal xukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Erlarning ta'lim sohasi bo'yicha siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtixonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi xaqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Federal hukumatning xuquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Erlar davlat umumta'lim, kasbiy o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;

- barcha Federal erlarda ta'lim oluvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyga tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;

- deyarli barcha ta'lim oluvchilarga darslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beriladi;

- ma'lum toifadagi ta'lim oluvchilar va talabalarga mavjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% ta'lim oluvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazilib turiladi. Sekin asta differensiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir ta'lim oluvchiga uning qobiliyati va o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu erlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'limning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi-bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim I ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) "yo'nalishli bosqich" deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. Ta'lim oluvchilar ta'lim xaqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'lim "dual tizim" deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyot 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rta ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziya 3 yil o'qib, ta'lim oluvchilar umumiy shahodatnoma "etuklik attestati"- oladilar, bu ularga istagan oliy o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'limning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

Germaniyada oliy ta'lim

Germaniya oliy o'quv yurtlari o'zining ko'p asrlik an'analari va buyuk ma'rifatparvarlari bilan faxrlanadi. Universitet ta'limining reformatori Vilgelm fon Humboldt joriy qilgan "ilm-fan va ta'lim birligi" tamoyili hanuz amalda bo'lib, bu o'z navbatida ilmiy izlanishlar bilan o'qituvchilar ham, talabalar ham shug'ullanishi lozimligini ko'rsatadi. Bugungi kunda mazkur ideal qarash birmuncha o'zgargan bo'lib, talabalar foydali kasb va amaliy ko'nikmalar egallash tarafdoridirlar. SHu bois ham Germaniyada "oliy maxsus maktablar" (**Fachhochschulen**) juda ommalashgan, unda o'qish muddati kam, o'quv dasturi universitetlarga qaraganda amaliyotga yaqinroq.

GFR ta'lim tizimi umumevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Evropa Ittifoqi (EI) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, EI davlatlari ta'lim standartlari unifikatsiya (bir xillashtirish) qilingan, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega. Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. SHiller, Gyote, SHneger, Humboldt, Kant, Gegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386 yil tashkil topgan. 1388 yil tashkil topgan Kyoln universiteti qadimiy

universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasalari qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oliy o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari yo'nalishlarni aks ettiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. SHu maqsadda o'quv rejalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

Germaniyada 300dan ortiq oliy maktablar bo'lib, ular 16ta Federal erlarda joylashgan. SHulardan Geydelberg universiteti eng qadimiy bo'lib, 1385 yil tashkil topgan. Turli mutaxassisliklar bo'yicha 400dan oshiq o'quv dasturlari juda keng tanlash imkonini beradi, bunda istagan mutaxassislikni egallash va fanlararo tadqiqotlar o'tkazish mumkin.

Germaniya OO'YUlarida "akademik erkinlik" hukmron, ya'ni qat'iy o'quv reja yo'q, majburiy ma'ruzalar kam, talabalarning tanlov imkoniyati ko'p. SHu bois ham o'z yurtida qat'iy tartibga o'rgangan chet ellik talabalar o'quv yilining boshida birmuncha qiynaladilar. Bu haqda AQSHning Viskonsin shtatidan kelgan Djon Vulf "Mustaqil ishlashga o'zingni tayyorla. Bu erda professorlarni AQSHdagiga nisbatan kamroq ko'rasan. Ustingdan nazorat ham yo'q. Men bu erda bilimni o'qituvchi uchun emas, o'zim uchun egallash lozimligini o'rgandim"- deydi.

Germaniya Federativ Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonuniga" ko'ra har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash xuquqiga ega. Ta'lim sohasidagi bunday siyosatning maqsadi har bir shaxsning qiziqishi va talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlikni olish imkonini berishida imkon qadar ko'proq yordam berishdan iboratdir.

Germaniyaing har bir fuqarosi butun hayoti davomida umumiy, oliy va kasbiy ta'lim olish imkoniyatiga ega. CHunki Germaniya yuqori rivojlangan sanoat davlatlaridan biri bo'lib, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj katta. Germaniya

xukumati turli sohalarda sifatli mutaxassis kadrlarni tayyorlashga manfaatdor. SHu bois nemis ta'lim tizimining rivojlanishiga katta miqdorda mablag' ajratiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi

Germaniya ta'lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga etmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog'chalar alohida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlari maktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi. **Maktab ta'limi**

Germaniya boshlang'ich sinf ta'lim oluvchisiga ilk o'qish kuni shirinliklar va kerakli maktab qurollaridan iborat "maktab sovg'asi (kulyok)" beriladi.

Germaniyada majburiy maktab ta'limi 6 yildan 19 yilni o'z ichiga oladi, demak maktabda ta'lim umuman olganda 13 yilni tashkil etadi. Bu muddat tugagach,

imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib bo‘lib, ta’lim oluvchi bitiruv guvohnomasini oladi va oliy o‘quv yurtiga kirish xuquqiga ega bo‘ladi.

Germaniyada har bir maktab o‘z Federal Eri hokimiyatiga bo‘ysunadi. SHu bois dasturlar, qoidalar va hatto o‘qitish davomiyligi mamlakatning turli Federal Erida turlicha. Germaniyada maktab ta’lim tizimi ikki bosqichli tizim bo‘lib, boshlang‘ich maktab (Primastufe) va o‘rta ta’lim muassasalari (Sekundastufe)dan iborat. Kunduzgi maktabga 9 yil, ba’zi Federal Erlarda 10 yil o‘qish majburiy. Bu muddat tugagach, kunduzgi maktabning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirishni istamagan 18 yoshgacha bo‘lgan ta’lim oluvchilar kasbiy ta’lim maktablarida o‘qishlari shart.

GFRda Federal Erlar ta’lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari uchun javob beradi. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul. Ta’lim oluvchilarga qisman bepul o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar beriladi. Diniy fanlarni o‘qitish majburiy emas. Ta’lim oluvchi 14 yoshida bu fanni o‘qish yoki o‘qimaslikni o‘zi tanlaydi. Ta’lim spektri Federal Erlarning moliyaviy yordamidan foydalanuvchi turli tashkilotlarning xususiy maktablari bilan to‘ldirib boriladi.

Germaniyada maktab ta’limi quyidagi maktab tiplariga bo‘linadi:

1. Boshlang‘ich maktab (Grundschule)
2. Yo‘nalish maktablari (Orientierungstufe)
3. Asosiy maktab (Hauptschule)
4. Real maktab (Realschule)
5. Gimnaziya
6. Umumiy maktab (Gesamtschule)
7. Maxsus maktab (Sonderschule)

Boshlang‘ich maktab-ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Bu ta’lim bosqichining vazifasi-bolalarga ta’limni davom ettirishga imkon beruvchi bilimlar asosini berishdir. Boshlang‘ich maktabdan so‘ng ta’lim oluvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktablarga o‘tadilar.

Germaniyada o‘rta maktab tiplari: asosiy, real, aralash maktablar va gimnaziyalari.

Nemis ta'lim oluvchilari boshlang'ich maktabni bitirganlaridan so'ng umumta'lim maktabining 2-pog'onasiga boradilar. 5 va 6-sinflar, ularning tashkiliy jihatidan qat'iy nazar, avvalambor, bola kamol topadigan davr bo'lib hisoblanadi, bolalarning keyingi o'qish shakliga yo'naltirish maqsadida kuzatuv olib boriladi. GFRning ba'zi Federal Erlarida mavjud bo'lgan yo'nalishli bosqich ("Orientierungsstufe") otaonalarga, ta'lim oluvchi va o'qituvchilarga II bosqichdagi maktabga o'tishni hal qiluvchi ishonarli asosni berishga mo'ljallangan. Yo'naltiruvchi bosqich mustaqil o'quv muassasasi yoki II bosqichdagi maktabning 1 qismi sifatida tashkil etilgan. Berlinda bu bosqich boshlang'ich maktabning 5-6sinf shaklida olib boriladi. GFRda o'rta maktablar 4ta tipga bo'linadi:

gimnaziyalar, real maktablar, asosiy maktablar, umumlashgan maktablar.

Asosiy maktab

Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha ta'lim oluvchilar uchun majburiydir. Bu maktabda oxirgi majburiy sinf 9-sinf, ba'zi FELarda 10-sinf hisoblanadi. Ko'pchilik FELarda ta'lim oluvchilarga qo'shimcha 10-sinfga erkin qatnash imkoni berilgan.

Asosiy maktabning maqsadi-ta'lim oluvchilarni ikkinchi bosqich I doirasidagi ta'lim va kasbiy ta'limni davom ettirishga tayyorlash va umumta'lim kurslariga qatnashishdir. Asosiy maktablarda ta'lim oluvchilarni ishchi kasbi olami bilan tanishtirish orqali kasb tanlashga yordamlashishga e'tibor qaratiladi. Asosiy maktabdagi o'qituvchilar o'zlari o'qimagan sohalar bilan ham shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Masalan nemis va ingliz tili o'qituvchilari texnikani ham o'zlashtiradilar. Bunday kasbiy aralashuvning pedagogik vazifasi ham bor: sinf rahbari bolalar uchun ishonchli shaxsga aylanishi va o'z tarbiyalanuvchilari bilan imkon boricha ko'p vaqt birga bo'lishidadir.

Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog deb his qiladilar. Lekin asosiy maktabdagi ta'lim oluvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan ko'pchiligi kasbiy ta'lim olishga muvaffaq bo'lishadi. Hozirgi kunda

Ta'lim vazirligi asosiy maktabni isloh qilish zarurati xaqida fikr bildirmoqda. Bunda asosiy maktab o'qituvchilari boshlang'ich maktab o'qituvchilari kabi ixtisoslikka ega bo'lishlari kerak deyiladi.

Real maktablar

Real maktablar ikkinchi bosqich I ga qarashli bo'lib, odatda 5-10 sinflarni o'z ichiga oladi. 7-sinfni bitirib, real maktabga o'tishni hojlagan asosiy maktab ta'lim oluvchilari uchun real maktabning alohida 3 sinf varianti mavjud. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga raxbarlik qilish ko'nikmalariga, yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi.

Ta'lim oluvchilar ularga tavsiya etilgan o'quv yo'nalishlaridan bitta asosiysini tanlab olish imkoniga ega. Bu tabiiy-matematik, texnik, lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-tibbiy, musiqiy-badiiy yo'nalish bo'lishi mumkin. Har bir maktabda tavsiya qilinayotgan fanlar aniq. U maktablararo va FElararo farqlanadi. Real maktabni etarli yuqori darajadagi baholar bilan bitirgan bitiruvchi II bosqichdagi o'quv muassasasiga kirish huquqiga ega.

Barcha ta'lim oluvchilar chet tilini bilishlari shart. Asosiy maktablarda chet tilini tanlash huquqi yo'q, faqat ingliz tili o'rganiladi. Real maktablarda esa bir necha chet tilini tanlash tavsiya etiladi, ta'lim oluvchi bittasini tanlaydi. Real maktablarda o'qish yuqori darajada olib boriladi, fanlarni tizimlashtirishga katta e'tibor beriladi. Haftasiga darslari soni 30dan 34gacha bo'ladi.

Boshlang'ich va asosiy maktab o'qituvchisi ixtisosligini olganlar malaka oshirish kursiga qatnashib, imtihon topshirib real maktablarda dars berish imkoniga ega bo'ladilar.

Gimnaziya

Gimnaziya umumta'lim o'quv muassasalari hisoblanadi. Unda o'qish 5-13-sinfgacha 9 yil davom etadi. 11-13gacha o'qiydiganlar gimnaziyaning yuqori bosqichi deb ataladi. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan gimnaziya bitiruvchisi oliy o'quv yurtiga kirish huquqini beruvchi etuklik attestati oladi.

Umumiy etuklik attestati beruvchi, hohlagan yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtiga kirish xuquqini beruvchi gimnaziyalar va “fan gimnaziya”lari mavjud. Bunday tipdagi maktablar ta‘limning ikkinchi bosqichi IIga tegishlidir. Bu gimnaziyalarda aniq kasblar sohasiga zarur bo‘lgan bilimlarni berishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Fan gimnaziylariga real maktabni bitirganlik haqidagi attestat bo‘lsagina qabul qilinadi. Bu gimnaziyalarda ta‘lim davomiyligi 3 yil. Bitiruvchilar fan etuklik attestatini oladilar, bu esa ma‘lum doiradagi fanlarni o‘rganish uchun oliy o‘quv yurtiga kirish xuquqini beradi.

Gimnaziyada o‘qitishdan maqsad: umumta‘lim bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish va shular asosida ta‘lim oluvchilarni zamonaviy ma‘lumotlarni olish va qayta ishlashning ilmiy metodlari bilan tanishtirish, oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli o‘qish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. 5-10sinflar 11-sinfda boshlangan individuallashtirilgan ta‘lim dasturi uchun poydevor yaratish vazifasini bajarishga mo‘ljallangan. Gimnaziyaning o‘ziga xos xususiyati fanlarning differensial tuzilgani bo‘lib, ta‘lim oluvchiga tanlash imkoni beriladi. Masalan, chet tillar soni va ularni navbatmanavbat o‘rganish, 9-sinfda ta‘lim oluvchiga aniq yo‘nalishdagi fanlarni (tabiiy-matematik, ilmiy-iqtisodiy, musiqiy-badiiy) tanlash imkoni beriladi. SHunga ko‘ra gimnaziylar maxsus xarakterga ega bo‘ladi va an‘anaviy klassik, tabiiy-matematik va zamonaviy tillar turlariga bo‘linadi. Undan tashqari iqtisodiy, pedagogik, qishloq xo‘jaligi, texnik-texnologik, ijtimoiy-ilmiy, musiqiy gimnaziylar va kommunal xo‘jalik gimnaziylar bor.

Klassik gimnaziyalarda albatta lotin, yunon va birorta zamonaviy til o‘rganilishi shart. Tabiiy-matematik gimnaziyalarda matematika, fizika, ximiya chuqur o‘rganiladi. Gimnaziyaning yuqori sinflarida asosiy, ya‘ni xamma uchun majburiy kurslar, hamda individual tanlangan o‘ta qiyin (yuqori) kurslar kiritilgan.

Birlashgan (umumiy) maktab

Birlashgan maktab 5-10 (7-10) sinflarni o‘z ichiga oladi. U ikkinchi bosqich Iga qarashli. Birlashgan umumiy maktabning maqsadi: barcha ikkinchi bosqich I maktablari fanlari, kurslarini bitiruv attestati talablari bilan birlashtirishdir. U

o'quv muassasalari va ikkinchi bosqich II kasbiy ta'lim kurslariga o'tuvchi bitiruvchilarni tayyorlaydi. Undan tashqari, aksariyat umumiy maktablarda o'qitish kurslari mavjud, uni muvaffaqiyatli yakunlagan ta'lim oluvchi oliy o'quv yurtiga kirish xuquqini oladi.

Umumiy maktabning ikkita tipi bor: kooperativ, integratsiyalashgan maktab.

Kooperativ umumiy maktabda asosiy maktab, real maktab va gimnaziya birligida ishlaydi. Tashkiliy, metodik va didaktik jihatdan ular bir biriga qaram bo'lmagan bo'limlar sifatida faoliyat yuritadi. Bu bo'limlar o'zaro xamkorligining turi va darajasi yosh davrlar guruhlariga bog'liq. Kooperativ umumiy maktab barcha bo'limlar uchun umumiy pedagogik rahbariyatga ega.

Integratsiyalashgan umumiy maktab 10-sinfgacha alohida maktab tipini ajratmaydi. Sinflarni tashkil qilishning yagona mezonini yosh bilan bog'liq. Alohida fanlarni o'qitish kurs tizimi bo'yicha olib boriladi.

Umumiy maktabda mutaxassislar tomonidan "fanlardan yutuqlari bo'yicha differensiyalash" deb nomlangan guruhlariga bo'lish joriy qilingan.

Differensiyalashdan kutilgan maqsad: har bir ta'lim oluvchiga uning qobiliyatlariga ko'ra talablar qo'yish, har biriga individual yondashish. O'zlashtirish o'zgarishi natijasida bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish mumkin.

Germaniyada kasbiy va oliy ta'lim tizimi

Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish 3 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yil asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. Ta'lim oluvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tishida sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari

korxonalarining etakchi mutaxassislari, Federal Erldagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz, maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan amalga oshiriladi.

Xalqaro ta'lim dasturlari va diplomlar(InternationalDegreeProgrammes).

Germaniyada chet ellik talabalar juda ham ko'p. Xorijlik talabalar manfaatini ko'zlab,Nemis OO'YUlarida xalqaro o'quv dasturlari kiritilgan.Unga ko'ra Germaniyada bakalavr va master darajalarini olish mumkin.

Talabalar (Undergraduates) uchun o'quv dasturlari 6-8 semestr davom etadi, shundan 1-2semestr davomida chet eldagi partner oliy o'quv yurtlarida tahsil olish imkoni yaratilgan. O'qish oxirida bakalavr (Bachelor) darajasini oladi. Biror-bir diplom yoki ilmiy darajasi bor bo'lgan bakalavrlar (Postgraduates) 3-5 semestr tahsil olishadi va master (Master) darajasiga ega bo'ladi. Ayrim o'quv dasturlari doirasida 6-

Semestrda so'ng dissertatsiya himoya qilib "doktor" bo'lishi mumkin.

Bunday xalqaro dasturlarning akademik darajasi juda yuqori.

Bunda talabalarni tyutorlar va kuratorlar o'z maslahatlari bilan doimo kuzatib turishadi. Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega.

Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarning bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi.

Germaniya oliy ta'lim tizimi oliy o'quv yurtlari turlarining ko'pligi bilan farqlanadi. G'arbiy Evropa Federal erlarida muddatidan uzoq o'qiyotgan talabalar o'qish uchun pul to'laydilar. Ta'lim tizimidagi bu islohotlar qonun bo'yicha yo'lga qo'yilgan.

Germaniyada aksariyat universitetlar jamoatchilik asosida federal hukumat tomonidan, ba'zilar Protestant va Katolik cherkovlar tomonidan moliyalashtiriladi. Bunga qo'shimcha ravishda yana 120 privat universitet va

kollejlarda mavjud bo'lib, ular rasmiy tan olingan darajalarni beradi. Bularning ko'pchiligi amaliy fanlar universitetlaridir.

Talabalarning ko'pchiligi jamoat universitetlarida ro'yxatdan o'tgan. 5 foiz talabalargina xususiy kollej va universitetlarda tahsil oladi. Bu erda ta'lim to'lovlari baland bo'lsa-da, ta'lim sifati juda yaxshi.

Germaniyada universitet ta'limi markazlashmagan. 16 Federal Erning har birida oliy ta'lim va boshqaruv tizimi bo'yicha o'z qonunlari bor.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ma'lumot bering.
2. PISA va TIMSS nima?
3. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini tushuntiring.
4. Yaponiyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, o'rta va katta maktab ta'lim tizimi, Davlat universitetlariga kirish qoidalari haqida ma'lumot bering.
5. Germaniya Federal Erklarida ta'lim tizimining umumiy va farqli jihatlarini ko'rsating.
6. Germaniyada ta'lim tizimi bosqichlari haqida so'zlab bering.
7. Germaniyada maktab tiplarining farqini tushuntiring.
8. Germaniyada birlashgan (umumiy) maktab turlari: kooperativ va integratsiyalashgan maktablar haqida ma'lumot bering.
9. Janubiy Koreyadagi maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va yuqori ta'lim haqida gapirib bering.
10. Janubiy Koreyada kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim haqida so'zlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ivanova A. O'zbekiston -Germaniya ta'lim sohasidagi xamkorlik. Xalq so'zi.2002 yil 13 mart.
2. Mamajonov I.G'. Germaniya davlati ta'lim tizimi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabrdekabr, 2017
3. Miralieva D. Jahon ta'lim tizimi. O'quv uslubiy majmua. T.: Iqtisodiyot., 2016

4. Mutalipova M., Imomov M. “Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar”
moduli bo‘yicha o‘quv–uslubiy majmua. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2017

5. Fayzullaeva N. Jahon ta’lim tizimi/O‘quv qo‘llanma.T.: TDIU,
“Iqtisodiyot”, 2016

5-MAVZU:(2SOAT MA'RUZA, 2SOAT AMALIY MASHG'ULOT) KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI

Reja:

1.Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda Ken Robinson, Gardner, Emebayl, P.Torrens qarashlarilaridan foydalanish

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” va “kreativ fikrlash” tushunchasi qo‘llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta‘minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta‘lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.


SHaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi. Kasbiy etuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g‘oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo‘lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq.

Ma‘lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarга эътиборсиз бўлмаслик;
2) муаммоларни аниқлаш учун ҳаракат қилиш, илгари сурилган тахминлар асосида уларнинг ечимини топишга интилиш

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir (6-rasm):



6-расм. Э.П.Торренсинг шахса креатив сифатларини намоён бўлишини аниқловчи тестларнинг турлари

Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi (Sternberg & Williams, 1996). Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti talabalarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi (Boykin & Noguera, 2011, 2012; Marks, 2000, as cited in Jensen, 2013)¹.

¹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 6-7.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. "To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi. O'qituvchilar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash (ya'ni keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni talabalar ongiga singdirishlari va o'z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim (Higgins, Hall, Baumfield, & Moseley, 2005)"². Qolaversa, "kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000)"³.

Ta'lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. M: xorijiy mamlakatlarda Begetto, Kaufman, Kirshner (2010), Sveller, Klark (2006) kabi tadqiqotchi-pedagoglar buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: "Ko'p hollarda, o'qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq fikrlash jarayoniga katta ahamiyat va e'tibor va talablar qanday rivojlanishlari mumkinligi haqida hech qanday ma'lumot bermaydilar. O'qituvchining palapartish yo'riqlar berish yondashuvining samaradorligi talabalar o'quv faoliyatini oshirishga yo'naltirilgan metod va strategiyalardan sezilarni darajada past (Beghetto, Kaufman, 2010; Kirschner, Sweller, Clark, 2006). Vaholanki, talablarda fikrlash ko'nikmasi bo'yicha yo'riqlarni aniq va tushunarli etkazib berish uchun o'qituvchi (tanqidiy, kreativ) fikrlash usullari, ko'nikmalarni samarali shakllantitirish yo'llari bilan talabalarni tanishtirish, orqali talabalar o'quv faoliyatini nazorat qilish va uni yo'naltirishi lozim"⁴. Mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarning misollar yordamida yoritilganligi o'qituvchi va talabalarning kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish to'g'risidagi fikrlarini oyinlashtirishga yordam beradi. "M: talabalar "Immigratsiya hodisasining mohiyati"ni "Aqliy hujum" strategiyasi asosida o'rganish jarayonda,

² Ўша асар. – 7-бет.

³ Ўша асар. – 7-бет.

⁴ Ўша асар. – 7-бет.

eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim”⁵.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur‘ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

So‘nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta‘lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Buni **Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.)** va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko‘rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o‘qituvchilar kreativlik asoslarini o‘rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta‘lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan‘anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta‘lim departamenti, 2013 y.).

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs (o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar.

Ta‘lim tizimini boshqarish organlari har yili ta‘lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e‘tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda

⁵ Ўша асап. – 7-бет.

yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lar. O'quv mashg'ulotlarida etishmayotgan omil – **kreativlik** sanaladi⁶.

SHaxsda kreatiqlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

⁶ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; SHternberg, 1985 y.). SHarqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini etarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”⁷.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. *Har tomonlama fikrlash* talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni

⁷ Ўша асап, х-бет.

talab etadi. Bundan farqli ravishda *bir tomonlama fikrlash* esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. YA’ni, topshiriqni bajarish, masalani echishda talaba echimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri echimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

YUqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin:

Креативлик (лот., инг. “create” – яратиш, “creative” – яратувчи, ижодкор) – индивиднинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёрликни тавсифловчи ва мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилияти

SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanotlantirishi lozim⁸.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin⁹. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy

⁸ Ўша асар, 4-5-бетлар.

⁹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

(kreativ) yondashuvda aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Креативлик – шахнинг анъанавий фикрлашдан фарqli равишда таълим ва тарбия жараёнини самарадорлиги таъминлашга хизмат қилувчи янги ғояларни яратиш, шунингдек, мавжуд педагогик муаммоларни ижобий ҳал қилишга бўлган тайёргарлигини тавсифловчи қобилияти

“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e‘tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi. Buning sababli ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o‘qituvchilar uchun qo‘l keladi hamda talabalarda o‘quv fanlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi¹⁰.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘lai. Ular quyidagilardir:



¹⁰ Ўша асар, 6-бет.

6-MAVZU: (2SOAT MA'RUZA, 2SOAT AMALIY MASHG'ULOT) OTM TALABALARIDA IJODIY YONDOSHISH ORQALI KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Reja:

1. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari.
2. Talabalarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar.
3. Talabalarda kreativligini ifodalovchi belgilar.

Tayanch tushunchalar: sifat, kreativlik sifatleri, malaka, ijodiy faoliyatni malakalari, kreativ sifatlarni rivojlantirish yo'llari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar.

Pedagoglarga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) улар томонидан кўп саволлар берилишини рағбатлантириш ва бу одатни кўллаб-қувватлаш;
- 2) болаларнинг мустақиллигини рағбатлантириш ва уларда жавобгарликни кучайтириш;
- 3) болалар томонидан мустақил фаолиятни ташкил этилиши учун имконият яратиш;
- 4) болаларнинг кизиқишларига эътибор қаратиш


Tadqiqotchi N.Fayzullaeva pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun talabalar pedagogika oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g'oyalari,

konsepsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash¹¹.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarга эътиборсиз бўлмаслик;
2) муаммоларни аниқлаш учун ҳаракат қилиш, илгари сурилган тахминлар асосида уларнинг ечимини топишга интилиш

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir (6-rasm):



Э.П.Торренсинг шахса креатив сифатларини намоён бўлишини аниқловчи тестларнинг турлари

Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin sinfda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi (Sternberg & Williams, 1996). Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti talabalarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining

¹¹ Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Uzluksiz ta'lim ж. – Т.: 2006. 6-сон. – 102-бет

rivojlanishiga olib keladi (Boykin & Noguera, 2011, 2012; Marks, 2000, as cited in Jensen, 2013)¹².

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib toptirilganligiga bog'liq. "To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi. O'qituvchilar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash (ya'ni keng ko'lamda o'ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni talabalar ongiga singdirishlari va o'z vazifalarini sidqidildan bajarishlari lozim (Higgins, Hall, Baumfield, & Moseley, 2005)"¹³. Qolaversa, "kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi (Anderson et al., 2000)"¹⁴.

Ta'lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. M: xorijiy mamlakatlarda Begetto, Kaufman, Kirshner (2010), Sveller, Klark (2006) kabi tadqiqotchi-pedagoglar buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: "Ko'p hollarda, o'qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq fikrlash jarayoniga katta ahamiyat va e'tibor va talablar qanday rivojlanishlari mumkinligi haqida hech qanday ma'lumot bermaydilar. O'qituvchining palapartish yo'riqlar berish yondashuvining samaradorligi talabalar o'quv faoliyatini oshirishga yo'naltirilgan metod va strategiyalardan sezilarni darajada past (Beghetto, Kaufman, 2010; Kirschner, Sweller, Clark, 2006). Vaholanki, talablarda fikrlash ko'nikmasi bo'yicha yo'riqlarni aniq va tushunarli etkazib berish uchun o'qituvchi (tanqidiy, kreativ) fikrlash usullari, ko'nikmalarni samarali shakllantirish yo'llari bilan talabalarni tanishtirish, orqali talabalar o'quv faoliyatini nazorat qilish va uni yo'naltirishi


¹² Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 6-7.

¹³ Ўша асар. – 7-бет.

¹⁴ Ўша асар. – 7-бет.

lozim”¹⁵. Mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarning misollar yordamida yoritilganligi o‘qituvchi va talabalarning kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish to‘g‘risidagi fikrlarini oyinlashtirishga yordam beradi. “M: talabalar “Immigratsiya hodisasining mohiyati”ni “Aqliy hujum” strategiyasi asosida o‘rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim”¹⁶.


SHaxs kreativligini rivojlantirish jarayonida “tabaqalashtirish”, “davrlashtirish” tushunchalarining muhim ahamiyat kasb etishi e‘tiborni tortadi. Xo‘sh, bu ikki tushuncha qanday mazmuni ifodalaydi?



SHunga ko‘ra ma’lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Kreativ tafakkurga ega talabalar: boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi; o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi; ba’zan mavzu aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi; echimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi; g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi; muammoning echimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

SHaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi (5-rasm):



¹⁵ Ўша
¹⁶ Ўша

**Педагогларда креатив фаолиятни ташкил этишга
имкон берадиган малакалар гуруҳлари:**

- 1) билишга оид (гностик) малакалар;
- 2) лойиҳалаш малакалари;
- 3) ижодий-амалий (конструктив) малакалар;
- 4) тадқиқотчилик малакалари;
- 5) мулоқотга кирувчанлик (коммуникатив) малакалари;
- 6) ташкилотчилик малакалари;
- 7) изчилликни таъминловчи (процессуал) малакалар;
- 8) техник-технологик малакалар

Лойиҳалаш малакалари:

- дарс ёки тарбиявий тадбирларнинг лойиҳаларини яратиш;
- дарс ёки тарбиявий тадбирнинг технологик харитасини яратиш;
- дарс ёки тарбиявий тадбир моҳиятини босқичма-босқич ёритиш;
- таълимий ёки тарбиявий фаолият мақсадини аниқ белгилаш;
 - мақсадга мос келадиган вазифаларни аниқлаш;
 - ўқув материалининг дидактик, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларини баён этиш;
- ўқув ёки тарбиявий характердаги материал мазмунини шакллантириш;
- ўқув ёки тарбиявий материал мазмунини очиқ берадиган бир қанча маълумотлар ўртасидаги ўзаро изчилликни таъминлаш;
 - талабаларни мустақил фикрлашга рағбатлантирувчи саволлар тизимини ишлаб чиқиш;
- дарс ёки тарбиявий тадбирнинг методик тузилишини асослаш;
 - дарс ёки тарбиявий тадбир жараёнида бажариладиган педагогик топшириқлар тизимини аниқлаш;
- янги материални баён этишда турли замонавий ёндашувларни қўллаш;
 - муайян изчилликка эга тест топшириқларини ишлаб чиқиш;
- талабаларнинг билим даражасини ташхислаш жараёнини асослаш;
- талабалар жамоаси ҳамда алоҳида талабанинг тарбияланганлик ва ривожланганлик даражасини баҳолаш механизминини яратиш

Билишга оид (гностик) малакалар:

- талабаларнинг ёш ва индивидуал хусусиятлари, жамоанинг ижтимоий-психологик ўзига хослигини инобатга олган ҳолда ўқув-тарбиявий вазифаларни аниқ белгилаш;
- замонавий таълим талабларидан келиб чиққан ҳолда ўқув-тарбия жараёнини дидактик, психологик ва методик жиҳатдан режалаштириш ва таҳлил қилиш;
- таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этишнинг самарали шакл, метод ва воситаларни асосли равишда танлай олиш;
- талабалар томонидан ўқув дастури талабларидан келиб чиққан ҳолда материалларни ўзлаштирганлик натижаларини, ўқувчиларнинг тарбияланганлик ва ривожланганлик даражасини аниқлай билиш;
- талабаларнинг билишга бўлган қизиқиш, эҳтиёж ва фаолликларини ривожлантириш бўйича турли кўринишдаги ишларни олиб бориш;
- дарсда, дарсдан ташқари шароитларда, куни узайтирилган гуруҳларда, тўғарак, клуб ёки жамиятларда турли тарбиявий ишларни олиб бориш;
- талабалар, уларнинг ота-оналари билан индивидуал ишларни амалга ошириш;
фойдаланиш;

Ижодий-амалий (конструктив) малакалар:

- алоҳида-алоҳида маълумотлардан фойдаланган ҳолда яхлит ўқув ва тарбиявий характердаги материални шакллантириш;
 - ўқув материални турли расм, сурат, жадвал, диаграмма, модел ва бошқалар билан бойитиш;
 - ўзига хос, оригинал ўқув материални тайёрлаш;
 - мустақил равишда янги методни асослаш;
 - ўқув машғулоти (дарс) ва тарбия тадбир учун кўрсатмали қуроллар тўпламини яратиш;
 - дарс ёки тарбиявий тадбирнинг технологик паспорти, харитасини яратиш;
 - дарс ёки тарбиявий тадбирда фойдаланиш учун мультимедия материалларини яратиш;
 - ўқув материалнинг тақдимот вариантини тайёрлаш;
 - турли мавзулардаги тарбиявий тадбирлар учун талабаларнинг фаол иштирокида видео роликлар яратиш;
 - дарс конспектини тайёрлаш;
 - турли шакл ва методларга асосланган синов топшириқлари (савол, топшириқ, масала, мисол, машқ, тест), баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш;
 - назорат ишларини ташкил этишга ижодий ёндашиш

Тадқиқотчилик малакалари:

- илмий изланиш олиб бориш метод ва воситаларини танлаш;
- манбалар билан ишлаш (назарий таҳлил, муҳим маълумотни топиш, тезис, конспект, реферат, картотека билан ишлаш, адабиётлар рўйхатини тузиш);
 - нашр манбалари ва ахборот технологиялари (Интернет) материаллари билан танишиш;
 - анкета сўровини ташкил этиш;
- замонавий педагогик муаммоларни аниқлаш, долзарблигини асослаш;
 - мавжуд манбалар асосида муаммонинг ишланганлик даражасини ўрганиш;
- педагогик тажриба олиб бориш методикасини ишлаб чиқиш;
 - уч (ёки тўрт) босқичли педагогик тажрибани илмий-методик ташкил этиш;
 - илмий мақола, ахборот ва ҳисобот тайёрлаш;
 - илмий мақолаларни нашрга тайёрлаш;
- педагогик тажриба натижаларини умумлаштириш ва таҳлил қилиш;
 - таҳлил натижаларини математик-статистик таҳлил қилиш;
 - статистик таҳлил натижаларига кўра хулоса чиқариш ва илмий-тавсияларни илгари суриш;
 - педагогик тажриба натижаларини муҳокама қилиш (саволлар қўйиш, шахсий фикрни билдириш, танқидий фикрларни айта олиш, амалий таклифлар бериш)

Мулоқотга кирувчанлик (коммуникатив) малакалари:

- талабалар, ота-оналар, таълим муассасаси раҳбарияти, ҳамкасблар билан мулоқотда турли шакл, методлардан фойдаланиш;
 - педагогик амалиётнинг барча иштирокчилари билан амалий, ишчанлик ёки шахсий муносабат ўрнатиш;
 - талабаларга маълумотларни етказишнинг самарали йўл ва воситаларини топиш;
 - топшириқлар юзасидан талабанинг жавоби ёки шахсий фикрларини тинглай билиш;
 - педагогик жараёнларда юзага келадиган низоларнинг олдини олиш, бартараф этиш ёки ривожлантириш;
 - жамоа ва турли босқичдаги талабалар ўртасида ўзаро муносабатларни мустаҳкамлаш;
- жамоада соғлом рақобатга асосланган муҳитни қарор топтириш;
 - талабаларнинг фаолиятларини рағбатлантириш;
- талаба жавобидаги хато ёки хатти-ҳаракатидаги камчиликларга муносабат билдириш;
 - талабалар билан таълимий ҳамкорликка эришиш

Ташкилотчилик малакалари:

- талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини бошқариш;
 - талабаларда илмий билимларни ўзлаштириш кўникма, малакаларини шакллантириш;
- дарс жараёнида вақтни тўғри тақсимлаш ва режани самарали бажариш;
 - талабалар билан индивидуал ишларни ташкил этиш;
- гуруҳ жамоаси билан жамоавий ёки гуруҳли ишларни олиб бориш;
 - талабаларда таълим муассасаси ички тартиб-қоидаларига риоя этиш кўникмаларини шакллантириш;
 - талабаларга ўқув ва ижтимоий топшириқларни бериш;
 - ўқувчиларнинг диққатини бошқариш;
- талабалар ўртасида баҳс-мунозара ташкил этиш ва уни бошқариш;
 - дарсларда ўйин технологияларидан фойдаланиш;
 - талабаларнинг ўқув фаолликларини ошириш, уларнинг мустақиллигини таъминлаш;
 - кичик гуруҳларни шакллантириш асосида топшириқлар бажарилишини таъминлаш;
 - талабалар билан ҳамкорликда тарбиявий ишлар рўйхатини ишлаб чиқиш


Изчилликни таъминловчи (процессуал) малакалар:

- ўқув материали мазмунини баён қилишда нутқий изчилликни таъминлаш;
- оғзаки ва ёзма нутқни баён қилишда ўзаро изчилликни қарор топтириш;
- талабаларнинг мавжуд билимлари билан янги ўзлаштириладиган билимлар ўртасида муайян изчилликни юзага келтириш;
- талабаларнинг мавжуд ҳаётий қарашларини янги ғоялар билан бойитиш;
- дарсда ва дарсдан ташқари тарбиявий ишлаарда талабаларни фаол фаолиятга ундовчи методлардан фойдаланишда муайян изчилликка эришиш;
- талабалар БKM даражасининг ДТС талабларига мувофиқ келишида маълум изчилликка эришиш;
- гуруҳ жамоасининг ижтимоий-психологик ҳолатини ўрганиш методларидан фойдаланишда педагогик фаолият изчиллигини таъминлаш;
- талабаларнинг тарбияланганлик ва ривожланганлик даражасини баҳолашда доимий изчилликка эришиш

Техник-технологик малакалар:

- таълим жараёнига замонавий техник воситаларини татбиқ этиш;
- дарс жараёни мазмунини технологик паспорт ва технология харита ёрдамида ёритиш;
- ўқув материали мазмунини ёритувчи слайдларни тайёрлаш;
- ўқув машғулотларини ахборот технологиялари, интерфаол методлар ёрдамида ташкил этиш;
- ихтисослик фани хусусиятидан келиб чиққан ҳолда турли техник воситалардан фойдаланиш;
- дарсларда проекторни қўллаш олиш;
- ўқув материалларини аудио ва видео ёзувлари, тақдимот асосида баён қилиш;
- талабаларда ўқув материални мустаҳкамлаш ва ўқув топшириқларини беришда ахборот технологияларини қўллаш;
- компьютер имкониятларидан фойдаланишга доир ўқув топшириқларини ишлаб чиқиш;
- талабаларнинг БKMни баҳолашни компьютер асосида ташкил этиш;
- талабаларнинг билим олганлик ва тарбияланганлик даражаларини ташхис қилишда компьютер ёрдамига таяниш ва б.ш.

SHaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Aytib o‘tilganidek, barcha shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglarga ham kreativlik sifatleri o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. SHunga ko‘ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari yoritiladi. Patti Drepeau¹⁷ tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan



Креатив сифатларни ривожлантириш йўллари

Quyida mazkur yo‘llarning mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

1-yo‘l: kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg‘u kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e‘tibor markazida bo‘lib, talabalar fe‘llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida talabalarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe‘llarning bo‘lishiga e‘tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, talabalardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta‘riflab bering” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting” deyish bilan teng.

Nazorat savollarini berishda talabalarni fikrlashga undovchi so‘z (fe‘l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatlarini shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra pedagoglar turli, antiqa,

¹⁷ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 9.

noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foyalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: "*bog'liqlikni toping*", "*yarating*", "*bashorat qiling*", "*fikrni mantiqan bayon eting*", "*tasavvur qiling*" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Agarda pedagog talabalardan "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab berish"ni talab qilish o'rniga, "yurak va qon aylanish tizimi o'rtasidagi bog'liqlikning barcha turlarini keltirish"ni so'rashi lozim. Natijada talabalar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagoglar birinchi yo'lni qo'llash – talabalarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda yosh o'qituvchilarning "Kreativlik xaritasi"dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2-yo'l: amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o'rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, talabalarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Patti Drapeau o'z asarida bir qator talabalarda interfaollik va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan yo'l va metodlarni keltirib o'tadi. Xususan:

- Veb-saytlar bilan ishlash;
- vizuallashtirish;
- barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish;
- muhim g'oyalarni turli vaziyatlarda va o'rinli qo'llash (g'oyani boshqa sharoitga ko'chirish – transformatsiya);
- ramziylashtirish kabi yo'llar;
- "Aqliy hujum";
- "Keys-stadi" kabi metodlar¹⁸.

¹⁸ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 8-10.

3-yo‘l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo‘l talabalarni muammoni echish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. M: “YUrak va qon aylanishi tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish” (Isaksen & Treffinger, 1985). Topshiriqni bajarar ekan, talabalar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.

4-yo‘l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo‘lni tutishda pedagog talabalarga “Odamning qon aylanish tizimi” mavzusida Power Point dasturi yoki multimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi.

Talabalar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar (3-mavzu) muhim ahamiyat kasb etadi¹⁹.

SHaxsan Siz nima deb o‘ylaysiz: oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yo‘llardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu o‘rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: “Bir manzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko‘p yo‘nalishlarni bosib o‘tamiz. Bu fikr quyida bildiriladigan ko‘rsatmalarga ham taalluqlidir. O‘qituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yo‘llardan foydalanishi mumkin. O‘qituvchi kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi fe‘lllarni qo‘llash (1-yo‘l)ga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish (3-yo‘l) ustida ish olib

¹⁹ Ўша асар. – 10-бет.

borayotgan talabalarni kreativ fikrlash strategiyalari (2-yo‘l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4-yo‘l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Kreativ fikrlash jarayonini mohiyatini yorituvchi xarita o‘qituvchilarga dars jarayonida namoyon bo‘ladigan kreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi”²⁰.

Ko‘p holatlarda o‘qituvchilar hamda talabalarining o‘zlari ham shunday savolga duch kelishadi: kreativ fikrlash jarayonining odat sifatida namoyon bo‘lishiga erishish mumkinmi? Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday fikrlarni ilgari suradi: “Miya tadqiqotlari kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish usullari va uni qanday qilib odatga aylantirish mumkinligini tushunish imkonini beradi. Kreativlik miyaning old (g‘oyalar yuzaga keladigan) va chekka (tahlil qilish) sohalarining o‘zaro muvofiqlikda ishlashi va dopamin (kishining o‘zini yaxshi his etishiga yordam beruvchi) moddasining ishlab chiqarilishi natijasida ro‘y beradi. Ta‘lim olish miyada kichik burmalarining paydo bo‘lishiga olib keladi hamda miyaning faol ishlashi natijasida bu jarayon kuchayadi. Inson miyasi obraz, bashorat, xis tuyg‘u, emotsiya va ma‘no boy ma‘lumotlar olishni ma‘qul ko‘radi. “Agarda ma‘lumot hech qanday hissiyot va fikriy jarayonlardan holi bo‘lsa, u miyada saqlanmaydi” (Willis, 2006, p. 44). Biroq, kreativ fikrlash miyada uning “ta‘lim olish va o‘rganish metodlariga zid bo‘lgan” yangi usullarni qo‘llash va noan‘anaviy, original g‘oyalarning ishlab chiqilishini taqozo etadi (DiSalvo, 2011, 1-bob). Kreativ fikrlash ko‘nikmasini mashq qildirish natijasida talabalar faqatgina o‘rnatilgan aloqalarga tayanibgina qolmay, balki miyada yangi, ma‘noga boy aloqalarni o‘rnatish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo‘ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo‘ladi. Inson miyasi doimo to‘g‘ri ishlashga odatlangan, ya‘ni, miya uchun faqat birgina to‘g‘ri javob mavjud bo‘ladi. Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik – talabalarining o‘z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to‘g‘ri bo‘lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. SHu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun talabalar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

²⁰ Ўша асар. – 12-бет.

Talabalar kreativlik rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o‘qituvchi va talabalar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqish, haddan tashqari baxolarga e‘tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo‘rqish xissi mavjud talabalarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, talabalarning o‘qishdagi muvaffaqiyat va o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo‘llash orqali va sog‘lom muhitdagina erishish mumkin”²¹.

Xorijliy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o‘qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi.

“Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo‘lish uchun kishi ko‘proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo‘lishi lozim. Har qanday ko‘nikmani shakllantirish mumkin bo‘lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko‘nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo‘lib, kreativlik ustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, talabalarni ruhlantirish va kreativ bo‘lishga undash o‘qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog‘liq. Kreativlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari talabalarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda qo‘llanma sifatida xizmat qiladi (2.1-jadval). Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, o‘qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o‘z ichiga oladi”²².

Talabalarda kreativlikni shakllantirish²³

Talabalarda kreativlikni shakllantirish	
Talabalarni ...	- qiziqarli;

²¹ Ўша асар. – 12-13-бетлар.

²² Ўша асар. – 14-бет.

²³ Ўша асар. – 15-бет.

	<ul style="list-style-type: none"> - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash
Talabalarga ...	<ul style="list-style-type: none"> - kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish
Talabalarni ...	<ul style="list-style-type: none"> - suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish
Talabalar ...	<ul style="list-style-type: none"> - o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish

Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "o'qituvchining roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Pannels va Klakstonlar (2008) qayd etganlaridek, muhit (autiloriya haqida gap ketganida maqsad va vazifalar) kreativlikni shakllantirishga ta'sir etadi, boshqa tadqiqotchi Piirtoning (2004) fikricha esa, kreativlik tavakkal qilishni talab etadi. Vaholanki, o'qituvchi sinfda talabalar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talabalar kreativlik sinf xonasida o'z g'oya va fikrlarini turli yo'llar bilan ifoda etishlari mumkin va ular buni qadrlamoqlari lozim. Talabalar miyada yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. O'qituvchi talabalardagi kreativlikni

noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab quvvatlaydi. O'qituvchining talabalar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o'qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, talabalar muvaffaqiyatini ta'minlaydi (Hattie, 2011)²⁴.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. SHu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- | | | |
|---|--|---|
| { | <ol style="list-style-type: none">1) ўзини таваккалдан олиб қочиш;2) фикрлаш ва хатти-ҳаракатларда қўполликка йўл қўйиш;3) шахс фантазияси ва тасаввурининг юқори баҳоланмаслиги;4) бошқаларга тобе бўлиш;5) ҳар қандай ҳолатда ҳам фақат ютукни ўйлаш | } |
|---|--|---|

“Kreativ muhitda o'qituvchi talabalar diqqat-e'tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg'otuvchi ma'lumot, talabalarni o'ziga jalb etib, ularda o'qishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi (Koutstaal, 1997; Willis, 2006). Olib borilgan miya taqiqotlari shuni ko'rsatdiki, yangilik hamisha miyani faollashtiradi. O'qituvchi talabalarni yangi ma'lumot va manbalar bilan ta'minlaganda yoki yangi strategiyalarni qo'llaganda, miya “uyg'onadi” va e'tibor qaratadi. Masalan, biror bir adabiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxsga o'xshab kiyinish, tarixiy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o'rnini almashtirish, o'yinlar o'ynash (bu o'rta maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o'zgartirish.

Kreativ muhitda o'qituvchi talabalarga tez-tez tanlash imkonini beradi. Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir (Sprenger, 2010) va u talabalarni ruhlantirib, ularga o'qishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi. Tanlov huquqi nafaqat o'qituvchi-talaba munosabatini

²⁴ Ўша асар. – 15-бет.

yaxshilash, balki har ikki tarafning ham individualligini ifodalashga zamin yaratadi (Deci, 1995). Tanlov huquqi faqat bir tomonlama bo‘lishi ham mumkin, ya’ni tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan ko‘p shaklda taqdim etilishi mumkin”²⁵.

Oliy ta’lim muassasalarida ham o‘qituvchilar talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo‘lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarur shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

“O‘qituvchi kreativlik darslarida jamoa tuyg‘usining ahamiyatini anglagan holda, doimiy ravishda guruhlarni o‘zgartirib, talabalarda jamoa bo‘lib ishlash, boshqalar qobiliyati va mahoratini hurmat qilish ko‘nikmasi shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash ma’lum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik darstarida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik ko‘nikmasi ijtimoiy fenomendir (Farrell, 2001; John-Steiner, 2000; Sawyer, 2003, 2006b); Soyerning fikriga ko‘ra, kreativ qarashlar jamoa bo‘lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi (Sawyer, 2006a, p. 42).

O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lish mezonlari:

- talabalarni *ma’lum sohadagi qobiliyatlariga* ko‘ra kichik guruhlarga bo‘lish; talabalarni bunday qobiliyatiga ko‘ra bo‘lish aslo kreativ fikrlash ko‘nikmasiga bog‘liq bo‘lmasligi lozim. Bunday guruhlarda talabalar erkin harakat qila olishlari va vaqti kelsa boshqa guruhga o‘tishga tayyor bo‘lishlari lozim;

- *hamkorlik guruhlari* talabalarining qiziqishlari asosida tashkil etiladi; bunday guruhlar turli bilim va qobiliyat darajasiga ega talabalardan iborat bo‘lishi ham mumkin. Ko‘p hollarda bunday guruhdagi talabalar ma’lum bir rol, ya’ni mas’uliyatni o‘z elkalariga oladilar. Mazkur guruhni shakllantirishda asosiy e’tibor talabaning kognitiv hohish-istalariga emas, balki uning ilmiy va ijtimoiy bilimiga beriladi;

²⁵ Ўша асар. – 16-бет.

▪ **moslashuvchan guruhlar** talabalarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va hohish-istalari asosida tashki etiladi. Guruhning qiziqishlari o'zgarsa, shunga ko'ra uning a'zolari ham o'zgaradi. Bunday guruh talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qituvchi talabalar muvafaqqiyatga erishishlari uchun ularni qiziqarli, murakkab vazifalar va aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlaydi. Ma'lum vazifani bajarish jarayonida talabalar ishga "berilib" ketishlari sababli ular vaqt tushunchasini unutib qo'yadilar (Csikszentmihalyi, 1996). Vaholanki, talabalar maktab sharoitida kamdan-kam bunday holatga tushsalar, o'qituvchilar bunday mug'hitni yaratishga intilishlari lozim"²⁶.

4. Kreativ ko'nikmalar va talabalarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining mohiyati. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan (1987a). Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin (7-bob):

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi *ko'p* degan so'zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi *o'zgartirish* degan so'zga asoslanadi.

3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi *noyob* degan so'zga asoslanadi.

4. YAratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi *qo'shish* degan so'zga asoslanadi.

Kreativ darslarda talabalardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Ravonlik

²⁶ Ўша асар. – 16-17-бетлар.

Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi talabalarda bir emas, balki bir nechta g'oyalarni o'rtaga tashlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Son asosiy maqsaddir; bir qator g'oyalar ichidan bir yoki undan ko'p maqbulini topishimiz mumkin. Ko'p hollarda o'qituvchilar talabalarda ravonlik ko'nikmasini shakllantirish uchun "aqliy hujum" strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq og'zaki yoki yozma (g'oyalarni qo-g'ozga yozib, keyingi talabaga qo'shimcha g'oyalar kiritish uchun uzatishi lozim) tarzda bajarilishi mumkin. "To'xta va boshla" mazmundagi "Aqliy hujum" mashqida talabalar g'oyalarni o'rtaga tashlab, ularni tahlil qiladilar va baholaydilar, so'ng bu yana bir bor qaytariladi. Talabalar bu mashqda yaxshi natijalarga erishsalar, ulardagi kreativlik ko'nikmasi erkin va ravon fikrlash ko'nikmasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Agarda aksi bo'lsa, doimiy mashq va tajriba yordamida yashxi natijalarga erishi mumkin.

O'qituvchi mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchragan talabalarni kuzatishi tabiiy. Faqatgina yuzaki ma'lumotga ega bo'lgan talabalar cheklangan bilimga ega bo'lganliklari sababli turli va qiziqarli g'oyalarni o'ylab topishda qiynaladilar. Ba'zi hollarda esa, etarlicha ma'lumot va bilimga ega talabalar ham mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchrashlari mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi quyidagi strategiyalardan foydalangan holda talabalarga yordam berishi mumkin:

- *Sinfda talabalarga ruh bag'ishlovchi muhitni yaratish.* O'qituvchi talabalarga sinfdagi barcha buyumlar, jihoz, deraza va devorga osilgan rasm, jadval, sxemalarga e'tibor qaratishni va ularga sinchiklab qarashni so'raydi. Sinfdagi barcha narsalar talabalarda qanday g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ularga bu jihoz va buyumlar nimalarni eslatdi yoki qanday ma'lumot bilan bog'liqligi bor? Masalan, agarda talabalar sunami haqida "aqliy hujum" mashqini bajarayotgan bo'lsalar, tashqarida nur sochib turgan quyosh ularga sunami quyoshli kunda ro'y berishini eslatishi mumkin.

- *YAngi g'oyalarni o'ylab topishda talabalar qiziqishlaridan foydalanish.* "Aqliy hujum" mashqi ma'lum bir adabiy asar haqida bo'lsa, asar qahramonlari xarakteri va ularning hatti-haraktlarini ular yoqtirgan asar qahramonlari, televizion ko'rsatuv

ijodkorlari yoki mashhur sportchilarning fe'l-atvori va hatti-harakatlari bilan solishtirishlari mumkin.

Talabalar kreativlikda ravonlik va erkinlikka erishmasalar, mashq va darslar jarayonida ularning miyasiga birinchi kelgan g'oyagagina tayanib qoladilar, vaholanki bunday g'oya boshqalarning g'oyasida ajralib turmaydi va talabaning keng fikrlashidan dalolat bermaydi. Qolaversa, muammoning echimini topishda qancha ko'p g'oya topilsa, to'g'ri javob yoki variantni tanlash imkoniyati shuncha katta bo'ladi. Masalan, tarix darsi jarayonida evropalik bosqinchilar Amerika mintaqasiga ilk bor qadam qo'yganda ular topgan birinchi narsa "kompyuter" degan javob ham noto'g'ri bo'lar edi; javoblar berilayotgan savollar doirasida bo'lishi lozim. Savol qancha ko'p detallarni o'z ichiga olsa, talabalar ham muvofiq ravishda javob topishga harakat qiladilar.

Moslashuvchanlik

O'quvchilar keng fikr yurita olsalar, vaziyat va muammoga ham bir qancha va turli echim topadilar. Talabalarda moslashuvchanlikni ular turli nuqtai-nazar va fikrlarni inobatga olganlari va ularni tahlil qilganlarida, turli fikrlarin bir-biri bilan solishtirganda va ularning o'hshash va farqli tomonlarin topganlarida va nihoyat muvafaqqiyatga erishib, yaxshi natijalar ko'rsatayotganlarida kuzatish mumkin.

Moslashuvchan bo'lish uchun talabalar ma'lumotning faqat yuzaki qismini emas, balki uning chuqur mohiyatini anglab etishlari lozim. Moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirishda talabalar amaliyot bilan ta'minlansa va ularga yo'l-yo'riq ko'rsatilsa, kelgusida turli g'oyalarni topishda bu kuchli stimuly bo'lib hizmat qiladi. Agarda talaba ko'plab g'oyalar topgan bo'lsa, u moslashuvchanlikni emas, balki ravon fikrlashni namoyon qilmoqda, chunki bunda barcha e'tibor bitta yoki bir turdagi javoblarga qaratiladi. Talabalarda moslashuvchalik ko'nikmasini shakllantirishda soni jihatdan ko'p emas, balki turli mazmundagi g'oyalarni topish kerakligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Muammoning mazmunini chuqur anglagan holda ham, talabalar turli g'oyalarni topishda qiynaladilar yoki umuman bunga qodir bo'lmaydilar. Bu esa, o'z o'rnida, ularda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirish kerakligidan dalolat beradi.

Tajriba va doimiy mashq yordam bersada, o'qituvchi talabalarga murabbiy sifatida turli strategiyalardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Talabalarga turli g'oyalar turli toifa (kategoriyalar)ga bo'linishini anglashida yordam berish mumkin. M: "hayvonlar" kategoriyasiga talabalar hayvonlar nomlarini keltiradilar. Birozdan so'ng, "taomlar" kategoriyasiga talabalar avval milliy keyin boshqa halqlar taomlari ro'yxatini tuzadilar. Mashq shu yo'sinda davom etadi. Bu talabalar bir kategoriya, ya'ni bir fikrdan ikkinchisiga o'tish va unga tezda moslashish ko'nikmasini o'zlashtirmaguncha davom etadi. Talabalarda bunday ko'nikma shakllangach, ulardan moslashuvchanlik bilan fikrlashni talab qilish mumkin. Masalan, "Agarda Zolushka etim va kambag'al bo'lmaganida, voqealar rivoji qanday tus olgan bo'lardi?" va "Janubiy shtatlar fuqarolik urushi davrida qanday strategiyani qo'llanganda urushda g'olib bo'lardi?". Turli kategoriyalarga mansub savollar talabalarda moslashuvchanlik ko'nikmasini rivojlantiradi.

Talabalarni birgina kategoriyada "qotib" qolishini oldini olish uchun *majburiy solishtirish* strategiyasini qo'llash mumkin. M: o'qituvchi "intilganga tole yor" shiori Zolushka voqeasi yoki matematik tenglama, "*perpetuum mobile*", ya'ni abadiy g'ildirakka nisbatan qanday qo'llanilishi mumkinligi haqida so'rashi mumkin. Mazkur strategiya moslashuvchanlik bilan fikrlash orqali voqealar va tushunchalar o'rtasida bog'liqliklarni topishga yordam beradi.

Ko'p yillar avval Aleks Osborn moslashuvchanlik bilan fikrlashni kuchaytiruvchi savollar toifasini tuzib chiqqan (1963). Eberlening 1971 yilda ishlab chiqqan SCAMPER mnemonik sxemasi *substitute* (almashtirmoq/o'zgartirmoq), *combine* (birlashtirmoq), *adapt* (moslashtirmoq), *modify* (o'zgartirmoq/boshqa shakl bermoq), *maximize/minimize* (maksimallashtirmoq/minimallashtirmoq), *put to other uses* (boshqa soha/usulda qo'llash), *eliminate* (oldini olmoq) va *rearrange* (qo'llanilishini o'zgartirish) kabi tushunchalar asosida ishlab chiqilgan. 2.2–jadval 4-sinf o'qituvchisi SCAMPER mnemonik sxemasidan talabalarda moslashuvchan fikrlashni rivojlantirishda istiqomat qilayotgan shahri, tuman, mahallasining ramzi yoki iqtisodiyot, sanoat, oziq-ovqat sohasiga tegishli ma'lumotlarni va aynan Mayn shahrining ramzi bo'lishan mashhur olmalii pirogidan o'quvchilar e'tiborini tortishda

foydalanganini ko'rsatadi. O'quvchilar mnemonik sxemadan foydalangan holda agarda shokoloddan mashhur olmalı pirogni pishirishda shokoloddan foydalanilsa va pishirish jarayonida pirogning tarkibi yoki shakli o'zgartirilsa qanday natijaga olib kelishi va qanady qilib bu shokoladli pirogni Mayn shahrining mashhur pirogiga aylantirish mumkinligi tahlil qiladilar"²⁷.

2.2–jadval. SCAMPER strategiyasini qo'llash asosida kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish²⁸

SCAMPER mnemonik sxemasidan moslashuvchan fikralash ko'nikmasini shakllantirishda foydalanish		
SCAMPER	Savollar	Vazifalar
<i>Substitute</i> (almashtirmoq/o'zgartirmoq)	Agar shokoladning o'rniga vanilladan foydalanilsa qanday pirog xosil bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, rasmini chizing.
<i>Combine</i> (birlashtirmoq)	Agar shokoladli pirog qaymoqli krem bilan bezatilsa, qanday ta'mga ega bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, rasmini chizing.
<i>Adapt</i> (moslashtirmoq)	YUmaloq pirog shaklini qanday o'zgartirish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab olib, uni tariflang.
<i>Maximize/minimize</i> (maksimallashtirmoq/	Pirogning eng kichik/katta bo'lagi qanday shaklga	Variantlar ro'yxatini tuzing

²⁷ Ўша асар. – 18-21-бетлар.

²⁸ Ўша асар. – 21-бет.

minimallashtirmoq)	ega?	va undan birini tanlab olib, uni tariflang.
<i>Put to other uses</i> (boshqa soha/usulda qo'llash)	SHokoladli pirog bilan yana nimalar qilish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing.
<i>Eliminate</i> (oldini olmoq)	SHokoladli pirogga shakar solish esdan chiqqanda nima bo'lar edi?	Variantlar ro'yxatini tuzing.
<i>Rearrange</i> (qo'llanilishini o'zgartirish)	SHokoladli pirogni insonlar taom o'rnida iste'mol qilsalar qanday natijaga olib kelar edi?	Variantlar ro'yxatini tuzing

O'ziga xoslik

O'ziga xoslik noodatiy g'oyalar o'ylab topish ko'nikmasidir. O'quvchilar o'zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko'nikmalarini shakllantirib, so'ng noodatiy, original g'oyalarni kashf etish ko'nikmasini hosil qilishlari lozim. Ravon fikrlash ko'nikmasi o'quvchilarda originallikni rivojlantirishda boshlang'ich va asos soluvchi qadam bo'lib xizmat qiladi; agarda talaba ko'p g'oyalarni o'rataga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi albatta boshqa talabaning g'oyasi ham bo'ladi (Simonton, 1999). Moslashuvchan fikrlash o'quvchilarga ularning har bir g'oyalari bir-biridan farqlanishini ko'rish va anglash imkoni beradi; ularning orasida hammasidan ajralib turuvchi g'oya bo'lsa, demak ana shunisi original (o'ziga xos) g'oya hisoblanadi.

Talabalar original g'oya kontekstdan kelibi chiqishi lozimligini anglashlari lozim. G'oya bir dars jarayonida, birgina sharoitlar va bir vaqt oralig'ida taqdim etilishi lozim. Talabalarda rovon fikrlash va moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'ziga xos tarzda (original) fikrlash to'g'risida ham ma'lumot berib o'tish lozim. Masalan, talabalarni "aqliy hujum" strategiyasi yordamida ocharchilikka qarshi kurashish mavzusida muammoning echimi ro'yxatini

tuzish (ravonlik), so'ng berilgan g'oyalarni bir necha kategoriyalarga bo'lib chiqish (moslashuvchanlik) va ulardan qay biri o'ziga xos (originallik) g'oya ekanligini aniqlash talabalarda shakllangan ko'nikmalarning bir paytning o'zida qo'llanilishini ko'rsatib beradi. (Mazkur yondashuv Iqtidorlilar insonlarning keng fikrlash modeli asosida yaratilgan; Schlichter, 1986).

Moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shallantirishda talabalar qiziqishlari va madaniy qarashlaridan foydalanish ularda originallikni tarbiyalashda katta samara beradi. Mayn shahrida istiqomat qiluvchi o'rta ta'lim mavtabi o'qituvchisi mazkur strategiyani o'quvchilarda o'ziga xos (original) tarzda fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda qo'llagan. U ravonlik va moslashuvchanlik bo'yicha mashq va o'yinlarni o'z ichiga olgan elektron dastur ishlab chiqqan. O'quvchilar berilgan vazifalarni PowerPoint prezentatsiyasi, portfolio yoki boshqa shaklda bajarish tanloviga ega edilar. Talabalar natijalarni qo'shiq PowerPoint prezentatsiyasi shaklida taqdim etdilar. Bunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan keyinchalik o'qituvchi va o'quvchilar orasida mashhur bo'lib, u vazifa mazmunini chuqur anglash va natijalarni original tarzda bqqri ko'nikmalarini shakllantirishda o'z samarasini ko'rsatdi.

YAratuvchanlik

“YAratuvchanlik” tushunchasi boshqa bir g'oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya'ni berilgan vazifalar anu shu g'oya asosida bajariladi. Bir g'oyani kengaytirish uchun talabalar mavzu, muammo yoki vazifa mazmunin chuqur anglab etishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo'lishlari lozim.


Talabalarga “yaratuvchanlik” tushunchasi haqida gapirganda, ularga hayotiy misollar keltirish maqsadga muvofiqdir (masalan, kompyuterlar, rekonstruksiya, kino va adabiy asarlar, ilmiy tushunchalar va nazariyalar, insonlar hayotida yuzaga keladigan muammolarni echish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar). Talabalarda ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantirisha adabiy yoki asarlarni bir-biri bilan

taqqoslash (ba'zan ko'p betli asarlar kichkina kam betli asarlar kabi ko'p ma'lumot bermaydi) mashqi katta samara beradi"²⁹.

5. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar. Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. CHiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi.

O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi: 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning echimini topishga kreativ yondashish; 4) kutiladigan natija³⁰.

SHaxsning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi



Шахс креативлик потенциалининг устувор тамойиллари

²⁹ Ўша асар. – 22-25-бетлар.

³⁰ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –188 p.

SHaxsning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari. SHaxsning **kreativlik potentsiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. SHaxsning kreativ potentsiali an‘anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- тафаккурнинг тезкорлиги ва эгилувчанлиги;
- янги ғояларни яратиш қобилияти;
- бир қолипда фикрламаслик;
- ўзига хослик;
- ташаббускорлик;
- ноаниқликка тоқат қилиш;
- заковатли бўлиш

SHaxs kreativlik potentsialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e‘tiborini qaratishi zarur:

- касбий фаолиятига ижодий ёндашиш;
- янги-янги ғояларни яратишда фаоллик кўрсатиш;
- илғор педагогик ютуқ ва тажрибаларни мустақил ўрганиш;
- ҳамкасблар билан педагогик ютуқлар хусусида фикр алмашиш

Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.


Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'qituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. "Kreativlik darslarida talabalar birgina "to'g'ri" javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va hotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli echimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rta tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi (Simonton, 1999). O'qituvchilar "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Talabalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga" qo'yib yuborish ularni kreativ va, hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. CHak Djons aytganiday "Qo'rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir" (Goleman, Kaufman, & Ray, 1992). Talabalarni yo'naltirish talabalarda o'qituvchiga

bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o‘zz o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishiga o‘z ta’siri o‘tkazadi (Amabile, 1998). O‘qituvchilar talabalarga manbalar bilan ta’minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvaffaqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. SHuningdek, yuqori kurs talabalari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar ham (m: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni echish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)”³¹.

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

SHaxsning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi



Шахс креатив потенциалининг таркибий асослари

Talabanning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada talaba:


³¹ Ўша асар. – 17-18-бетлар.

- ижодий фикрлашга одатланади;
- илмий-тадқиқот фаолиятини олиб бориш кўникмаларини пухта ўзлаштиради;
- педагогика ёки мутахассислик фани ютуқлари ҳамда илғор тажрибалардан фойдаланиш имкониятларини мустақил таҳлил қилади;
- педагогик жамоа томонидан олиб борилаётган илмий тадқиқот ва ижодий лойиҳаларни бажаришда фаол иштирок этади

SHaxsning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari.

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda SHaxsning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi (9-rasm):



SHaxs kreativ potentsialining muhim darajalari

Шахсининг креатив потенциали даражасини аниқловчи меzonлар		
№		
1.	YUqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan
2.	O‘rta	Ba‘zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi
3.	Past	Garchi u etarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surshga intiladi, kreativ qobiliyati etarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi

SHunday qilib, malaka oshirish kurslarida “Kreativ pedagogika” moduli (fani)ni o‘qitish pedagoglarda ularga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini

samarali rivojlantirish imkonini beradi. Pedagoglarda kreativlik sifatлари, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalі tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo‘llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo‘lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirisha ustuvor tamoyillar asosida ish ko‘rish aniq maqsaga yo‘naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko‘rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo‘lishi zarur?
3. SHaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo‘llari mavjud?
4. Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?
5. SHaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
6. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?
7. Pedagoglar kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslari nimalardan iborat?
8. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?
9. Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo‘ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Sirotyuk F.S. Diagnostika odaryonnosti / Ucheb.posobie. – M.: Direkt-Media, 2014. – 1229 s.
3. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posobie. – Kirov: ANOO “Mejregionalnyy SITO”, 2013. – 212 s.

7-MAVZU: (2SOAT MA'RUZA, 4SOAT AMALIY MASHG'ULOT) OTM TALABALARIDA KREATIVLIK SIFATLARI VA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI METOD VA VOSITALAR

Reja:

1. Talabalarning kreativlik imkoniyatlari.
2. Talabalar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari.
3. Talabalarning kreativlik imkoniyatlari. Talabalarda kreativ imkoniyatini ifodalovchi tamoyillar. Kreativlik imkoniyatiga ega talabalarda namoyon bo'ladigan malakalar.
4. Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo'l va shakllari.
5. Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.
6. Talabalarning kreativlik sifatlarini aniqlovchi psixologik testlar.

Tayanch tushunchalar: kreativlik sifatleri, kreativlik sifatlariga egalikni aniqlash, shakl, metod, vosita, kreativlik sifatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalari.

1. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlovchi shakl, metod va vositalar. Xorijiy mamalakatlarining ta'lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko'plab metod va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va o'quvchilarni o'quv materiallari yuzasidan chuqur o'ylashga majbur qiladi. SHu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatleri nihoyatda past rivojlangan o'quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo'llab bo'lmaydi.

Kzikszentmixayli (Csikszentmihalyi, 1996 y.) kreativ shaxslar ikki toifaga bo'linadi degan fikrni ilgari suradi:

1. Katta kreativlar ("katta K"). Ular o'zlari faoliyat olib borayotgan sohaning etakchilari bo'lib, sohada doimo o'zgarishlarni sodir etishga intiladi.
2. Kichik kreativlar ("kichik K"). Ular o'zlarining kreativlik sifatlaridan faqatgina kundalik hayotda muayyan foydaga erishish uchun foydalanadi.

Aksariyat talabalar o'zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning nazarlarida kreativlik go'yoki ular etisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli shaxslardagina namoyon bo'ladi. Bunday fikrga ega talabalar kreativlik sifatlariga egalik o'z sohasining etakchilari (ya'ni "katta K" toifasiga kiruvchi shaxslar), san'at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan talabalarda bo'lishiga ishonadilar. Talabalar qachonki kreativ shaxs bo'lish uchun o'z sohasining etakchisigina bo'lish shart emasligi tushunsalar, o'zlarida kreativlik sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. SHundagina ular o'zlarini past baholashga barham berib, yangi, ilg'or g'oyalar bilan o'zlarini namoyon etishlari, ta'lim jarayoni kun sayin faollik ko'rsatishga muvaffaq bo'ladilar, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilanadi. O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar. Amaliyotning ko'rsatishicha, talabalar qancha ko'p kreativlik sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko'p faollikka erishadilar.

Kreativ xarakterga ega mashg'ulotlar talabalarning qiziqishlarini kuchaytirib, ular yanada ko'proq harakat qilishga undaydi. Dweck (Dweck, 2006 y.) tomonidan e'tirof etilishicha, talabalar amaliy harakat va faollik jiddiy o'zgarishlarga olib kelmasligiga ishonishdek salbiy tushunchalarga ega. Ular o'zlarining muayyan imkoniyatlarga egaliklarini biladilar, biroq, mavjud imkoniyatlari hech narsani o'zgartirmaydi deb hisoblaydi. SHu sababli ular o'zlarining faollik darajasini erishayotgan yutuqlari bilan emas, aksincha, doimo muvaffaqiyatsizliklari bilan baholashga odatlanib qolishadi. Bu esa nihoyatda xavfi. O'zlarini yuqori baholaydigan talabalar esa mavjud ko'nikma, malaka va iqtidorlari yanada rivojlanib borishiga ishonadilar. Bunday talabalar odatda murakkab ishlarda faol qatnashadilar va o'zlarini namoyon eta oladilar ham. Xato qilsalar undan xulosa chiqarib, o'sishda davom etadilar. Bunday fikrlash odatiga ega o'quvchilar kirishimliroq va kreativlik ko'nikmasidan foydalanishga moyil bo'ladi³².

³² Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bugungi kunda iqtidorli bolalarni aniqlash borasida katta tajribalarga ega. Ta'lim tizimida iqtidorli bolalarni aniqlash va ularga ta'lim berishga oid ko'plab metodikalar mavjud. Quyida ularning ayrimlari to'g'risida to'xtalib o'tiladi:

Slosson testi³³. Katta yoshlilar hamda bolalarning aqliy qobiliyatini o'lchashga xizmat qiladi. Berilayotgan barcha testlarga javoblar og'zaki tarzda olinadi. Kichik yoshli bolalarga berilayotgan topshiriqlarning ayrimlari bolalar tomonidan ayrim harakatlar (masalan, qog'oz, qalam yoki ruchkalardan foydalanish)ning bajarilishiga oiddir. Test aqliy qobiliyat darajasining o'rganilayotgan sifatlarga nisbati tarzida aniqlanadi. Bu o'rinda yuqori natija 120 va undan ortiq ko'rsatkich sanaladi.

Veksler shkalasi³⁴. Veksler shkalasi ("PPSI" testi) aqliy qobiliyatni aniqlashga imkon beruvchi individual test hisoblanadi. U ikki qismdan iborat:

1) og'zaki shkala (ma'lum materialni o'zlashtirish, uning mazmunini tushunish, arifmetik topshiriqlarni bajarish, o'zaro o'xshashliklarni topish, lug'at boyligiga egalikni namoyish etish kabi beshta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi);

2) harakat shkalasi (kubiklardan konstruksiyalar yaratish, labirintlarni topish, chizilayotgan surat (kartinalar)ni yakuniga etkazish, tavsiya etilayotgan kod (tasvir)lar mohiyatini ochib berish ("Hayvonlarning uylari" mavzusi bo'yicha) kabi beshta holat ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi.

Torrens (I) testi³⁵. Torrens (I) testi yozma shaklda bo'lib, tafakkurning quyidagi sifatlarini aniqlashga yordam beradi:

- 1) tezkorlik;
- 2) aniqlik;
- 3) tasavvurning boyligi va o'ziga xosligi.

Test noto'g'ri shaklda yoritilgan surat (kartina)ni to'g'ri shaklda ifoda etishga asoslanadi. Bunda boladan juda yorqin ranglarda noto'g'ri tasvirlangan kartinani alohida qog'ozga to'g'ri shaklda qayta tasvirlay olish talab etiladi.

³³ Одарённые дети (Пер. с англ.). – М.: Прогресс, 1991. – С. 177-178.

³⁴ Тот источник. – С. 177.

³⁵ Тот источник. – С. 183.

Torrens (II) testi³⁶. Torrens (II) testi ogʻzaki shakldagi test boʻlib, bolalar va kattalarning ijodiy qobiliyatini ogʻzaki usullar yordamida aniqlashga xizmat qiladi. Test quyidagi tavsifga ega:

- 1) savollarni bera olish malakasiga egalik;
- 2) surat (kartina)lar majmuida tasvirlangan vaziyatlarga mos keluvchi holatlarning sabab va oqibatlarini aniqlay olish;
- 3) kundalik hayotda eng oddiy va ommaviy predmetlarni qoʻllashning oʻziga xos usullarini taklif eta olish;
- 4) barcha uchun yaxshi tanish boʻlgan predmetlar boʻyicha kutilmagan savollarni bera olish;
- 5) taxminlarni ilgari sura olish.

Pedagogik manbalarda pedagogning kreativ tafakkuri darajasini quyidagi metodlar³⁷ yordamida baholash mumkin ekanligi koʻrsatilgan:

- 1) taʼlim-tarbiya jarayonida oʻqituvchi shaxsi va faoliyatini bevosita oʻrganish metodlari (pedagogik kuzatish, oʻqituvchining ish hujjatlari va rejalarini oʻrganish, suhbat va h.k.);
- 2) pedagogik tafakkurni tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, reyting, test va b.)

Ushbu metodlar yordamida oliy taʼlim muassasalari talabalarining pedagogik bilimlari darajasini ham baholash mumkin. Faqat bu oʻrinda oʻqituvchining ish hujjatlari, rejalarini oʻrganish emas, balki talabalarning individual, mustaqil taʼlim olishlari va ularning natijalarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

2. Talabalarda kreativlik koʻnikmalarini shakllantirishda DTSning ahamiyati.

SHaxsning kreativlik koʻnikmalariga ega boʻlishida yuqorida aytib oʻtilganidek, taʼlim jarayonini muhim ahamiyatga ega. SHu sababli taʼlim mazmunida kreativlik gʻoyalari hamda talabalarda kreativlik koʻnikmalarini shakllantirishga doir yondashuv oʻz ifodasini topishi zarur. DTS esa haqli ravishda oʻzida taʼlim mazmunini toʻlaqonli

³⁶ Тот источник. – С. 183.

³⁷ Занина Л.В., Меньшикова Н.Л. Основы педагогического мастерства /Учеб.пособие для студ. пед. вузов. – Ростов-на-Дону, Феникс, 2003. – С. 238.

ifoda etadi. SHu sababli Patti Drepeau AQSHning DSUA (Davlat standartlarining umumiy asoslari – SSSS)da o‘quvchi va talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi g‘oyalarning qay darajada o‘z ifodasini topganligini tahlil etadi. Uning bu boradagi fikrlari amaliy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda quyidagi muallifning bu boradagi mulohazalari batafsil keltiriladi³⁸.

Davlat standartlarining umumiy asoslari (DSUA – CCSS) talabalar tomonidan tegishli fan yoki mutaxassislik asoslari bo‘yicha belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal darajasini o‘zlashtirish va tushunilishini talab etuvchi maqsadni qanoatlantiradi. Mazkur standartlar, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan o‘qitish tizimining tashkiliy jihatdan tashkil etilishini ta‘minlaydi. Davlat standartlarining umumiy asoslari (DSUA – CCSS)ning mohiyati: axborot matnining murakkabligi hamda unga nisbatan tanqidiy yondashuv talabalarga malakali mutaxassis bo‘lishlari va xizmat bo‘yicha (kasbiy sohada) o‘sishlarini ta‘minlash imkoniyatini yaratadi. Davlat standartlari o‘z mohiyatiga ko‘ra talabalarga rag‘batlantiruvchi mazmuni o‘rganish imkoniyatini ta‘minlash orqali ular tomonidan akademik bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish yo‘llarini belgilab beradi. SHunday ekan, nima uchun DSUA (CCSS)ni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish vositasi sifatida ularning kreativ potensialidan foydalanish mumkin emas?

Asarning 1-bobida ta‘kidlab o‘tilganidek, talabalarda kreativ fiurlash ko‘nikmalarining namoyon bo‘lishi ular tomonidan kasbiy bilim va ko‘nikmalarning sidqidildan, mamnun holda o‘zlashtirish darajasini kuchaytiradi (Beghetto, Kaufman, 2010). DSUA (CCSS)dagi matnli murakkablik talabalardan kreativ fikrlashni hamda kreativ fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab etadi. Ammo, (42) filologiya fanlari bo‘yicha ingliz standarti (Eng yaxshi metodistlar Assotsiatsiyasining Milliy markazi, Davlat maktablari rahbarlarining Boshqaruv Kengashi (NGA) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarning umumiy tahlili ularda ta‘lim oluvchi shaxsida kreativ potensialni oshirish choralari belgilanmaganligini ko‘rsatadi. Ularda ta‘lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini belgilash maqsadida – *qayta sanab o‘ting*,

³⁸ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. - 42-58-бетлар.

izohlang, keltiring kabi fe'llar qo'llanilgan bo'lsa, kreativ fikrlash holatini ifodalovchi – *aloqani hosil qiling, birlashiring va xulosani ilgari suring* tarzidagi fe'llar kam qo'llanilgan yoki mutlaqo qo'llanilmagan. Xuddi shuningdek, matematika fanlari bo'yicha standartlar (NGA Markazi, 2010 y.)da ham *hal qiling, qo'llang, izohlang va tushuntiring* kabi fe'llar kreativ fikrlash holatini ifodalovchi – *sharhlang, e'tiborni qarating yoki taqqoslang* kabi fe'llarga nisbatan ko'p qo'llanilgan.

Ushbu holat o'qituvchidan o'z faoliyatida DSUA (CCSS) talablarini qondirish yo'lida talabalarning kreativ potensialini oshirishga xizmat qiladigan ijodiy nutqdan foydalanishga e'tibor qaratishni talab etadi. Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini birlashtirish uchun esa o'qituvchi o'zining dars rejalarini shunday tuzishi kerakki, buning natijasida o'quv axborotlarini ijodiy qayta ishlash orqali talabalar kreativ fikrlash imkoniyatiga ega bo'lsin.

Bunga erishish uchun fikrni rivojlantiring (m: "fikrni rivojlantiring", tuzing (m: "reja tuzing", ishlab chiqing (m: "harakat mexanizmini ishlab chiqing").

Birinchi darajali DSUA (CCSS) hamda talabalar uchun mo'ljallangan Amaliy standartlari (NGA Markazi, 2010 y.) "hisob-kitob oqibatlarini kengaytirish"ga xizmat qila olishi zarur. Agarda talabalardan 2, 4, 6, 8 ko'rinishdagi sanoq tartibini kengaytirish (davom ettirish)ni so'rasa, u holda o'qituvchi talabalarni kreativ fikrlashga unday olmaydi. Bunday holatda talabalar raqamlarning mohiyati va tartiblanishi haqidagi mavjud bilimlarini rivojlantirmagan holda 2, 4, 6, 8 ko'rinishdagi sanoq tartibini shunchaki kengaytirish (davom ettirish)lari mumkin. Agar, bordi-yu, o'qituvchi talabalarning e'tiboriga 1, 2, 3, 2, 1 ko'rinishdagi sanoq tartibini taqdim etish orqali ulardan mazkur sanoq tartibi oqibatlarini imkon qadar ko'p usullar bilan ifodalashni talab etsa, u holda talabalarning raqamlar mohiyati va ularning tartiblanishi haqidagi qarashlarini rivojlantirishga erishadi. Zero, bu jarayonda talabalar tahlil asosida bir necha darajali javoblarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qituvchilar talabalarning kreativ fikrlashga undashni xohlar ekan, bu vaqtda ular darslar jarayonida talabalarning kreaktiv fikrlash qobiliyatlaridan unumli foydalanish yoki ana shu ko'nikmalar negizida uyushtiriladigan darslarni tashkil

etishda o'zlarining tasavvur imkoniyatlari hamda kreativ potentsiallarining samarali foydalana olishga erishishlari zarur. Garchi bunga bir qarashda erishish qiyindek tuyulsa-da, biroq, mazkur jarayon u qadar qiyin kechmaydi. Qolaversa, o'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan axborot vositalari (m: tartiblashga doir matematik misolning ko'rsatmali namoyish etilishi) ham talabalarning kreativ fikrlash qobiliyati, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'zlari tomonidan tashkil etilgan darslarda adolatli tarzda talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yo'l, shakl, metod va vositalardan foydalansalar, buning natijasida bu boradagi g'oyalar asta-sekin DSUA (CCSS)da ham o'z in'ikosiga ega bo'lib boradi.


DSUA (CCSS)da aks etadigan qarama-qarshiliklarni yaxshi anglash uchun dastlab mazmun, mavzular, kichik mavzularni ifodalovchi tushunchalarni bayon etib o'ting: odatda ular ot sifatida qayd etiladi. So'ngra standartda o'z ifodasini topgan fe'llarni bayon eting: fe'llar talabalarni fikr yurishga undaydi (m: tasvirlang (ta'riflang), tahlil qiling, ifodalang, aniqlang). Talabalarning kreativ potentsialini namoyon etishga xizmat qiladigan topshiriqlarni standartga kiritishning bir usuli unda ifodalangan fe'llarni kreativ fikrlashga ko'nikmalarini ifodalovchi fe'llarga almashtirish hisoblanadi; boshqa usul esa talabadan talab etiladigan javobning darajasini belgilash maqsadida mavjud so'zlarni sifat va ravishda ifodalanishini ta'minlashdan iborat.

M: 3.1-rasmda ko'rsatilishicha, 2-DSUA (CCSS)da "o'qish" tushunchasi "kichik paragraf mohiyatini asosiy mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda paragraflar o'rtasidagi chegara bo'yicha aniqlagan holda izohlash" (RI.2.2; NGA Markazi, 2010a)dan iborat bo'lishi zarur. Standart, asosan, talabalar qaysi asosiy mavzu va paragraflarning "yadrosi" nimadan iborat ekanligini bilishlari kerakligini taqozo etadi; talabalar, shuningdek, kichik matnlar bo'laklarini ifodalovchi tushunchalar bilan tanish bo'lishlari lozim. Mohiyatiga ko'ra fe'l nafaqat past darajadagi, unchalik qiziqarli bo'lmagan fikrni boshqa fikrlar bilan o'zaro tenglashtiradi. Standartni qayta ko'rib chiqishda fe'llar kreativ fikrlar bilan almashtirish taqozo etiladiki, oqibatda talabalar zarur kreativ fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Hozirda qayta ko'rib chiqilgan standartda "o'qish" tushunchasi "kichik paragraf

matning asosiy mavzusini almashtirishda paragraflarni matn chegaralarida aniqlashga e'tiborni qaratish" tarzida talqin etiladi. Bunda talabalardan ularning asosiy mavzuni izohlay olish imkoniyatiga ega bo'lishlari, bu jarayonga ijodiy yondasha olishlari talab qilinadi. Talabalar matn xususida chuqurroq o'ylashlari va mavzu to'g'risidagi tushunchalarini mustahkamlay olishlari kerak. Asosiy mavzuni o'zgartirish asosiy mavzuni izohlashga nisbatan ko'proq darajada intellektual o'yin va ilgari surilayotgan chaqiriq sanaladi. Bilim, ko'nikma va malakalarni ifodalovchi fe'llarning almashtirilishi natijasida standart o'zida 1-bobda aytib o'tilganidek, o'quv majburiyatlarini o'zida aks ettiradi. Qiziquvchan talabalar bu yo'l bilan o'quv majburiyatlarining o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lishigga erishadi (Grant, Gallate, 2012).


Quyida yuqorida bildirilgan fikrlarni yorituvchi jadvallar keltiriladi.

3.1-jadval. Kreativ fikrlashni ifodalovchi fe'llarni qo'llagan holda DSUA (CCSS)ni qayta shakllantirish



3.2-jadval. Kreativ mazmundagi fe'llarni qo'shgan

holda DSUA (CCSS)ni qayta shakllantirish



3.3-jadval. Standartga asoslangan o‘yinlarni qo‘llash asosida kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish

Kalit so‘zlar va detallar	Ravon (erkin) fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish	Moslashuvchanlikni shakllantirish	O‘ziga xoslik (originallik)ni shakllantirish	Yaratuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish
<p>O‘rta ta’lim maktabi: o‘qituvchi ma’lum bir asarning mazmunini yanada ochib berish uchun savol-javob strategiyasini qo‘llaydi. Javob berayotganda albatta asrdagi matnga iqtibos berishi kerak. Asar nomi: <i>Sarah, Plain and Tall</i> (MacLachlan, 1985)</p>	<p>Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, kerakli matnga iqtibos bergan holda asardagi asosiy qahramon Saraning etuk ona bo‘lib etishishida qanday omillar rol o‘ynaganini muhokama qilishlari zarur</p>	<p>Har bir kichik guruhdagi talabalar Saraning yomon xulqli ona bo‘lishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va vaziyatlarni tahlil qiladi. Talabalar matnga iqtibos bergan holda yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar va ular asarning</p>	<p>Kichik guruhlardagi talabalar matnga iqtibos bergan holda voqealar rivojini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan omillar va ular asarning umumiy mazmuniga qanday ta’sir etishi mumkinligini tahlil qiladi</p>	<p>Sara hech qachon turmushga chiqmagan va bolalari bo‘lmagan. Kichik guruhlardagi talabalar Saraning bola asrab olishining sababi, nima uchun u qiyinchiliklarga duch kelishini bilsa-da, bunday mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olishga qaror qilganligini tahlil</p>

		umumiy mazmuniga qanday ta'sir etishi mumkinligini izohlab beradi		qiladi va yozma ravishda insho topshiradi. Fikrlarini tasdiqlash uchun talabalar asardagi kerakli matnga iqtibos beradi
<p>O'rta ta'lim maktabi:</p> <p>o'qituvchi ma'lum bir asarning mazmunini yanada ochib berish uchun savol-javob strategiyasini qo'llaydi.</p> <p>Javob berayotganda albatta asardagi matnga iqtibos berishi kerak.</p> <p>Asar nomi:</p> <p><i>"An old man and the sea"</i></p> <p>(E.</p>	<p>O'quvchilar kichik guruhlar yoki yakka tartibda ishlashi mumkin.</p> <p>Kerakli matnga iqtibos bergan holda asardagi asosiy qahramon – baliqchi Santyagoning insoniyligi, dengizga bo'lgan mehri, bolakayga munosabatini aks ettiruvchi</p>	<p>O'quvchilar asarda tasvirlangan baliq bilan bo'lgan olishuv aslida nimaning ramzi, ifodasi ekanligini ta'riflab o'tishi kerak.</p> <p>Santyagoning baliq ustidan g'olib kelishiga qanday omillar sababchi bo'ldi? Agar Santyagoning qarmog'iga katta baliq</p>	<p>Santyagoning baliqqa aslim bo'lmasligi, biroq, unga mehr qo'yganligini qanday ta'riflash mumkin? Inson qalbi bir paytning o'zida ikki xil va qarama-qarshi tuyg'uga ega bo'lishi mumkinmi? Bu kabi savollar o'quvchilarni o'ziga xos (original) javoblar</p>	<p>Asardagi ikkinchi asosiy qahramon – bolaning roli nimadan iborat edi? Nima uchun yozuvchi asarga "bola" obrazini kiritgan? Agarda asarda "bola" obrazi bo'lmaganida, voqealar rivoji qanday tus olgan bo'lardi?</p>

Hemingway, 1951)	holatlarni keltiradi	ilinmaganda, voqealar rivoji qanday tus olgan bo'lar edi?	berishga undaydi	
<p>Oliy o'quv yurti:</p> <p>O'qituvchi Kitsaning mashhur va chuqur mazmunga ega ihtibossini keltiradi.</p> <p>Ihtibos:</p> <p>“Go‘zallik – haqiqat, haqiqatning go‘zalligi – bu barcha narsaning asosi” / Siz bilishingiz zarur bo‘lganlarnigi na bilasiz”</p>	<p>Talabalar mazkur ihtibos bo‘yicha ularni qiziqtirayotgan savollar ro‘yxatini tuzadi. O‘z g‘oyalarini himoya qilish maqsadida matndan misollarni iqtibos sifatida keltiradi</p>	<p>Talabalar ihtibos yanada ma’noli bo‘lishi uchun ba’zi so‘zlarni ularga tushunarli bo‘lgan so‘zlarga o‘zgartiradi</p>	<p>Talabalar ihtibosning mazmunini obraz yoki rasm orqali ifoda etishlari mumkin. Bunda ular rasm, ramz va ihtibos o‘rtasida qanday bog‘liqlik borligini ta’riflab berishlari zarur</p>	<p>Talabalar juftlik va kichik guruhlarda o‘z qarashlari va nuqtai nazarlarini bir-birlari bilan o‘rtoqlashadi va muhokama qiladi</p>

**3.4-jadval. Tipik va kreativ fikrlash
ko'nikmalari o'rtasidagi farqlar**

Kalit so'zlar va detallar		Tipik dars		Kreativ ko'nikmalarni shakllantiruvch dars	
O'qituvchi matn/ihtibos keltiradi va uning asosiy mazmuni yorituvchi qator yoki so'zlardan foydalanadi		Talabalar Karl Sendburgning (Carl Sandburg) "CHikago" (1916) she'ridagi ochib berilgan g'oyalarni tahlil qiladi va o'z qarashlarini himoya qilish uchun she'rdagi misradalardan foydalanadi. Natija: yozma tahlil		Talabalar Karl Sendburgning "CHikago" (1916) she'riga asoslanib ona shaharlari haqida she'r yozadi. SHE'rdagi til, g'oya, tasvir yangi she'rda aks ettirilgan bo'lishi kerak. Natija: she'r	
Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?	Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?	Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?
Yo'q	Yo'q	Yo'q	Yo'q	Ha	Ha
Turli geometrik shakllar bir xil toifaga mansub bo'lishi mumkin, m. romb, to'rtburchak va kvadratga ega bo'lib, bitta, ya'ni to'rt burchaklilar kategoriyasiga mansub. Ushbu kategoriyaga mansub yana qanday shakllarni bilasiz? Ularni chizing		Talabalar to'rtburchak, romb va kvadrat shakllarini chizib qirqib oladi va ularni hajmi, shakli ketma-ketligada joylashtirib chiqadi. Natija: grafik organayzer		Talabalar to'rtburchaklilar toifasiga mansub shakllarni chizib qirqib oladi (ularning soni 4 dan 8 gacha bo'lishi mumkin) va ular yordamida bitta yaxlit rasm yaratishlari kerak. Natija: rasm	

Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?	Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?	Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?
Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Ha	Ha
<p>Hayotimizda ro‘y berayotgan va dunyodagi mavjud global mummolardan biri – ekologiya muammosi. Tabiatni muhofaza qilishda nimalarga e‘tibor qaratishimiz lozim? Qanday omillar ekologoyaning buzilishiga olib keladi? Uning kelgusi avlodga ta’siri qanday?</p>		<p>Talabalar kichik guruhlariga bo‘linib, ekologiyani buzilishiga olib keluvchi omillar ro‘yxatini tuzadi. Ekologiya bilan bog‘liq yana qanday muammolar mavjud? Talabalar yo‘q bo‘lib ketayotgan noyob hayvon va o‘simliklar haqida bayon yozadi.</p> <p>Natija: yozma tahlil</p>		<p>Qizil kitobga kiritilgan noyob hayvon va o‘simliklar albomini yaratadi va tabiatni asrashda o‘z g‘oyalarini taklif etadi.</p> <p>Natija: albom/qizil kitob</p>	
Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?	Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?	Bu kreativ fikrlash jarayonimi?	Bu kreativ natijami?
Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q	Ha	Ha
Tipik strategiyalarimdan biri:			Qanday qilib uslub va strategiyalarni kreativ fikrlashin shakllantirishda o‘zgartirishm mumkin?		
Tipik strategiyalarimdan biri:			Qanday qilib uslub va strategiyalarni kreativ natijaga erishishda o‘zgartirishm mumkin?		
Tipik strategiyalarimdan biri:			Qanday qilib uslub va strategiyalarni kreativ fikrlashin shakllantirish va kreativ		

	natijaga erishishda o'zgartirishm mumkin?
--	---

Izoh. CCSS; Eng yaxshi metodlarga ega gubernatorlar Assotsiatsiyasining Milliy Markazi, SHtat maktab inpektorlari Bosh kengashi, 2010a, 2010b.

**3.5-jadval. Kreativ ko'nikmalarni
rejalashtirishga mo'ljallangan varaqa**

Standart: <i>Masalan:</i> Talabalarga biror bir asardan ihtibos yoki parcha o'qib bering. O'qib berilgan parcha yoki ihtibos asarning umumiy mohiyatini yoritib berishi lozim.	Dars yoki mashq: <i>Masalan:</i> Karl Sendburgning "Tuman" asarida tumanga bergan ta'rifi asosida mazmunini o'zgartirmagan holda qo'shimcha ta'rif yozish ("Fog," 1916)
Kreativ fikrlash ko'nikmasi: <i>Masalan: YAratuvchanlik</i>	Kreativ natija/mahsulot: <i>Masalan: Hech qanday</i>
Kreativ yo'l: <i>Masalan: Kreativ yo'l 1 (fe'l va tushunchalar)</i>	Darsning qaysi qismida yuzaga keladi? <i>Masalan: Darsning keyingi bosqichida</i>
Standart:	Dars yoki mashq:
Kreativ fikrlash ko'nikmasi	Kreativ natija/mahsulot
Kreativ yo'l	Darsning qaysi qismida yuzaga keladi?
Standart:	Dars yoki mashq:
Kreativ fikrlash ko'nikmasi	Kreativ natija/mahsulot
Kreativ yo'l	Darsning qaysi qismida yuzaga keladi?

Izoh: DSUA (CCSS; Eng yaxshi metodlarga ega gubernatorlar Assotsiatsiyasining Milliy Markazi, SHtat maktab inpektorlari Bosh kengashi, 2010a, 2010b)

3. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari. Kreativlik “turli vaziyatlarda ta’lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo’lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi”³⁹. Mohiyatiga ko’ra OTM pedagoglarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish ular tomonidan pedagogik, psixologik hamda mutaxassislik fanlari asoslaridan to’la xabardor bo’lish, ular tomonidan o’zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda faol qo’llay olish ko’nikma va malakalarini shakllantirish hisobiga kechadi.

V.V.Utyomov, M.M.Zinkovkina, P.M.Gorev⁴⁰larning qayd etishlaricha, kreativ shaxsni shakllantirish uch bosqichda kechadi. YA’ni (2-jadval):

2-jadval. Kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari

Bosqichlar	Mazmuni
Tabiiy imkoniyatlarga asoslanuvchi kreativlik	Individning o’ziga xos xatti-harakatlarini ifodalaydi
Birlamchi (umumiy) kreativlik	SHaxsning ijodkorligini namoyon etuvchi umumiy qobiliyat (u bolaning 3-5 yoshida namoyon bo’lib, 6-7 yoshida uning xatti-harakatlarida yaqqol ifodalanadi)
Ixtisoslashgan kreativlik	Ijtimoiy faoliyatning muayyan turi bo’yicha ijodkorlikni namoyon etuvchi qobiliyat (unga ko’ra kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalariga tayangan holda, uning ta’sirida umumiy kreativlik yanada rivojlanadi)

Har qanday shaxsda bo’lgani kabi pedagoglarda ham ijodiy-kasbiy xarakterdagi sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Ta’lim

³⁹ Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008. – 15-б.

⁴⁰ Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный ЦИТО”, 2013. – С. 16.

amaliyotini kuzatish, talabalar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini o‘rganish, tashxislovchi metodlarni qo‘llash natijasida mu‘lum bo‘ldiki, pedagoglarda kreativlik quyidagi to‘rt bosqichda shakllanadi va rivojlanadi (3-jadval):

3-jadval. Kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari

Bosqichlar	Mazmuni
1-bosqich	Pedagogik, psixologiya, falsafa, estetika kabi fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o‘zlashtirish
2-bosqich	O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta‘lim jarayonida amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish
3-bosqich	Mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish
4-bosqich	Mavjud nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish

Talabalara kreativlik sifatlarining o‘zlashtirilishiga erishish yo‘lida pedagogik faoliyatni tashkil etishda yuqorida qayd etib o‘tilgan barcha bosqichlar birdek ahamiyatli sanaladi.

Patti Drapeauning yondashuviga ko‘ra talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi bosqich va g‘oyalar⁴¹ muhim ahamiyatga ega:

1-g‘oya. “To‘xta va boshla”

⁴¹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 203. - 28-41-бетлар.

Boshlang'ich savollar

Ravon fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda quyidagi vaziyatlar o'quvchilar e'tiborini jalb etishda yordam beradi:

- YUzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar.
- Muammoni echish yo'llari.
- Bir maqsadga xizmat qiluvchi strategiyalar.
- Ihtiro qilingan narsalar va ob'ektlardan boshqa maqsadlarda foydalanish.
- Ma'lum bir inson, ob'ekt yoki vaziyat haqida gap ketganda miyaga birinchi bo'lib keladigan fikr.
- Bir fikrni turlicha ifodalash.
- Ma'lum bir ishni turlicha amalga oshirish.
- YUzaga kelgan vaziyatning natijasini tahlil qilish.
- Ob'ekt va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar.

Moslavshuvchanlikni shakllantirishda "aqliy hujum" mashqlari katta samara beradi. Bunda talabalar nafaqat bir qator g'oyalar, balki turli-tuman g'oyalarni topishlari lozim. O'quvchilarda moslavshuvchan fikrlashni faollashtirishda quyidagi savollar qo'l keladi:

- ... vaziyat qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- ... amalga oshirishda qanday usullardan foydalanish mumkin?
- agar ... bo'lsa bu nimaga olib kelishi mumkin?
- sizningcha hayotda va ta'lim tizimida nimalarga o'zgartirishlar kiritish lozim?
- ... ta'sir etishi mumkin bo'lgan vaziyat, muammo, mavzular ro'yhatini tuzing.
- ... rivojlantirishning qanday usullari mavjud?

O'ziga xoslikni (originallik) shakllantirishda quyidagi savollardan foydalanish o'quvchilarda original javoblarni berishni faollashtiradi:

- ...ni qanday ishlab chiqish mumkin?
- ...ni rivojlantirish usullari ro'yhatini tuzing?
- ...ni ihtiro qiling?
- ...da original g'oya o'ylab toping?
- ...ni amalga oshirishda o'z yondashuvingizni ifodalang?

- ...ni yaratishda o‘z taklifingizni kiriting?

Ishlab chiqish mavzusida esa, quyidagi savollar talabalardan muvofiq javoblarni olishda qo‘l keladi:

- ...ga qo‘shing;
- ...ni quring;
- ...ni kengaytiring;
- ...ni oshiring;
- ...ni ishlab chiqing.

2-g‘oya. “To‘xta va boshla”

Turli kategoriyaga mansub savollar

Odatda o‘qituvchilar bir hil savolar berishga moyil bo‘ladi. Bu esa bir hillikni keltirib chiqaradi. Turli kategoriyaga mansub savollar esa o‘quvchilarda noodatiy javoblar berish, tahmin qilish, natijani oldindan ko‘ra bilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bunday savollar quyidagilarni tashkil etadi:

- *Agarda ... (bo‘l)sa nima bo‘lgan bo‘lar edi?* Masalan, agarda Amerika fuqarolar urushida SHimoliy shtatlar emas, balki Janubiy shtatlar g‘olib bo‘lganidan, bu qanday natijalarga olib kelgan bo‘lar edi? Agarda o‘lchov birliklari bo‘lmaganida, inson hayoti qanday kechgan bo‘lard? Agarda Tomas Edison chiroq lampasini ixtiro etmaganida bizning hayotimiz qanday ko‘rinishga ega bo‘lard?

- *Foydalanishning boshqa usullari.* Masalan, mobil telefonlardan yana qanday maqsadla va qanday vaziyatlarda foydalanish mumkin? Komyuterga ma‘lumot kiritishda qo‘llaniladigan disklardan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

- *Mahsulot (predmet, ob‘ekt, qonun va h.k.)ni yaxshilash, takomillashtirish.* Mustaqillik Deklaratsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish. Ob-havoni oldindan aytib beruvchi uskunani takomillashtirish.

- *Istiqbolga intilmoq.* Mashhur insonlarning turli muammola, ta‘lim tizimi, siyosiy rejimga nisbatan bo‘lishi mumkin bo‘lgan munosabati, fikrini yozing.

- *Sabab va oqibat.* Masalan, Fuqarolar urushining sabab va oqibatlarini yozing. Adabiy asar qahramoni hatti-harakatining sabab va oqibatlarini yozing. CHiqindini qayta ishlash sabab va oqibatlarini keltiring.

3-g'oya. "To'xta va boshla"

Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi

Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi yuzaga kelgan muammoga teskari tomondan qarash va uni boshqacha yondashuv bilan tahlil qilish demakdir. Bunday strategiya o'quvchilardan erkin fikrlash, maslashuvchanlikni talab etibgina qolmay, balki ularda turli original fikr va qarashlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Qarama-qarshi aqliy hujum strategiyasi g'oyalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Havo ifloslanishini oldin olish emas, balki havoni yanada ko'proq ifloslantirish.
- Urushlarga barham berish emas, balki yanada ko'proq urushlarni keltirib chiqarish.
- Ichimlik suvini tejash emas, balki behudaga sarflash.
- Boshqalarni hursand qilish o'rniga yoqimsiz vaziyatlarni keltirib chiqarish.
- Ijobiy fikrlashni emas, balki salbiy fikrlashni targ'ib etish.
- A'lochi emas, ikkichi bo'lish.

4-g'oya. "To'xta va boshla"

Ovoz/tovush effektlari

O'quvchilarga ravon fikrlash, moslashuvchanlik va originallikni o'rgatish jarayonida matn yoki adabiy asardan parchani ma'noli, intonatsiya va asarda yoritilgan ovoz/tovushlarni o'hshatib o'qish, ya'ni matni to'laligicha, unda ta'riflangan barcha hodisalarni to'la ifoda etish ko'nikmasini ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dars boshida o'quvchilardan video/audio yozmadagi tovush, ovozlarga e'tibor qaratishlarini so'rang; ular nimalarni anglatmoqda, asarga qanday tus, ma'no bermoqda. Tovushlar nimaga xizmat qiladi? Ular asar mazmun va ma'nosini chuqur anglab etishda o'quvchilarga yordam beradimi? O'quvchilarga ma'lum bir asar, audio yozma, matn, esse, hujjatli filmdagi

tovushlarni “aqliy hujum” strategiyasini qoʻllagan holda kategoriyalarga boʻlib, ularning asardagi vazifasini aniqlashni vazifa sifatida bering. Soʻng talabalar asar maʼnosi va mazmunini chuqur anglashda qanday kategoriyaga mansub tovushlar koʻproq rol oʻynaganin aytishlari lozim. Mazkur vazifani bajarish va bunday strategiyani qoʻllashda quyidagi savollar varaqasidan foydalanish mumkin (2.4-Jadval). Natija va javoblar qogʻozga tushirilgach oʻquvchilar berilgan asarni dars jarayonida oʻqib eshittirishlari lozim.

2.4-jadval. Asarni ovoz va tovushlar bilan oʻqish

Talabanning ismi va familiyasi:			
Asar/matn nomi:		Vazifani bajarish sanasi:	
Tovushlar roʻyxati:			
Tovush turi	Bob va betlarning tartib raqami	Tovushning soʻz bilan ifodasi	Tovush egasi kim
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			

5-gʻoya. “Toʻxta va boshla”

Kartochkalar bilan ishlash

Kartochkalar bilan ishlash maʼlum bir adabiy asarning mazmuni va maʼnosini chuqur anglab etishning boshqa usullaridan biridir. Kartochkalarning bir tomoniga asarda yoritilgan voqea yoki qahramon biror bir ramz yoki rasm koʻrinishida chiziladi. Kartochkalarning soni asarning hajmiga bogʻliq: ular 30dan 40gacha

bo'lishi mumkin. Ramz va rasmlarni chizishda o'quvchilarni jalb etish ularda abstrakt fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi, faqatgina o'qituvchi rasmlar ma'nosini aytmasligi lozim. O'quvchilar orasidan biri doskaga chiqib, kartochkalardan birini tanlab sinfxonada o'tirgan o'quvchilarga ko'rsatadi. O'quvchilar umumiy muhokama orqali kartochkadagi rasm va ramz qaysi qahramon yoki voqeani ifodalashini topishlari lozim.

6-g'oya. "To'xta va boshla"

O'zaro bog'lang va muammoning echimini toping

Mazkur strategiya talabalardan ma'lum bir muammo va ob'ekt/predmet o'rtasidagi bog'liqlikni topib, uning echimini izlashni talab etadi. Muammoning echimi berilgan ob'ekt/predmetga asoslangan bo'lishi shart. Bunday mashqlar o'quvchilarda erkin fikrlash va moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, mavzu bo'yicha berilgan muammo va ob'ekt/predmet o'rtasida iloji boricha ko'proq bog'liqlikni topishlari kerak. So'ng o'quvchilar tomonidan taqdim etilgan variantlar orasidan eng maqbul echim tanlab olinadi.

7-g'oya. "To'xta va boshla"

O'zgaruvchan matritsa

O'zgaruvchan matritsa grafik organayzer bo'lib, unda asosiy urg'u talabalarning erkin fikrlash va moslashuvchanlik ko'nikmalariga beriladi. Bunda talabalar mavjud nazariyalarni o'z tadqiqotlari va o'z yondashuvlari asosida o'zgartiradilar. Organayzer dars mazmuni va mavzudan kelib chiqib tuziladi. Masalan, o'quvchilar tabiiy fanlardan olgan bilimlari asosida bulutlar, ularning shakli nimalarga bog'liq ekanligi haqida organayzer yordamida ifoda etishlari mumkin.

2.5-jadval. O'zgaruvchan matritsa

<i>Nazariya</i>	<i>Kiritilgan o'zgartirishlar</i>			
	Katta	Kichik	Uzun	Qisqa
To'g'ri to'rtburchak o'lchamlariga o'zgartirish kiriting ...				
Adabiyot/Lingvistik a	Katta	Kichik	Jiddiy	Arzima s
Asar qahramoning fe'l-atvori va munosabatidagi o'zgarishlar ...				
Tabiiy fanlar	Katta	Kichik	YOrqi n	To'q
Tabiatda bulutlar rangi va shaklining o'zgarishi ...				
Ijtimoiy fanlar	Samarali	Samarasi z	Qisqa muddatli	Uzoq muddatli
Iqtisodiyot sohasida olib borilgan islohotlar ...				

8-g'oya. "To'xta va boshla"

Nima nimani anglatadi

O'quvchilar mavzu, matn mazmuni o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lgan biror bir ramz yoki rasmni chizish mashqi Vilgelm ramziy obraz konsepsiyasi deb nomlanadi (2002).

Masalan, o'rta ta'lim matktibining adabiyot darsida o'qituvchi o'quvchilardan yozuvchi S.E. Xintonning (1967) "Autsayderlar" (The Outsiders) nomli hikoyasi

mazmunin ifodalovchi simvol chizib berishni so‘raydi. O‘quvchilardan biri ramka ichiga rasm chizadi; rasm mozaika shaklida bo‘lib, har bir rasm bo‘lagining orqa tomoniga 1 yoki 2 raqami qo‘yilgan bo‘ladi. So‘ng o‘quvchilar rasm bo‘laklaridan birini tanlab, raqamlar asosida ikki guruh tuzadilar. Guruhlarga ajralgach, berilgan asar mazmun mohiyatini ifodalovchi ramziy rasmni muhokama qiladilar va uni mayda detallar bilan to‘ldiradilar. Har bir guruhning qo‘shimchalari turlicha bo‘lib, o‘quvchilar o‘z qarashlarini himoya qilishlari lozim.

9-g‘oya. “To‘xta va boshla”

YANM (YAngi va noodatiy mahsulot)

Mazkur strategiyadan talabalarni yangi mahsulot (narsa, konsepsiya, g‘oya, musiqa, she‘r, badiiy asar, global muammoning echimi va h.k.)ni yaratishga rag‘batlantirishda foydalanish katta samara beradi. Mazkur strategiyani uch o‘lchamli materiallarni qo‘llagan holda turli vaziyatlarga moslashtirish mumkin. Masalan, dars jarayonida noodatiy fikrlashni targ‘ib qilish orqali o‘rnatilgan qonunlarni o‘zgartirish yoki ularni yangilari bilan almashtirish, ya‘ni o‘quvchilarning kiritgan yangiliklari o‘zgalarning manfaatlari va haq-xuquqlariga zarar etkazmasligi lozim. O‘quvchilarning ixtiro va yangiliklari tajribada tadbiiq qilinsa qilinmasada, ular insoniyat uchun xizmat qilishi, ularning hayotini qulaylashtirishi zarur. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi o‘quvchilarda biror narsani o‘zgartirish orqali erkin va mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdir.

10-g‘oya. “To‘xta va boshla”

His eting

Mazkur strategiyani biror narsaga timsol berishda qo‘llash mumkin. Talabalar biror bir ob‘ekt yoki buyum o‘rniga o‘zlarini qo‘yib ko‘radilar. Bunda ularga quyidagi savollar yordam beradi:

- O‘zingizni qanday xis etyapsiz?
- Nima haqida o‘ylayapsiz?
- Hozir nima qilmoqchisiz?

Bu startegiyani boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitishda ham qo'llash mumkin, masalan, 2.6-jadval parallelogram va Luis Sakarning *Holes (O'ra)* (1998) mazmunini yoritishda qo'llash mumkin. Ko'p hollarda o'qituvchilar mazkur strategiyadan asarga qisqacha muzmun berish yoki asar qahramonining fel-atvorini ta'riflab berish yoki bir asar qahramoni bishqasi bilant taqqoslashda foydalanadilar. Bu usul asar yoki uning qahramonlari muhokama qilishda katta samara beradi.

2.6-jadval. Savollarga talabalar tomonidan berilgan javoblar

Ta'lim bosqichi	"His eting" strategiyasi		
	O'zingizni qanday his etyapsiz?	Nima haqida o'ylayapsiz?	Hozir nima qilmoqchisiz?
Boshlang'ich ta'lim matematikasi: parallelogram	Xuddi quti ichidagiday...	Qaddi-qomatni to'g'ri tutishning iloji yo'q. To'rt tomonga egaman. Kichkina shakllarga egaman	Insonlarga men bilan manipulyasiya qilishlariga qo'l qo'yib beraman. Men juda foydali buyumman
Boshlang'ich ta'lim adabiyoti: <i>Holes</i> (Sachar, 1998)	Vijdoni qiynalgan, qayg'urgan, g'amgin	Men o'ra qazishni istamayman. Men sharmanda bo'ldim va bunga o'nikdim. Men qari va ruhan ezilgan odamman	Taslim bo'laman

11-g'oya. "To'xta va boshla"

Yo'qotilgan va topib olingan

Talabalar "yo'qolgan" ma'lumotni topadilar. Hayolan yo'qotilgan ma'lumot mavjud ma'lumotga aniqlik kiritishga xizmat qiladi.

Masalan, o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari *Shaping earth's Surface: Water* (Kramer, 2005) kitobida yoritilgan "Venetsiyada toshqin" nomli maqolani o'qiydilar. O'qituvchi o'quvchilarga avval toshqin, uning oqibatlarini haqidagi yo'qolgan ma'lumot (matn, maqola)ni topishlari kerakligini aytadi. Bu qanday ma'lumot bo'lishi mumkin? O'quvchilar kitobdagi ma'lumot bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotni izlashga kirishadilar, ya'ni ularning o'zlari ma'lumotni olgan bilimlari asosida yozadilar. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, muhokama asosida ma'lumotlarni qog'ozga tushuradilar.

Bunday usulni adabiyot darslarida ham qo'llash mumkin. Masalan, biror bir badiiy asar: hikoya, masal yoki she'rning bir qismi olib tashlanadi, ya'ni ma'lumot yo'qoladi. O'quvchilar esa yo'qolgan ma'lumotni qayta tiklashlari lozim. Bunda o'quvchilar taklagan ma'lumot asarning mazmunini saqlab qolishi shart.

12-g'oya. "To'xta va boshla"

Nuqtai nazarni ifodalash

Mazkur strategiyani debat deb nomlash ham mumkin. Bunda talabalar boshqalarning fikrini inobatga olgan holda o'z qarashlari to'g'ri ekanligini isbotlashlari lozim. O'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga ajratib, ikki xil nuqtai nazarni o'rta qo'yishni tashlaydi. Har bir o'quvchi o'z fikrini himoya qilgan holda kichik bayon yozadi, so'ng kichik guruhdagi boshqa talaba bilan bo'lishadi. O'quvchilar har bir bayondan eng asosiy fikrlarni saralab oladilar va boshqa guruhdagi o'quvchilarga qarshi turishda ulardan foydalanadilar. Har bir fikr og'zaki bildirilib, bir o'quvchi bittadan gap o'qiydi.

O'quvchilar guruhlarda har bir fikr va qarashlarning ketma ketligini ham muhokama orqali kelishib oladilar. Bunday usul o'quvchilarda jamoa bo'lib, hamkorlikda ishlash ko'nikmasini tarbiyalaydi⁴².

4. Talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining mohiyati va bu jarayonning borishi. SHaxsda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish o'ziga xos murakkab jarayon sanaladi. SHu sababli mazkur jarayonni samarali tashkil etish uni metodik jihatdan to'g'ri, oqilona tashkil etishni taqozo qiladi. Amerikalik pedagog Patti Drapeauning bu boradagi fikrlari amaliy ahamiyatga ega. Muallifning talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish hamda rivojlantirishga oid yondashuvlarini ifodalovchi g'oyalari quyida keltirilgan jadvallarda o'z ifodasini topgan⁴³.

4.1-jadval. Obrazli qarashlarni rivojlantirish sharoitlari

Muammo	<p>Talabalarga beriladigan vazifa:</p> <ul style="list-style-type: none"> - individual yoki hamkorlikda fikrlash; - ifodalangan (ma'lum bo'lgan) g'oyalarni rivojlantirish; - real borliqqa doir muammolarni hal qilish; - ma'lumot va savollar chuqurlashtirilgan fikrlarni qayd qilish
Bilim	<p>Talabalarga beriladigan vazifa:</p> <ul style="list-style-type: none"> - reproduktiv bilimlarning mavjudligi; - dalillarga asoslangan ma'lumotlarni yodga olish; - ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bilimlarning mavjudligi; - aloqa va obrazlarni o'zaro muvofiqlashtirish orqali shakllangan

⁴² Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 21-44-бетлар.

⁴³ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 61-79-бетлар.

	tushunchalarning mavjudligi
Atrof-muhit	<p>Talabalarni tavakkal qilishga rag‘batlantirish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ularning inkor etishdan avvalgi qo‘rquvlarini kamaytirishga yordam berish; - ikki yoqlama qarorlarni qabul qilish yo‘llarini ko‘rsatish; - hech qanday cheklov va vaqtni inobatga olmagan holda qaytar aloqani ta‘minlashga o‘rgatish; - o‘zaro xayrixohlikni qaror toptirish
Istak (rag‘bat, motiv)	<p>Talabalarda o‘ziga xos istak (rag‘bat)ni yuzaga kelishi uchun imkon yaratish:</p> <ul style="list-style-type: none"> - yaratuvchanlik g‘oyalarini rag‘batlantirish; - orginal g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish; - ijobiy baholash

4.2-jadval. Tasavvurni shakllantirishga yo‘naltirilgan DSUA (SSSS)ga muvofiq mashqlar

Kalit so‘zlar va detallar	Erkin fikrlash	Moslashuvchanlik	O‘ziga xoslik	Yaratuvchanlik
O‘rta ta‘lim maktabi: o‘qituvchi ma‘lum bir asarning mazmunini yanada ochib	Talabalar kichik guruhlarda asar qahramoni – Kalebning o‘zini boqib olgan onasiga	Talabalar kichik guruhlarda Sara qanday ona ekanligini tahlil qiladi. Asardagi	Talabalar yakka tartibda Kalebning temperamenti, fe‘l-atvori, xatti-	Asarning asosiy qahramoni Saraning bolalik, o‘smirlik va hayotining

<p>berish uchun savol-javob strategiyasini qo‘llaydi. Javob berayotganda albatta asrdagi matnga iqtibos berishi kerak.</p> <p>Asar nomi: <i>Sarah, Plain and Tall</i> (MacLachlan, 1985)</p>	<p>bo‘gan munosabatini tahlil qiladi. Ular jadval tuzib, ikki xil munosabat, ya’ni salbiy (qo‘pol, qo‘rs) va ijobiy (mehribon, shirinso‘z) munosabatni misol qilgan holda matndan iqtibos keltiradi. So‘ng birgina rasm/obraz orqali Kalebni tasvirlab berishlari kerak</p>	<p>“yo‘qolgan” ma’lumot o‘rniga talabalar o‘z ma’lumotlarini qo‘shadi. Biroq, bu asarning umumiy mazmuniga ta’sir qilmasligi lozim. Talabalar tomonidan tiklangan “yo‘qolgan” ma’lumot voqealar rivojiga ta’sir etadimi?</p>	<p>harakatlarini izohlovchi jadval tuzishlari kerak. Bunda talabalar original, hech kimning hayoliga kelmagan g‘oyalarni taklif etishlari lozim</p>	<p>keyingi yillarida boshidan kechirgan qiyinchiliklarining sabablarini, omillari va sharoitlarini yozma ravishda, insho shaklida ta’riflab bering</p>
<p>O‘rta ta’lim maktabi: O‘qituvchi matn/ihtibos keltiradi va uning asosiy mazmuni yorituvchi</p>	<p>Talabalar nima uchun tuman mushuk kabi harakatlanishi sabablari o‘rganadi. Olingan natijalarga</p>	<p>Tasavvur qiling, Siz quyuuq tuman tushgan tongda bir o‘zingiz qayiqda ochiq dengizda qolib ketdingiz. Bu</p>	<p>Talabalar yana nimalar mushuk kabi harakatlanish i-ning sabablarini topishlari lozim. Bu</p>	<p>Talabalar bir zumga o‘zlarini tumanning o‘rniga qo‘yib ko‘radi. Ular nimalarni his</p>

<p>qator yoki soʻzlardan foydalanadi. Matn: “Fog” (Sandburg, 1916)</p>	<p>koʻra, talabalar oʻz hikoyasi yoki sheʼrini yozadi</p>	<p>vaziyatda Siz qanday yoʻl tutgan boʻlardingiz?</p>	<p>erda kreativlik va kreativ yondashuv talab qilinadi</p>	<p>etmoqda, qaerga intilmoqda va oldinda ularni nimalar kutayotganligini yoritib beradi. Ularning tasavvurlari mayda detallardan iborat boʻlishi kerak</p>
<p>Oʻrta taʼlim maktabi: Oʻqituvchi radio va radioaloqaga aloqador maʼlumotlarni beradi. Fan: Fizika</p>	<p>Talabalar radioaloqa yuqori chastotali elektr oʻzgaruvchan tokning atrofga elektromagnit toʻlqinlar asosida elektr maydonning hosil boʻlishi natijasida</p>	<p>Har bir guruhning sxemasi turlicha boʻlsa, talabalar nima uchun sxemalar turli koʻrinishga ega ekanligini izohlab berishlari kerak</p>	<p>Radiopriemnikdan yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?</p>	<p>Talabalar radiopriyomnikning tuzilishi, ishlash prinsipi va hozirgi kunda undan qay maqsadlarda foydalanish mumkinligini izohlab beruvchi</p>

	yuzaga kelishini tasvirlovchi sxemani shakllantiradi			insho yozadi. Zamonaviy hayotda radiopriemni k-lar dolzarb ahamiyatga egami?
Akademik litsey va kasb-hunar kolledjlari: O'qituvchi Kitsaning she'ridan bir parcha keltiradi va uning asosiy mazmuni yorituvchi qator yoki so'zlardan foydalanadi. Matn: "Go'zallik – haqiqat, haqiqatning go'zalligi – bu barcha narsaning asosi" / Siz bilishingiz	Talabalar keltirilgan matnda ayrim so'zlarni o'zgartiradi. Bu strategiya matnning umumiy mazmuniga ta'sir etadimi? Matnda qanday obraz tasvirlangan yoki matn mazmuni shunchaki abstrakt g'oyadan ibortami?	Qanday omil yoki sabablar Kitni mazkur she'rni yozishga majbur qilgan? Talabalar sabablar ro'yxatini tuzadi. So'ng talabalarga o'z-o'zini baholash imkoniyati beriladi. Bunday yondashuv ularda erkin fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi	She'rning mazmunini o'zgartirmagan holda talabalar she'rni boshqa vazn, uslub, shakl va zamonaviy tilda qayta yozadi. Ularning kiritgan original o'zgartirishlari o'qituvchi tomonidan baholanadi. O'zgartirishlar mazmunga qay darajada ta'sir	She'rda tasvirlangan go'zallik va haqiqat so'zlarini "Aqliy hujum" strategiyasini qo'llagan holda boshqa tushunchalar bilan bog'lang. YA'ni bu so'zlar nimanifodalaydi? Go'zallik va haqiqat haqida gap ketganda ko'z oldingizga nimalar

zarur bo'lganlarinigina bilasiz"			ko'rsatdi?	keladi? Mazkur vazifani plakat, PowerPoint taqdimoti, multimediya yoki audio tasma shaklida taqdim qilishlari mumkin
----------------------------------	--	--	------------	---

4.3-jadval. Kreativlik va tasavvur qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan darsni loyihalashtirish

Mazmun, mavzu, kichik mavzu, malaka va ko'nikmalar	Mavzular: • Amerika taraqqiyoti; • Amerika hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar; • Amerika mustamlakalarining tarixi	Kichik mavzular: • dinlar; • iqtisodiyot; • Amerika qit'asining aholisi; • iqlim	Ko'nikmalar: • Tanqidiy fikrlash: sabab va oqibat; • Kreativ fikrlash: tasavvur va erkinlik + originallik • Fikrlarni yozma bayon etish ko'nikmasi
Asosiy savol	Insoniyat tarixida yuz bergan voqealar qanday va qay darajada bugungi hayotimizga ta'sir etmoqda?		
Baholash	SHakllantiruvchi		

Ko'nikmalar darajasi	O'qish: bilim olishning turli darajasi YOzish: talabalarning ishlari	Qiziqishlar turli darajada	Bilish usullari turli darajada emas
Talabalar e'tiborini jalbetish	O'qituvchi talabalarga Ben Franklin, Eli Uvitney, Djozef Pristli va Anders Selsiuslarning suratlarini ko'rsatadi. Bu insonlar qanday umumiy xislatga ega? Talabalar mazkur shaxslar to'g'risida savollar beradi va ular 1770 yillarda qilgan ixtiro va kashfiyotlari haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ladi. M.: Ben Franklin bifokal ko'zoynak, Eli Uvitney paxtani ajratib beruvchi uskunani yaratgan va h.k.		
Darsni rejalashtirish	Talabalar Amerika koloniyalar haqida ma'lumotlarni topishda foydalangan veb-saytlar ro'yxatini tuzadi. Talabalar olgan ma'lumotlarni "Aqliy hujum" metodi yordamida toifalarga bo'lib chiqadi	O'qituvchi fikrlash jarayonini ahlil qiladi. O'qituvchi talabalarga original g'oyalarni taklif etishlarida masavvurlaridan foydalanish-arini aytadi	O'qituvchi mahsulot shaklini tahlil qiladi. O'qituvchi talabalarga "O'tmishga qaytib" xatini o'qib eshittiradi. O'tmishda yuz bergan voqealar to'g'risidagi ma'lumotlar dalillarga asoslangan bo'lib, kelajakda bugungi kun kishilarining ajdodlari, ularning o'zlari va kelajak avlodning hayotini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi
Dars jarayoni	Kirish: O'qituvchi talabalarga 1770, 2014 yillarda	Jarayon: O'qituvchilar "O'tmishga qaytib" nomli xatlarida asosiy g'oyalari va fikrlarini bayon etadi. O'qituvchi jarayonni kuzatib boradi va talabalar faoliyatini nazorat qiladi.	

	<p>bo‘lib o‘tgan va 2050 yilda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealarning taqqoslash orqali sabab va oqibatlari va ularning hayotimizga ta‘sirini izohlab berishlari kerak</p>	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Talabalar xatlarida asoslovchi ma‘lumot sifatida har qanday manbadan foydalanishi mumkin. Bunda turli yosh va bilim darajasiga ega talabalar uchun mo‘ljallangan materiallardan foydalanadi. ▪ Talabalar bir-birlariga yordam berishlari mumkin. ▪ Original fikrlash va g‘oyallarni original usulda taqdim etish ham baholanadi. ▪ O‘qituvchi bir guruhda turli bilim darajasiga ega talabalar borligi bois talablarni turlicha shakllantiradi. <p>O‘qituvchi talabalar bilan baholash metodini muhokama qiladi va vazifa (yakuniy natija, mahsulot)ni taqdim etish uchun ajratilgan vaqtni belgilaydi. Talabalar vazifani bajarib bo‘lgach, natijalarni boshqa talabalar bilan bo‘lishadi va muhokama qiladi. O‘qituvchi har bir talabaga bajargan ishi yuzasidan izoh va baho beradi</p>
Baholash	<p>O‘z-o‘zini baholashda talabalar umumiy baholash metodlaridan foydalanadi. O‘qituvchi yakuniy natijani baholab, bajarilgan ish yuzasidan sharh, izoh beradi</p>	

4.4-jadval. Tasavvur va kreativlikni shakllantirish varaqasi namunasi

Natija/ mahsulot unsuri	Qoniqarli	YAxshi	Juda yaxshi	A‘lo
Mustamlaka davri:	▪ Juda kam dalillar	▪ Bir qator dalillar	▪ Bir qancha dalillar	▪ Juda ko‘p dalillar keltirilgan;

<ul style="list-style-type: none"> ▪ Har kungi hayot; ▪ Aholining mamlakat siyosiy faoliyatidagi ishtiroki; ▪ Diniy erkinlik; ▪ Farovonlik imkoniyatlari 	<ul style="list-style-type: none"> keltirilgan; ▪ Tadqiqot olib borilmagan; ▪ Faqatgina manba'si noma'lum dalillar; ▪ Bir ikki detallar mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> keltirilgan; ▪ Kichik tadqiqot olib borilgan; ▪ Detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> keltirilgan; ▪ Tadqiqot olib borilgan; ▪ Mantiqiy, o'ylab topilgan va original detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Tadqiqot va chuqur izlanishlar olib borilgan; ▪ O'ziga xos, mantiqiy, o'ylab topilgan g'oyalar voqealar mazmunini kengaytirgan; ▪ Qo'shimcha qilingan detallar voqealarga hissiy tus bergan
<p>Hozirgi davr:</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Har kungi hayot; ▪ Diniy erkinlik; ▪ Farovonlik imkoniyatlari. 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Juda kam dalillar keltirilgan; ▪ Tadqiqot olib borilmagan; ▪ Faqatgina manba'si noma'lum dalillar; ▪ Bir ikki detallar mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Bir qator dalillar keltirilgan; ▪ Kichik tadqiqot olib borilgan; ▪ Detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Bir qancha dalillar keltirilgan; ▪ Tadqiqot olib borilgan 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Juda ko'p dalillar keltirilgan; ▪ Tadqiqot va chuqur izlanishlar olib borilgan; ▪ O'ziga xos, mantiqiy, o'ylab topilgan g'oyalar voqealar mazmunini kengaytirgan; ▪ Qo'shimcha qilingan detallar voqealarga hissiy tus bergan
<p>Kelajak:</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Har kungi 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Juda kam dalillar 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Bir qator dalillar 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Bir qancha dalillar 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Juda ko'p dalillar keltirilgan;

<p>hayot;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Aholining mamlakat siyosiy faoliyatidagi ishtiroki; ▪ Diniy erkinlik; ▪ Farovonlik imkoniyatlari 	<p>keltirilgan;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Tadqiqot olib borilmagan; ▪ Faqatgina manba'si noma'lum dalillar; Bir-ikki detallar mavjud 	<p>keltirilgan;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Kichik tadqiqot olib borilgan; ▪ Detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud 	<p>keltirilgan;</p> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Tadqiqot olib borilgan; ▪ Mantiqiy, o'ylab topilgan va original detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Tadqiqot, izlanish olib borilgan; ▪ O'ziga xos, mantiqiy, o'ylab topilgan g'oyalar voqealar mazmunini kengaytirgan; Qo'shimcha detallar voqealarga hissiy tus bergan
Taqqoslash	Detallarga boy bo'lmagan, mantiqsiz izoh	Aniq, yaqqol ifodalangan izoh	Deduktiv izohlar	O'ziga xos izohlar
“O'tmishga qaytib” xati	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Ifodalash toni ishonarsiz; ▪ Xatning shakli va uslubi qoniqarsiz; ▪ Fikrlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik yo'q; ▪ Orfografik 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Ba'zi bayon uslublari ishonarsiz; ▪ Xatning shakli va uslubi oddiy; ▪ Fikrlar o'zaro bog'liq; ▪ Orfografik va grammatik xatolar yo'q 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Ifoda bayoni ishonarliligi; ▪ Xatning original shakl va uslubga egaligi; ▪ Fikrlar o'rtasida aniq va o'zaro mantiqiy bog'lanish mavjud; ▪ Orfografik va 	<ul style="list-style-type: none"> ▪ Ifoda bayonining originalligi; ▪ Xatning original shakli va uslubga ega ekanligi; ▪ Fikrlar o'rtasida aniq va mantiqiy bog'liq mavjudligi; ▪ Orfografik va grammatik xatolarning yo'qligi

	va grammatik xatolar mavjud		grammatik xatolar yo‘q	
--	-----------------------------	--	------------------------	--

5.1-jadval. Innovatsion jarayon mohiyati

Bosqichlar	Namuna (misol)	Talabanning javoblari
<p>“Aqliy hujum”:</p> <ul style="list-style-type: none"> Ruhlantiruvchi manbalar Muammo/vaziyat asosida yuzaga kelgan ehtiyojlar 	<p>“<i>The Social Network</i>” (2010) nomli kinofilmi g‘oyalariga ko‘ra Facebook uchun g‘oyalar qaerda, nima asosida ko‘paygan?</p>	<p>Mark g‘oyasi asosida erkaklar uchun boshqa bir ijtimoiy OAV - Garvard FaceMash tashkil etilgan</p>
<p>Baholang:</p> <ul style="list-style-type: none"> G‘oyalarni Ruhlantiruvchi manbalarni Muammo/vaziyat asosida yuzaga kelgan ehtiyojlarni 	<p>1. Nima uchun Mark darhaqiqat Facebookka nisbatan ishlar yurib ketishini qayd etdi?</p> <p>2. Nima uchun u o‘z g‘oyalarni universitet jamoasidan tashqarida rivojlantirishga qaror qildi?</p>	<p>1. U qizlarga taassurot uyg‘otishni xohladi.</p> <p>2. Uni bunga “yuragining jarohatlanishi” majbur qildi. U ayol Facebook to‘g‘risida hech narsani bilmas edi, shunga ko‘ra, Mark Facebookda uning ishtirok ko‘proq bo‘lishini ta’minlashga qaror qildi</p>
<p>YAngilik kelib chiqishi uchun harakat (qadam)larni o‘zaro</p>	<p>Markning qanday harakatlari Facebookni g‘oyalardan yirik,</p>	<p>1. U Veb-sayt yaratdi.</p> <p>2. U Kaliforniyaga</p>

<p>muvoqilashiring</p>	<p>muvaffaqiyatli Veb-xizmat darajasiga o'sishini ta'minladi?</p>	<p>ko'chib o'tdi. 3. U Veb-saytni globalashuvini ta'minladi</p>
<p>G'oyalarni amalga oshirish vositalari va omillarini o'zaro muvoqilashiring</p> <ul style="list-style-type: none"> • Odamlar • Vaziyatlar • Omillar (resurslar) 	<p>Markning muvaffaqiyat qozonishiga kim imkon berdi?</p> <p>Facebookni rivojlantirishda Markka muammolarni hal etishga kim yordam berdi</p>	<p>Uning do'sti SHon Parker</p> <p>Garvardda OAVda ijtimoiy saytni yaratgan erkaklar</p>
<p>Fikr yuring:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Echim xususida • Samaraorlik darajasi xususida 	<p>Mark qanday qilib yangilikni yaratdi? U kiritgan innovatsiya to'laligicha ishlab chiqilganligini qachon bildi?</p>	<p>Facebook ommaviylashgandan so'ng ayol unga o'z e'tiborini qaratdi. Biroq, yangilik, darhaqiqat, chegara bilmaydi, shu sababli Facebook ham kun sayin kengayib, o'zgarib bormoqda</p>

**5.2-jadval. Boshqa fanlar va ta'limning boshqa sohalarida
innovatsion strategiyalardan foydalanish**

Adabiyot	Matematika	Ilm	Ijtimoiy fanlar
<ul style="list-style-type: none"> •Turmush tarzini o'zgartirishga yordam beradigan innovatsion vositani yarating • Ikki xil xarakterli kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni yaxshilovchi innovatsion vositani yarating • Tarixiy muammoni hal etishning innovatsion vositasini rivojlantiring • Bosh qahramonga uning xavf-xatarli vaziyatda o'zini qo'lga olishga imkon beradigan innovatsion vositani taklif qiling 	<ul style="list-style-type: none"> • Matematik dalillarni yodlab qolishga yordam beradigan innovatsion vositani aniqlang • O'lchash uchun innovatsion tizimni loyihalashtiring • Masshtab va boshqarishda tezkor qo'llash va parallel namoyish etish imkonini beradigan innovatsion vositani yarating • Joyning muhimligini namoyon etish imkonini beradigan innovatsion vositani aniqlang 	<ul style="list-style-type: none"> • Ifloslanishni kamaytiradigan innovatsion vositani taklif qiling • Kosmosni tadqiq etish ishlarini davom ettirishning innovatsion vositalarini rivojlantiring • Insonning 6 sezgilaridan birining yo'qotilishining echimini toping • Eng kamida ikki jihatni inobatga olgan holda ob'ektlar o'rtasida intervalni hosil qiluvchi innovatsiyani yarating 	<ul style="list-style-type: none"> • Talabalar uyushmasidagi muammolarni echish uchun innovatsiyani yarating • Etishmovchilik muammosiga barham berishda innovatsion choralar ro'yxatini tuzing • Milliy bayramni nishonlash uchun innovatsion vositani ishlab chiqing • Jamiyat uchun foydali bo'lgan yuklarni transportda tashishning innovatsion shaklini taklif eting

5.3-jadval. Kreativ va standartga asoslangan strategiyalarni ko'llash orqali innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirish

DSUA (CCSS) g'oyalarining ochqichi va dalillari	Kreativ fikrlash faoliyatini ijodiy rejalashtirish
<p>Javoblar uchun asos sifatida matnda yaqqol dalil qilib ko'rsatgan holda matn mohiyatini tushunganlikni namoyish etish uchun so'rang va savollarga javob qaytaring (RL.3.1)</p> <p>Matn: Sara, Oddiy va yuksak (MacLachlan, 1985)</p>	<p>Talabalar o'z javoblarida tezlikda ifodalaydigan va yangi g'oya mavjudligini namoyon qilgan holda yozma bayon qilish ko'nikmalarini quyidagicha rivojlantiradi:</p> <p><i>Saraning hayotiga oid "Oddiy va yuksak" asarida Vitting oddiy hayotda kechiradi. SHaxs xarakteri namoyon bo'lgan ushbu voqelikdagi ehtiyojni uni ifodalovchi kreativ, innovatsion vosita bilan o'zaro muvofiqlashtiring</i></p>
<p>Matnda namoyon bo'lgan hamda uning mohiyatidan kelib chiqadigan xulosani yaqqol ifodalaydigan fikrlarni aniq ko'rsating (RL.5.1)</p> <p>Matn: "Tuman" (Sandburg, 1916)</p>	<p>Tumanning holatini ifodalovchi yangi g'oyalarni bayon etgan holda diagramma yoki rasmni boyiting. SHE'rda tasvirlangan tuman holatini ifodalovchi badiiy elementlarni yangilik sifatida namoyish etgan talabalarning bayoni matnda qayd etiladi</p>
<p>Ixtiyoriy o'rinda qo'llanilgan yaxlit o'nlik sonlar mohiyatini anglash uchun joyning ahamiyatini ifodalang (5. NBT)</p>	<p>Talabalar joy va o'nlik sonlar ahamiyati o'rtasidagi aloqadorlikni boshqalarga anglatish uchun innovatsion dizaynni yaratadi</p>
<p>Sonlar yoki ular o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi tenglamani hosil qiling. Miqdorlar o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish uchun ikki yoki undan ortiq marta o'zgartirish mumkin</p>	<p>Talabalar o'zgaruvchanlikni ifodalovchi ikki yoki undan ko'p ob'ektlarni foydalangan holda sonlar o'rtasidagi munosabatlarni namoyon etuvchi innovatsion vositalarni o'ylab topishadi.</p>

<p>bo‘lgan tenglamani hosil qiling; og‘irliklarni muvofiqlashtiruvchi grafikni ko‘rsatish uchun tenglikni hosil qiling (HSA-CED.A.2)</p>	<p>Innovatsion vositalar o‘zida talabalarning qarashlarini beshta qadam (harakat)da ifodalovchi yangilik bo‘lishi kerak. Talabalar tenglikni og‘irlik ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtiruvchi grafik ko‘rinishda tasvirlaydi.</p>
<p>Aniqllovchini qo‘shgan holda matndan olingan va mavhum savollarni tug‘iradigan g‘oyalarni xuddi xulosalar kabi yaqqol ifodalangan matnning mohiyatini oshirish uchun kuchli va to‘liq matnli dalillarni keltiring (RL.12.1)</p> <p>Matn: “YUnon qabridagi qasida” (qabr tosh)ga bitilgan Kitsaning so‘zlari: “Go‘zallik – haqiqat, haqiqatning go‘zalligi – bu barcha narsaning asosi” / Siz bilishingiz zarur bo‘lganlarnigina bilasiz”</p>	<p>“YUnon qabridagi qasida” (qabr tosh)da keltirilgan fikrni novatorlik g‘oyasi sifatida e‘tirof etish mumkin. Talabalar Kitsaning o‘zlarini ilhomlantiruvchi qabr tosh so‘zlari sifatida tahlil qilish uchun ushbu jarayonni yangilik deya qabul qiladi</p>

Izoh: DSUA (CCSS; Eng yaxshi metodlarga ega gubernatorlar Assotsiatsiyasining Milliy Markazi, SHtat maktab inpektorlari Bosh kengashi, 2010a, 2010b)

5.4-jadval. Kreativlik va innovatsion yondashuvni shakllantirishga yo‘naltirilgan dars loyihasi

<p>Mazmun, mavzular, kichik mavzular, ko‘nikmalar, tushunchalar</p>	<p>Mavzular:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Quyoshning iqlimga ta’siri • Iqlimga ta’sir etuvchi omillar • Dunyoda yuz beruvchi iqlim 	<p>Kichik mavzular:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Issiqxona effekti • Kenglik • Okean oqimlarinigq tezligi • SHamollar 	<p>Ko‘nikmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Tanqidiy fikrlash: sabab va oqibat • Kreativ fikrlash: innovatsiya va erkin fikrlash • Bayon yozish/izoh
--	---	---	--

	hodisalari	• Tabiiy landshaft	berish
Asosiy savol	Insonlarning hatti-harakatlari iqlimga qanday ta'sir ko'rsatadi?		
Baholash	Umumiy		
Ko'nikmalar darajasi	O'qish: turli darajalar	Qiziqish darajasining yuqoriligi	Kognitiv uslubning qayd etilishi
Talabalar e'tiborini jalbetish	O'qituvchi AQSHda joylashgan 5 shaharning yillik o'rtacha havo harorati ro'yxatini keltiradi. Talabalar bular qaysi shaharlar ekanligini topishlari va nima uchun aynan shu shaharlar bo'lishi kerakligini izohlab berishlari lozim		
Darsni rejalashtirish	O'qituvchi talabalar bilan g'arbiy shamollarning ob-havoga ta'sirini muhokama qiladi. Talabalar og'zaki ravishda bir hil kenglikda joylashgan shaharlar va agarda Er sayyorasi 66% egilib o'z o'qi atrofida aylansa, qanday tabiiy hodisalar yuz berishi	Talabalar dars jarayonida kreativ va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini amalda qo'llaydilar. O'quvchilar innovatsion natijaga erishish uchun 5 bosqichdan o'tadi. Talabalar berilgan vazifalar innovatsion fikrlash va innovatsion echimlarni qo'llashni talab etishini anglaydi.	Talabalarning natijalari innovatsion jarayon natijasida kelib chiqadi. Natija/g'oya/fikrlar qog'ozga tushiriladi. O'qituvchi talabalar ko'rsatgan natijalarni tahlil qiladi va talabalarga baholash metodini tushuntirib beradi. YUzaga kelgan tushunmovchiliklar aniqlashtiriladi. Natijalar umumiy muhokama shaklida tahlil qilinishi mumkin

	mumkinligini izohlab beradi		
Dars jarayoni:	<p><i>Kirish:</i></p> <p>O‘qituvchi talabalarga issiqxona effektini yuzaga keltiruvchi omillarni tasavvur va o‘zlashtirilgan bilimlari yordamida aniqlashlari lozimligini aytadi. Kichik guruhlarga bo‘lingan talabalar ikkita veb saytda berilgan ma’lumotlardan foydalanishi mumkin. Ma’lumotlar “issiqxona effekti”ning oldini olish yoki uning ta’sirini kamaytirish chora-tadbirlaridan iborat bo‘lishi kerak</p>	<p><i>Jarayon:</i></p> <p>Kichik tadqiqot olib borgandan so‘ng talabalar aqliy hujum strategiyasini qo‘llagan holda nima uchun issiqxona effekti kundan kunga katta muammolarga sababchi bo‘lmoqdaligini aniqlashlari lozim. Talabalar bilimlariga tayangan holda o‘z g‘oyalari va fikrlarini bildiradilar. Talabalar muammoni hal etishda innovatsion echimlardan foydalanishning bosqichlarini yoritib berishlari kerak. Innovatsion echim kelgusida qanday natijalar ko‘rsatadi?</p>	
Baholash	O‘qituvchi innovatsion jarayonni baholaydi va har bir talabaning qilgan mehnatiga izoh beradi		

5.5-jadval. Kreativlik va inovatsion ko‘nikmalarni shakllantirish mezon va darajalarini aniqlash (namuna)

Natija/mahsulot elementi	Qoniqarli	Yaxshi	Juda yaxshi	A‘lo
“Aqliy hujum” Er-Quyosh	▪ Juda kam dalillar	▪ Bir qator dalillar	▪ Bir qancha dalillar	▪ Juda ko‘p dalillar

bog'liqligi Quyosh aylanishi Revolyusiya "Issiqxona effekti"	keltirilgan; ▪ Tadqiqot olib borilmagan; ▪ Faqatgina manba'si noma'lum dalillar; ▪ Bir ikki detallar mavjud	keltirilgan; ▪ Kichik tadqiqot olib borilgan; ▪ Detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud	keltirilgan; ▪ Tadqiqot olib borilgan; ▪ Mantiqiy, o'ylab topilgan va original detallar bilan boyitilgan dalillar mavjud	keltirilgan; ▪ Tadqiqot va chuqur izlanishlar olib borilgan; ▪ Original, mantiqiy, o'ylab topilgan g'oyalar voqealar mazmunini kengaytirgan; ▪ Qo'shimcha qilingan detallar voqealarga hissiy tus bergan
Guruhni baholash				
Sabab va oqibatlarni izohlang	Bir oqibat Bir echim	Ikkita oqibat Bir yoki ikkita echim	Uchta oqibat Har bir oqibat uchun ikkitadan echim	Uchtadan ko'proq oqibat Har bir oqibat uchun uchtadan echim
Individual baholash				
Qaror qabul qilish	Qaror qabul qilishda hech qanday	Qaror qabul qilishda ma'lum bir	Qaror qabul qilishda bir qator	Qaror qabul qilishda ko'plab

	mezonlardan foydalanilmagan	mezondan foydalanilgan	mezonlardan foydalanilgan	mezonlardan foydalanilgan
Reja tuzish	Berilgan vazifa bosqichma-bosqich bajarilmagan. Hech qanday rejaga amal qilinmagan	Berilgan vazifani bajarishda ba'zi bosqichlar ko'zdan chetda qolgan	Bosqichlar to'g'ri tuzilgan va realistik g'oyalar to'g'ri tanlangan	Bosqichlar to'g'ri tuzilgan va realistik g'oyalar to'g'ri tanlangan bo'lib, chuqur mazmunga ega.

5.6-jadval. Innovatsion qarashlarni rivojlantirish:

Muvaffaqiyat uchun turki


Yo'naltiruvchi "nur"	O'sha joyga qanay borish mumkin?
Innovatsion fikrni hosil qiling	Kontekst (tugal fikrni) shakllantiring Innovatsion muhitni hosil qiling Fosterning kreativ imkoniyati Talabalarni umumiy muvaffaqiyatga jalb etish Muvaffaqiyatga erishish choralarini ta'minlash
Innovatsiyalar mohiyatini tushunish	O'qituvchi va talabalar uchun mo'ljallangan umumiy ko'rsatmaga ega bo'lish G'oyalarni amalga oshirish Yangilikning muhim va o'rinli ekanligini tushunish Qaerga yangilikni kiritishni bilish
Innovatsiyalar asosida tuzilgan reja	Jarayonni modellashtiring

	Kim nimani qachon bajarishini aniqlang
YAngilik sodir bo'lishini ta'minlang	YAngi g'oyalarni toping Variantlarni tahlil qiling G'oyalarni tanlang G'oyalarni amaliyotga tadbiq eting G'oyalarni yo'naltiring (boshqaring) Natijalar aksiyasini tashkil eting Jarayonning umumiy tahlili

5.7-jadval. Tashvishli Nelli: Innovatsion fikrlash strategiyasi

Nellini tashvishlantiradigan holatlar	Bezovtalikni bartaraf etish omillari
Tahlika	Xavfsizlikni ta'minlash
To'yib ovqat emaslik	Ovqatning etarli bo'lishi
Bu – juda uzoq safar	Vaqtning (safarning uzoqligini) o'ylamaslik
Menga lider bo'lish yoqmaydi	Liderlik ko'nikmasiga ega bo'lish
Bu yilning noqulay vaqti	Yil fasllarini yoqtirish
Mening do'stlarim kelmadi	Do'stlik munosabatlarini yaxshilash
Men kuchugimni olib kelolmayman	Hayvonlarni yaxshi ko'rish
Men o'zimni qulay his etmayapman	Jismoniy qulaylikni bartaraf etish
Men soyabonli aravada va undan pastda tura olmayman	Jismoniy quvvatni oshirish
Men ba'zi odamlar bilan yashay olmayman	Ijtimoiylashuvga erishish

6.1-jadval. Muammoni kreativ echish jarayoni



6.2-jadval. Muammolarni o‘rganib chiqish

1-muammo	2-muammo	3-muammo
Zolushka ballga borishni xohlaydi	O‘gay ona Zolushkaga ballga borishi uchun raxsat bermadi	Zolushka kambag‘al
<i>Men nimani bilaman</i>	<i>Men nimani bilaman</i>	<i>Men nimani bilaman</i>
U shahzodani uchratishni xohlaydi	O‘gay ona xasis	Zolushka qishloqda tug‘ilgan

U bunday uchrashuvni yoqimli bo'lsa kerak, deb o'ylardi	O'gay ona Zolushkadan barcha narsani qizg'onadi	Otasining puli ko'p emas edi
U avvallari hech qachon ballda bo'lmagandi	O'gay ona o'z qizlarining shahzoda bilan uchrashib qolishlarini xohlardi	O'gay ona uning pullarini Zolushka bilan bo'lishishni xohlamasdi
<i>Men nimani bilib oldim</i>	<i>Men nimani bilib oldim</i>	<i>Men nimani bilib oldim</i>
Barcha ballar ham yoqimli yakun topmas ekan	Ertaklarda o'gay onalar hamisha norozi qilib tasvirlangan	Ertaklarda kambag'al kishilar baxtga erishgan qilib tasvirlanadi
Ball boy-badavlat oqsuyak kishilar bilan to'la bo'ladi	Ertaklarda o'gay onalar yomon kishi sifatida tasvirlanadi	Sehrgarlik va hiylanayranglardan foydalanish – muammoni boshqa tomonga burib yuboradi
Ayollar ballga boy-badavlat erkaklarni uchratish uchun borishgan		Ertaklarda kambag'al kishilar hamisha yaxshi kishi sifatida tasvirlangan
Ballar ma'lum vaqtlarda faqat bir marta tashkil etiladi		Ertaklarda kambag'al kishilar hamisha qurbon sifatida tasvirlangan
<p>Men nimani bilaman va men nimani bilib oldim kabi savollarga berilgan javoblarga tayangan holda quyidagi holat darhaqiqat katta muammo ekanligiga ishonch hosil qildim:</p> <p><i>Zolushka kambag'al.</i></p> <p><i>Mana shu muammoning o'zi boshqa muammolarni keltirib chiqaradi</i></p>		

6.3-jadval. Qarorlarning to'g'riligini baholash

Ko'rsatma: O'zingizning uchta eng yaxshi echimlaringizni o'z mezonlaringiz asosida 1 dan 10 bo'lgan ballar oralig'ida baholang.

Mezonlaringiz orasidan shtirixlagan holda eng muhimini ko'rsating.

Unda bandlar har bir ehtimoliy qarorlarni o'z ichiga olsin.

Eng katta son (miqdor) – eng yaxshi variant deb hisoblamang.

YOdingizda tuting, bitta mezonni eng muhim deya e'tirof etdingiz.

Siz qanday qarorni tanladingiz va nima uchun?

Belgilash mumkin bo'lgan mezonlar: qiymati, amaliyligi, real mavjud ekanligi, material (xom-ashyo, mehnat resurslari, davomiylik. O'zingiz tomondan belgilangan mezonlarni boyitishingiz mumkin

Echim	Mezonlar				Umumiy ko'rsatkich
	Uzoq	Davomli natijalarni tez hisoblash	Samarali	Qiziqarli	
Ko'p oltinga ega bo'lishi	8	10	7	3	28
Mehribon farishtaning barcha muammolarni hal qilishi	6	8	7	7	28
O'ziga o'zi ishona olish	5	3	9	10	27

Men o'ylaymanki, quyidagi echim eng samarali sanaladi:

Zolushka o'ziga o'zi ishona olishi kerak.

Modomiki: Mening eng muhim mezonim "echimning qiziqarli bo'lishi"dir, zero, bu ertak.

Men o'ylaymanki, Zolushka o'ziga o'zi ishona olishi kerak.

U o'ziga ish topa olishi uchun o'zining yangi ko'nikmalaridan foydalana oladi

6.4-jadval. Mummolarni echish jarayonini kreativ baholash

O'qituvchining bahosi				
Mezonlar	Qoniqarli	YAxshi	Juda yaxshi	A'lo
Echim batafsil bayon etilgan				
Echim batafsil o'ylangan				
Echim balki muammoni hal qilishga yordam beradi				
Echim jamoada muhokama qilingan va samarali				
O'qituvchining izohi:				
Talabanning o'ziga o'zi bergan bahosi				
Mezonlar	Qoniqarli	YAxshi	Juda yaxshi	A'lo
Echim batafsil bayon				

etilgan				
Echim batafsil o‘ylangan				
Echim balki muammoni hal qilishga yordam beradi				
Echim jamoada muhokama qilingan va samarali				

Echimni topish va loyiha ustida ishlashda menga nima ko‘proq yoqdi:

Nimani boshqacha talqin etishim mumkin edi:

“Ortiq darajada” nimani amalga oshirishim mumkin edi:

6.5-jadval. Standart g‘oyalari ko‘ra samarali ravishda hal etilgan kreativ muammo

DSUA (CCSS) g‘oyalarining ochqichi va dalillari	Kreativ muammolarni tezkor va samarali hal etish
Javoblar uchun asos sifatida matnda yaqqol dalil qilib ko‘rsatgan holda matn mohiyatini tushunganlikni namoyish etish uchun so‘rang va savollarga javob qaytaring (RL.3.1)	<i>Jeykobning nima uchun turmush o‘rtog‘i yo‘qligi muammosini hal qiling. Matnda berilgan bu haqidagi fikrlarning aynan keltirilishi (ihtibos)ni ta’minlang</i> Natija (mahsulot): Andoza asosida hal

<p>Matn: “Rangpar va baland bo‘yli Sara” (MacLachlan, 1985)</p>	<p>etilgan va muhokama qilingan muammo</p>
<p>Matnda namoyon bo‘lgan va uning mohiyatidan kelib chiqadigan xulosani yaqqol ifodalovchi fikrlarni aniq ko‘rsating (RL.5.1) Matn: “Tuman” she’ri (Sandburg, 1916)</p>	<p><i>Tumanning harakatlanish holatini ifodalagan</i> Natija (mahsulot): Andoza asosida hal etilgan va muhokama qilingan muammo</p>
<p>Ixtiyoriy o‘rinda qo‘llanilgan yaxlit o‘nlik sonlar mohiyatini anglash uchun joyning ahamiyatini ifodalang (5. NBT)</p>	<p><i>Suzi nima uchun joyning ahamiyatini anglashi kerakligini tushuna olmayapt. U o‘nlik sanoq sonlarini qanday qo‘llash kerakligini biladi. SHunay ekan, nima sababdan u o‘nlik sonlarni qo‘llashning joy uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini bilishi kerak?</i> <i>Bu kimning muammosi ekanligini va uni qanday hal qilish kerakligini aniqlang</i> Natija: Andoza asosida hal etilgan muammo</p>
<p>Sonlar yoki ular o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi tenglamani hosil qiling. Miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatish uchun ikki yoki undan ortiq marta o‘zgartirish mumkin bo‘lgan tenglamani hosil qiling; og‘irliklarni muvofiqlashtiruvchi grafikni ko‘rsatish uchun tenglikni hosil qiling (HSA-CED.A.2)</p>	<p><i>Janis ertalab allamahalgacha uxlashni yoqtiradi, uning ukasi esa ertalab barvaqt uyg‘onishni yoqtiradi. SHu sababli otanalari ularni barvaqt ham, unchalik kech ham bo‘lmagan vaqtda uyg‘otishadi. Bu holat muammolarni keltirib chiqaradi. Janisning otasi – matematik bo‘lganligi sababli u bu muammoni matematik nuqtai nazardan – tanaffuslar, kun tartibi va tenglamalar asosida echishga urinadi. Voh! Bu esa muammoni yanada chuqurlashtiradi.</i></p>

	Natija: Andoza asosida hal etilib, matematik grafik ko‘rinishda ifodalangan muammo
Aniqlovchini qo‘shgan holda matndan olingan va mavhum savollarni tug‘iradigan g‘oyalarni xuddi xulosalar kabi yaqqol ifodalovchi matn mohiyatini oshirish uchun kuchli va to‘liq dalillar keltiring (RL.12.1) Matn: “YUnon qabridagi qasida” (qabr tosh)ga bitilgan Kitsaning so‘zlari: “Go‘zallik – haqiqatda, haqiqatning go‘zalligida – barcha moddiylikning asosi mana shu” / Siz bilishingiz zarur bo‘lganlarnigina bilasiz”	<i>Odamlarga qabr toshida bitilgan fikrning mohiyatini anglash mumammosini hal qiling</i> Natija (mahsulot): Andoza asosida hal etilgan va muhokama qilingan muammo

Izoh: DSUA (CCSS; Eng yaxshi metodlarga ega gubernatorlar Assotsiatsiyasining Milliy Markazi, SHtat maktab inpektorlari Bosh kengashi, 2010a, 2010b)

8-MAVZU: (4SOAT MA’RUZA, 4SOAT AMALIY MASHG‘ULOT) OTM TALABALARIDA KREATIVLIK SIFATLARI VA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR


Reja:

- 1.Talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
- 2.Talabalarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalar.

Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalar.

YUqorida aytib o‘tilganidek, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Ta’lim jarayonini kuzatish, bevosita pedagogik jarayonni tashkil

etish jarayonida quyidagi metodlar⁴⁴ talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga pedagogiklarda kasbiy faoliyatni tashkil etishda namoyon bo‘luvchi ijodiy malakalarni mustahkamlanishiga xizmat qiladi (10-rasm):



10-расм. Шахс креативлигини ривожлантирувчи методлар

va amaliyoti” fanining negizidan joy olgan “Pedagogika tarixi”⁴⁵ bo‘limi bo‘yicha misollarni keltirish orqali ochib berilgan (keltirilgan misollar o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxs kreativligini rivojlantirishga yordam beradi:

1. Guruhlashtirish. Metodni qo‘llashda talabalar o‘quv materialini mazmunan yoki unda faol qo‘llanilayotgan tayanch tushunchalar asosida guruhlariga ajratib oladilar. Bu usul o‘quv materialining kichik bo‘lagida ilgari surilgan g‘oyalarni puxta o‘zlashtirib olish asosida navbatdagi bo‘lak matni bilan ishlashga asoslanadi. Guruhlashtirishda dastlabki bo‘lak o‘quv materiali mohiyatini chuqur anglamay turib, keyingi bo‘lak matni bilan ishlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Zaruriyat bo‘lsa, har bir bo‘lak materiali talabalar tomonidan qayta-qayta o‘rganiladi. Guruhlashtirish reja tuzish usuli uchun dastlabki asos bo‘la oladi.

⁴⁴ Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008. – 36-40-б.

⁴⁵ Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008. – 38-42-б.

Ta'lim jarayonida talabalarda guruhlashtirish metodini qo'llash ko'nikma va malakalarini hosil qilishga e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash uchun guruhlar shakllantirildi.

Misol uchun: Mahmud Qoshg'ariyning pedagogik qarashlarini o'rganishda yaxlit o'quv materialini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- а) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девони луғатит турк” асари ва унинг оммалашиб тарихи;
- б) асарда билим олишнинг ижтимоий аҳамияти ва билимли кишиларнинг шахси ҳақидаги қарашларнинг ёритилиши;
- в) инсонийлик фазилатлари тўғрисидаги фикрлар асар моҳиятини очиб берувчи жиҳатлардан бири эканлиги;
- г) меҳмон ва унинг ижтимоий мавқеини асарда акс эттирилиши;
- д) асарда мол-мулк ва унга муносабат масалаларининг баён этилиши;
- ж) халқ мақолларининг асар моҳиятини очиб беришдаги ўрни

2. Reja tuzish. Talabalarni o'zlashtirilayotgan mavzu bo'yicha reja tuzishga undash va dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish ular tomonidan o'quv materialini mohiyatini chuqur anglanishiga zamin yaratadi. Binobarin, bu holatda tinglanayotgan (o'qituvchi hikoyasi) yoki o'qilayotgan (darslik, qo'llanma, yordamchi adabiyotlar, Internet materiallar va boshqalar) o'quv materialini mantiqiy ravishda guruhlariga ajratish va har bir guruhga kiritilgan materialning tub mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi iboralarni ajratish talabadan barqaror diqqat, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etadi. Usulni qo'llashda shior bo'lgan talab – rejaning har bir bandi uchun belgilanayotgan ibora o'zida o'quv materialini muayyan bo'lagida ilgari surilayotgan fikr va qarashlar haqidagi ma'lumotni reja bilan tanishayotgan vaqtdayoq anglata olishi zarur.

Ta'lim jarayonida talabalarda reja tuzish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha rejalar tuzildi.

M.: Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning pedagogik qarashlarini o'rganish chog'ida talabalar tomonidan rejaning quyidagi tarzda tuzilishi maqsadga muvofiq:

- I. Муҳаммад Содик Қошғарий ва унинг “Одоб ас-солиҳин” асарининг умумий мазмуни.
 II. Рухсат сўраш ва саломлашиш қоидалари.
 III. Ухлаш шартлари ва кийиниш маданияти.
 IV. Суҳбатлашиш одоби. V. Эр-хотин муносабатлари мазмуни.
 VI. Бемор ҳолидан хабар олиш қоидалари.
 VII. Таъзия ва мусибат одоблари. VIII. Қабристонга бўлган муносабат.
 IX. Зиёфат ва меҳмондорчилик одоблари.
 X. Овқатланиш маданияти. XI. Сафар юриш одоби.
 XII. “Одоб ас-солиҳин” асарининг бугунги кундаги ижтимоий-маънавий аҳамияти

3. Tayanch tushunchalarni aniqlash. Ushbu metodni qo'llashda talabalar ularning e'tiborlariga havola etilayotgan o'quv materialida ilgari surilayotgan fikrlar mohiyatini anglatuvchi asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsata olishlari lozim.

Talabalarning tayanch tushunchalarni aniqlay olishlari ularni o'quv materiali mohiyatini etarli darajada anglay yoki o'zlashtira olganliklaridan dalolat beradi. Ta'lim jarayonida talabalarda tayanch tushunchalarni aniqlash ko'nikma va malakalarini hosil qilishga ham e'tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo'yicha tayanch tushunchalar ajratildi.

Misol uchun: sohibqiron Amir Temurning pedagogik qarashlarini o'rganish chog'ida talabalarning o'quv materiali bo'yicha quyidagi tayanch tushunchalarning aniqlay olishlari ularning bu borada muayyan ko'nikmalarga ega ekanliklaridan dalolat beradi:

Хўжаилғор қишлоғи (Кеш вилоятидаги), Кўрагон, “Темур тузуклари”,
 шариат, давлатни бошқариш, кенгаш ўтказиш, подшо ва вазирлар,
 ахлоқ-одоб, дўстлик, ширинсуханлик

4. Mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish. O'qituvchi talabalar e'tiborini o'rganilayotgan o'quv materialini mazmuniga ko'ra mustaqil kichik mavzularga ajratishga qaratadi. Bu usulni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalarda berilayotgan o'quv axborotlar orasidan eng muhim fikrlar yoki qarashlarni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Binobarin, bo'lajak o'qituvchilar

o‘quvchilarga eng muhim axborotlarni uzata olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari zarur. Bu holat o‘quvchilarni jismonan toliqishdan saqlaydi.

Ta’lim jarayonida talabalarda mavzu ichida kichik mavzularni hosil qilish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha mavzu ichida kichik mavzular hosil qilindi.

Misol uchun: Unsurul-Maoliy Kaykovusning pedagogik qarashlarini o‘rganish davrida talabalarni taxminan mavzu ichida quyidagi kichik mavzularni hosil qilishga undash maqsadga muvofiqdir:

- I. Unsurul-Maoliy Kaykovus va “Қобуснома” асарининг педагогик фикрлар тараққиёти тарихидаги ўрни.
- II. “Қобуснома” асарида жувонмардлик рухлари ва одоби тўғрисидаги қарашларнинг ёритилиши.
- III. “Қобуснома” асарида билим олишга бўлган муносабатнинг ифодаланиши.
- IV. Асарида турли касб эгалари ижтимоий мавқеининг баҳоланиши.
- V. “Қобуснома” асарида ахлоқ тарбияси асосларининг баён этилиши.
- VI. “Қобуснома” асарида ота-онанинг оиладаги ўрни масалаларининг таҳлил этилиши.
- VII. “Қобуснома” асарида дўст тутиш одобининг ёритилиши

4. **Turkumlashtirish.** Pedagogik bilimlarni muayyan yo‘nalishlar, jihatlar yoki muhim belgilariga muvofiq ajratish ularning talabalar tomonidan ma’lum tizim asosida o‘zlashtirilishiga imkon beradi.

Ta’lim jarayonida talabalarda pedagogik bilimlarni turkumlashtirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha pedagogik bilimlar turkumlashtirildi.

M: turkumlashtirish usulidan foydalanish “Pedagogika tarixi”dan Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari o‘rganishda quyidagi andozaga muvofiq qo‘llanilishi mumkin (4-jadval):

4-jadval. Alisher Navoiyning insoniy sifatlarhaqidagi qarashlari

Insoniy sifatlar haqidagi qarashlar		
Ma’naviy-	axloqiy	Salbiy
		O‘qituvchi va

sifatlar	Sifatlar	uning odobi

6. Qayta bayon etish. O‘rganilgan mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch so‘zlar yordamida o‘quv materialini mazmunini o‘z fikrlari bilan ifodalash. Misol uchun YAn Amos Komenskiyning pedagogik qarashlarini o‘rganish jarayonida quyidagi tayanch tushunchalar talabalar tomonidan o‘rganilgan mavzu mazmunini qayta bayon etilishiga imkon beradi:

1952 йил, “Угорский Брод” (Моравия), “Чех қардошлари”, “Тиллар ва ҳамма фанларнинг очик эшиги” (1631 йил), “Буюк дидактика” (1632 йил), “Пан софия” идеяси, “Ҳислар воситаси билан идрок қилинадиган нарсаларнинг суратлари” (1648 йил), дунёқараш, тарбия йўналишлари, ёш даврлари, дидактик тамойиллар, синф-дарс тизими, ахлоқий тарбия, ўқитувчи шахси

7. Sxemalashtirish. Talabalar o‘rganilgan o‘quv materialini bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvirlar asosida namoyish etadilar.

Ta’lim jarayonida talabalarda sxemalashtirish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga ham e’tibor qaratildi va ular bilan hamkorlikda ishlash asosida bir qator mavzular bo‘yicha sxemalar yaratildi. SHuningdek, rasm, shakl va tasvirlarning yaratirilishiga ham erishildi.

M: Abu Nasr Forobiyning pedagogik qarashlarini o‘rganish chog‘ida talabalarning quyidagi tarzda sxemalarning ishlay olishlari kutilgan maqsadga erishilganlikni ifodalaydi:



11-расм. Абу Наср Форобийнинг педагогик қарашлари

8. Mavjud tushunchalarni boyitish. Mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan mavjud tushunchalarga mazmunan yaqin bo'lgan pedagogik yoki psixologik terminlarni qo'shish. M: "So'fiylik ta'limotida etuk inson muammosining talqin etilishi" mavzusini o'rganish chog'ida o'quv materialining mohiyatini quyidagi tushunchalar yordamida etarli darajada anglash mumkin:

Суннийлик, шиалик, тавҳид, сўфийлик, маънавий комиллик,
Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд, Нақшбандия тариқати

Ushbu tushunchalar mohiyatini o'rganish asosida talabalar qo'shimcha ravishda komil inson, komillikning ijtimoiy ahamiyati, ijtimoiy omillarning shaxs kamolotiga ta'siri kabi tushuncha va iboralarni ham o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

9. Pedagogik vaziyatlarni hal qilish. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkur va kreativlik sifatlarini shakllantirishda ularning turli pedagogik vaziyatlar echimlarini topish layoqatiga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagicha ish ko'rildi:

- 1) талабалар турли мазмундаги педагогик вазиятлар билан таништирилди;
- 2) уларнинг тақдим этилган педагогик вазият юзасидан мушоҳада юритишларига имкон берилди;
- 3) муайян талабанинг педагогик вазиятларнинг ижобий ечимларини топиш борасидаги шахсий қарашлари тингланиб, аудиторияда педагогик вазият ечимининг қай даражада тўғри эканлигига баҳо берилди

Talabalarning pedagogik vaziyatlar echimini topishlarida L.V.Zanina hamda N.P.Menshikova⁴⁶larning g'oyalariga tayanishlari tavsiya etildi. YA'ni, ular bu jarayonda:

- 1) дастлаб педагогик вазият ечимини топишга ёрдам берувчи бир неча фаразларни илгари суришлари;
- 2) ҳаракат йўналишлари, фаолият турлари, шунингдек, педагогик таъсир ёки тарбия методларини белгилашлари;
- 3) уларнинг натижавийлигини тахмин қилишлари;
- 4) ечимни топишга йўналтирилган фаолиятнинг бир неча вариантларини ишлаб чиқишлари;
- 5) самарали усулларни танлашлари;
- 6) мақбул ташкилий шаклларни белгилашлари мумкинлиги таъкидлаб ўтилди

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda bir qator interfaol metodlardan foydalanish bu borada samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Quyidagi interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra shaxsda vaziyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, muammoni tahlil qilish, sintezlash, tizimning tarkibiy elementlari

⁴⁶ Занина Л.В., Меньшикова Н.Л. Основы педагогического мастерства /Учеб. пособие для студ. пед. вузов. – Ростов-на-Дону, Феникс, 2003. – 288 с.

o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikni topish, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qiladi. Quyida ulardan ayrimlari namuna sifatida keltiriladi:

1. “AJIL” (“Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar”) strategiyasi talabalarda ijodiy faoliyat malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. “Ajil” texnologiyasini o'quv jarayonida “Jamoaviy ijodiy ishni tashkil etish” mavzusidagi suhbat yoki “Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman” nomli blits-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Strategiyani qo'llashda quyidagi taxlitda ish ko'riladi:



2. “Aqliy hujum” strategiyasi talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o'ziga xos) echimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulotda strategiyani qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) талабаларни муammo доирасида кенг фикр юритишга ундаш, улар томонидан мантикий фикрларнинг билдирилишига эришиш;
- 2) талабаларнинг ҳар бир фикри рағбатлантирилиб борилади, фикрлар орасидан самаралиси танлаб олинади; фикрларнинг рағбатлантирилиши навбатдаги янги фикрларнинг туғилишига олиб келади;
- 3) ҳар бир талаба ўзининг шахсий фикрларига асосланиши ва уларни ўзгартириши мумкин; фикрларни умумлаштириш, туркумлаштириш ёки уларни ўзгартириш илмий асосланган фикрларнинг шаклланишига замин ҳозирлайди

Strategiya qo'llanilganda talabalarning faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir).

3. **“Baliq skeleti” grafik organayzeri (GO)** talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) ўқитувчи талабаларни ГОни қўллаш шарти билан таништиради;
- 2) талабалар кичик гуруҳларга бириктирилади;
- 3) гуруҳлар топшириқларни бажаради;
- 4) гуруҳлар ўз ечимларини жамоага тақдим этади;
- 5) жамоа гуруҳларнинг ечимлари юзасидан муҳокама уюштиради

4. **“Bumerang” strategiyasi.** Texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so'zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko'p bilimga ega bo'lish, o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o'qituvchiga tarqatma materiallarning o'quvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o'zlashtirilishini, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning

munozaraga aylanishini ta'minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin.

5. “Venn diagrammasi” GO talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish, tushunchalarni sintezlash ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish samaralidir.

6. “Zinama-zina” strategiyasi talabalarda o'rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. SHuningdek, u talabalarda mavzuni o'rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o'zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko'rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

7. “Insert” GO yangi mavzu bo'yicha talabalarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

8. “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”) metodi (ingl. “case” – metod, “sudy” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.


9. “Kichik esse” strategiyasi kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U talabalar tomonidan o'rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo'yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik essenini yaratishda talabalar

mavzu g‘oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo‘ladi.

10. “Klaster” GO (“Klaster” – g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) puxta o‘yangan strategiya bo‘lib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

11. “Konseptual jadval” GO talabalarni o‘rganilayotgan mavzu (masala, muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda talabalarining mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma‘lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

12. “Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o‘qituvchi mavzuni yorituvchi ma‘lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tartibda bayon etadi. Talabalarining vazifasi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri ifodalangan ma‘lumotlarni to‘g‘ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.



6. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish. Ta'lim jarayonida tobora faol qo'llanilayotgan zamonaviy vositalardan biri – axborot texnologiyalari sanaladi. Ularning texnik, texnologik imkoniyatlari ta'lim jarayonini qiziqarli, jonli, samarali tashkil etishda pedagoglar uchun nihoyatda qo'l keladi. Bugungi kunda ta'limda radio eshittirish, teleko'rsatuvlar, filmlarni namoyish imkoniyatlari mavjud. Ulardan foydalanish o'qitish sifatini yaxshilaydi, shaxsning kreativ sifatlari, kasbiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari orasida kompyuterlarning alohida o'rni bor. Zamonaviy o'qitishda kompyuter texnologiyasi pedagoglar uchun eng yaqin "yordamchi" bo'lmoqda. Ta'lim jarayonida ulardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

- 1) реал ишлаб чиқариш фаолиятига мос келувчи ҳажм, психологик ва мантикий-таркибий тузилма моҳиятга кўра ўқув ахборотини тўла тақдим этилишини таъминлайди; 2) ўқув ахборотларининг тезкор янгиланишини инобатга олган ҳолда уларни тақдим этиш тезлигини зарур даражада бўлишига кўмаклашади; 3) ўқувчиларга бажарилаётган иш-ҳаракат ёки фаолият сифати ҳақидаги маълумотни беришда тезкорликни таъминлайди;
- 4) ишлаб чиқариш устасига ўқувчи фаолиятини назорат қилиш ва унга зарур ўринларда маслаҳат, йўналиш ҳамда кўрсатмалар бериш имкониятини яратади

Axborot texnologiyalarining moslashuvchanlik va interaktivlik xususiyatiga egaligi talabalarning o'zlashtirish darajasiga bog'liq holda o'tilgan mavzuni qaytarish, mavzu ustida ishlashlarni individual tempda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya'ni, elektron darslik matni bilan talaba o'rtasida muloqot o'rnatib, so'rovnoma, verbal, noverbal, ovoz va b. yordamida o'qituvchi mavjudligini his etish imkoniyatini yaratadi. Bu turdagi texnologiyalar yordamida multimedia mahsulotlari, elektron albom, elektron atlas, raqamli video lavhalar, virtual stendlar, audio va video vizual materiallar, shuningdek, prezentatsiyalar tayyorlash imkoniyati mavjudki, ular ta'lim jarayonining qiziqarli tashkil etilishini ta'minlaydi. Qolaversa, ular vositasida talabalar, pedagoglarning hissiy-estetik tuyg'ulari shakllanadi. Bu esa shaxsning kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi.

Мультимедиа – бир неча кўринишдаги: электрон шаклдаги график, матнли, рақамли, овозли, мусикали, видео, аудио, фотография, ҳаракатланувчи образлар (анимациялар) ва бошқа ахборотларни узатувчи компьютер технологиялари учун тааллуқли умумий тушунча

Электрон альбом – расмлар, суратлар, чизмалар ва бошқар график тасвирлар ҳамда уларнинг изоҳларини ўзида акс эттирувчи электрон шаклдаги тўплам

Электрон атлас (юн. “Atlas” – биринчи бўлиб, осмон глобусини яратган афсонавий Ливия подшосининг номидан) – муайян ўқув модули (ўқув фани) бўйича тавсия этилган ва ўзига хос график тасвирларга эга бўлиб, ўқув мақсадларига кўра фойдаланилади

Рақамли видео лавҳалар – ўқув модули (ўқув фани) бўйича билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштиришга ёрдам берадиган маълумотларни ўз ичига олган 3D ўлчамдаги замонавий ўқув манбаи

Виртуал стендлар – 1) реал объект, предмет, жараён, воқеа ва ҳодисаларнинг электрон модели; 2) матн, расм, схема, жадвал, диаграмма ва б. шаклдаги ахборот, жараён ҳамда виртуал муҳитларни яратиш, сақлаш, ишлов бериш, рақамлаштириш ва тизимли равишда амалга оширишни ифодаловчи компьютерли восита

Имитацион виртуал тренажёр (ингл. “train” – “тарбияламоқ”, ўқитмоқ”, “машқ қилдирмоқ”) – электрон шаклдаги ўқув-машқлантирувчи қурилма бўлиб, у ёрдамида меҳнат фаолиятининг реал шароити оделлаштирилади, муайян фаолият (м: машина (механизм)ни бошқариш, мураккаб станокда иш бажариш ёки ҳарбий техника сирларини ўзлаштириш) кўникмалари шакллантирилади, кўникмалар малакаларга айлантирилади ҳамда ҳосил бўлган малакалар такомиллаштирилади

Ахборот texnologiyalarining imkoniyati va pedagoglarning kasbiy faoliyatlariga ijodiy yondashishlari natijasida yaratilgan multimedia mahsulotlari, audio va video materiallar, xususan, video animatsiyalar ham ta'lim jarayonida faol qo'llaniladi.

Мультимедиа маҳсулотлари – ўзида АКТнинг дастурий ва техник имкониятлари асосида аудио, видео, матн, графика ва анимация эффектлари асосида ўқув материални тингловчиларга етказиб берилишини мужассамлаштирган ишланма (маҳсулот)лар

Аудио ва видео визуал материаллар – ўқув ахборотларини компьютер технологияси ёрдамида овозли ва визуал шаклда қабул қилинишини таъминловчи материаллар

Видео анимациялар – чизилган (расми) ёки кичик ҳажмли образ (ҳажмий, кўғирчоқ ёки ўйинчоқли объект)ларни ҳаракатга келтириш ва бу ҳаракатнинг ҳар бир босқичини кетма-кет суратга олинганлигини ифодаловчи электрон тасвирлар

Презентация (такдимот; лот. “praesentatio” – такдим этиш) – муайян мавзу ёки муаммо бўйича ўқув (илмий, амалий) характердаги материалларнинг иш қоғозлари (оддий ёки ватман қоғозлар) ҳамда ахборот-коммуникацион воситалар (компьютер, проектор, процесор ва б. қурилмалар) ёрдамида такдим этилиши

Mohiyatiga ko‘ra axborot texnologiyalari yordamida tayyorlangan va ta’limiy maqsadlarda foydalaniladigan ijod mahsulotlar talabning bilish faoliyatini faollashtirishi, uning o‘quv materialni o‘zlashtirish maqsadlari bilan qurollantirish, o‘quv materialni tushunishi va o‘zlashtirishini kuchaytirish, fanlararo aloqani chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun elektron shakldagi ijod mahsulotlari turli jarayon va hodisalarni tushunishni osonlashtirishga, tajribalarni bajarish usullari bilan tanishtirishga, laboratoriya jihozlarida ishlashni engillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

7. Talabalarning kreativ fikrlash ko‘nikmalariga egaliklarini baholash. Kreativlik o‘qituvchining yondashuvi o‘quvchilarning qiziqishlari va ko‘rsatgan natijalari asosida baholanishi mumkin. Agar o‘quvchilarga biror bir adabiy asar yoki hikoyaning oxirini o‘zgartirish vazifasi berilgan bo‘lsa, ular asar yoki hikoyaning mazmunini saqlab qolgan holda, qancha va qanday (original) g‘oya (variant)lar o‘ylab topganiga qarab baholanadilar.

2.3-jadval kreativ ravonlikni baholash uchun ishlab chiqilgan sxemadir. O‘quvchilarga berilgan vazifa berilgan, asosiy mazmunini saqlab qolgan holda, asar yakunini o‘zgartirishdan iborat edi. Vazifa iki qismdan iborat bo‘lib, birinchisi, “aqliy hujum” strategiyasi yordamida asar yakuni, ya’ni turli variantlarni o‘ylab topish,

ikkinchisi esa, asarni kichik esse shaklida o‘qib eshittirish. Mazvur vazifada asosiy urg‘u ravonlikka berilsada, moslashuvchanlik ko‘nikmasi elementlari (yangi g‘oyalar o‘ylab topish), o‘ziga xoslik ko‘nikmasining (original g‘oyalarni berish) elementlari ham mavjud.

2.3-jadval. Kreativ va erkin fikrlash

ko‘nikmasiga egalikni baholash varaqasi

Kreativ ravonlikni ko‘nikmasini baholash formasi				
Asarning asosiy mazmunini saqlab qolgan holda, uning yakunini o‘zgartirib, bir necha variantlar keltiring				
Ko‘nikma	1	2	3	4
Mazmun	Asar yoki matnni anrglamagan	Asarning asosiy qismlarini aytib bera oladi	Matn komponentlari ni anglagan va mayda detallargacha aytib bera oladi	Matn tuzilishi, mazmuni, intonatsiya va undagi detallarni to‘liq anglagan
Ravonlik	Faqatgina 1 yoki 2 g‘oya bilan cheklangan	Faqatgina 3 yoki 4 g‘oya bilan cheklangan	5 yoki 6 g‘oya bilan cheklangan	6 va undar ko‘p g‘oyalar keltirgan
Original matn va yangi g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni toping	G‘oyalarning ko‘pi mantiqdan holi bo‘lib, matn mazmunin	G‘oyalarning ba‘zisi mantiqan bog‘liq bo‘lib, matnning umumiy ma’nosini	G‘oyalar bog‘liq bo‘lib, matnning umumiy ma’nosini chiqarib beradi	G‘oyalarning barchasi mantiqan bog‘liq bo‘lib, matnning umumiy ma’nosini

	i chiqarib bermagan	chiqarib beradi		chiqarib beradi
Izohli insho (esse) (natija)	Insho orfografik va grammatik hatolar ko'p bo'lib, fikrlar tartibsiz yozilgan	Insho yaxshi tashkillashtirilgan bo'lib, faqatgina bir-ikki grammatik va orfografik xatolari mavjud	Insho grammatik va orfografik xatolarsiz yaxshi tashkillashtirilgan	Insho grammatik va orfografik xatolarsiz yaxshi tashkillashtirilgan bo'lib, asl matning umumiy ma'nosi va mazmunini yoritib bergan

“Talabalarning kreativlik ko‘nikmalariga egaliklarini baholashda muhim omillarni inobatga olish. Baholash kreativlikni o‘ldiradimi? «Bu vaziyatga bog‘liq» (Beghetto, 2005, 255 bet). Baholash kreativlikni sinfda o‘quvchilar bajarishi shart bo‘lgan majburiy kriteriyaga aylantirishi mumkin (Kaufman, Plucker, & Baer, 2008). Bu turdagi baholash nafaqat o‘quvchilarning erishgan yutuqlari, balki ularning kreativ fikrlash tarzi va yangiliklarga intilishini yanada chuqurroq tushunishda yordam beradi. Ta‘lim jarayonida o‘quv rejasiga kreativ o‘yinlarni kiritishning birgina o‘zi etarli emas. Baholash o‘quvchilarda metakognitiv, ya‘ni fikrlash to‘g‘risida fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun kerak. Agarda o‘quvchilar fikrlash, nima uchun aynan shu echimni tanlaganliklari va ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topishda qanday strategiyadan foydalanganliklarini sharhlay olsalar, demak bu metakognitiv fikrlash deb ataladi. Talabalar kreativ fikrlash va innovatsion usullardan muammolarning echimini topishda foydalansalar, demak ular metakognitiv fikrlash strategiyasini amalda qo‘llagan bo‘ladilar.

O‘quvchining ishlarini izohlash. SHarh berishning asosiy maqsadi talabalarni ruhlantirish, kirishimlilikini oshirish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi to‘siqlarni olib tashlash va yutuqlarga erishishda ko‘maklashishdan iborat. SHarh shakllantiruvchi, ob‘ektiv va spetsifik bo‘lsagina samara beradi. Villiamning (2011) fikriga ko‘ra sharh o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni oshiradi, boshqa bir olimning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra “sharh” o‘quvchilar o‘qish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Hattie, 2009, 2012, 18-bet). Biroq, shuni aytib o‘tish kerakki ba’zan o‘quvchining bajargan ishiga qo‘yilgan baho o‘qituvchi tomonidan berilgan sharhni inkor etishi mumkin. Olib borilgan tadqiqotlar (Butler, 1988, Wiliam, 2011) natijasiga ko‘ra, bir guruhdagi talabalarga bajargan ishlari yuzasidan berilgan sharh (bahosiz) natijasida keyinroq ular o‘z bilim darajalarini oshirganlar va vazifalarni yanada yaxshiroq bajarganlar, ammo, ikkinchi guruhdagi talabalarning bajargan vazifalariga berilgan baho va sharh natijasida, talabalar faqat berilgan baho bilan qiziqqanlar, sharh esa e’tibordan chetda qolgan. Asosiy e’tibor bahoga berilgani sababli sharh keraksiz narsa bo‘lib qolmoqda.

SHarhni qachon va qaysi paytda berishni bilish ham muhimdir. “Agarda sharh tez berilgan bo‘lsa, o‘quvchilar unga o‘rganib qoladilar va muammoni mustaqil hal qilish o‘rniga hamisha o‘qituvchining sharhini kutadi” (Bangert-Drowns, Kulik, Kulik, Morgan, 1991, Goodwin, Miller, 2012, 83-bet). Talabalarga yangi materiallarni o‘zlashtirish jarayonida berilgan sharh ularni noto‘g‘ri qaror qabul qilish, ma’lumotlarni noto‘g‘ri tushunish va noto‘g‘ri fikrga kilishini oldini oladi. O‘quv jarayonida talabalar o‘zlashtirgan materiallari va olgan bilimlarini tajribada tadbiiq etayotganlarida sharh berishdan oldin ularga o‘z ishlariga o‘zlari baho berishlari va kerak bo‘lsa yo‘l qo‘ygan hatolarini tuzatishga imkon berish zarur. O‘z-o‘ziga baho berish (aynan hatolari ustida ishlash) strategiyasi talabalarda metakognitiv fikrlash doirasini kengaytirib, fikrlash to‘g‘risida fikrlashga ham da’vat etadi. O‘z-o‘ziga baho berish (hatolari ustida ishlash)da talabalar nafaqat ko‘nikma, balki vaqtni ham inobatga olishilari zarur. Bunday strategiyani qo‘llashda o‘qituvchining asosiy vazifasi talabalarni yo‘naltiradigan savollar berishdan iborat, masalan, “Qanday

usullardan foydalandingiz?”, “Vaqtinizni yanada mazmunli o‘tkazishning qanday yo‘llarini bilasiz? va h.k.

Kerakli paytda sharh berish o‘qituvchining vaqtini tejaydi. Fisher va Freyning (2012) fikriga ko‘ra, *hatolarni* emas, balki *yanglishishlarni* oldini olish kerak, chunki hatoni tuzatish mumkin; u o‘quvchining bilim darajasi pastligini aks ettirmaydi. Biroq, yanglishish boshqa omil bo‘lib, u o‘quv jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Fisher va Frey yanglishishni to‘rt turga ajratishgan:

- *Amaliy yanglishish* talabning bilim darajasi pastligi yoki fikrlash doirasi torligini aks ettiradi.
- *Metodik yanglishish* talabalar o‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llay olmasligi natijasida yuzaga keladi.
- O‘zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda *yanglish qo‘llash*.
- Noto‘g‘ri, yolg‘on ma‘lumot asosida *yanglish fikrlarni* shakllantirish.

Kreativlik va mazmunning bevosita bog‘liqligi. Mazmun va kreativlik o‘rtasida ramziy bog‘liqlik mavjuddir: mazmun bo‘lmasa kreativlik ham shakllanmaydi, ya‘ni kreativ bo‘lish yoki kreativ fikrlash uchun saba bo‘lishi kerak. Talabalarning bajargan ishlari yoki savollarga berayotgan javoblarini baholash jarayonida o‘qituvchi ular yanglishish yoki hatoga yo‘l qo‘yayotgaliklarini aniqlashi zarur. Talaba mazmun jihatdan etarli bilimlarga egami? O‘zlashtirgan bilimlarini amalda qo‘llay olyaptimi? Kreativ fikrlashda ko‘proq tajribaga muhtojmi?

O‘quv jarayonida kreativ maqsadlarni belgilash. Viggins (Wiggins, 2012, 11-bet) sharhga “oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishish yo‘lida bajargan amallarimiz haqidagi ma‘lumot” deya izoh beradi. Samarali sharh berish uchun talabalarning maqsadi, unga erishishda bajargan hatti-harakatlari bo‘lishini talab etadi. Agarda talabalarning maqsadi bo‘lsa, sharh berishdan ma‘no topsa bo‘ladi, aks holda bu shunchaki “nima qilishi zarurligi haqidagi” ma‘lumot bo‘lib qoladi (Brookhart, 2012, 24-bet).

Kreativ o‘quv jarayonida talabalarning maqsadi “ular bilishi zarur bo‘lgan va qila olishi mumkin bo‘lgan vazifaning ifodasi”dir (Marzano, 2009, 13-bet) va u mazmun, fikrlash jarayoni va natija (mahsulot)ga asoslanishi zarur⁴⁷.

Amerikali pedagog Patti Drepeau talabalarda kreativlik ko‘nikmalarini shakllanganlik hama rivojlanganlik darajasini baholashga doir samarali metodikani ishlab chiqqan. Quyida muallifning bu boradagi metodikasining mohiyati to‘laqonli aks ettirilgan jadvallar keltiriladi⁴⁸.

7.1-jadval. Maqsadga erishishdagi kreativlik

Andoza	Maqsad	Mos keluvchi andoza	Maqsad
Har bir media predmet tasviri (m: so‘zlarning ta’sirchanligini kuchaytiradigan nutqning ifodalanishi)ni matnning audio, video yoki multimediya variantlarini o‘zaro solishtiring va taqqoslang (RI.7.7)	Mohiyati: matn va OAV materiallari; axborotlarning tasviriy (obrazli) ifodasi	Matn mohiyatiga mos keluvchi	Soderjanie: tekst i konstruksiya SMI; podchinennoe izobrajenie
	Fikrlash jarayoni: taqqoslang va keskin farqlarni toping; tahlil qiling	audio, video materiallarni yoki bir nechta OAVda e’lon qilish	Fikrlash jarayoni: yarating; tahlil qiling
	Natija (mahsulot): hisobot	mumkin bo‘lgan tasvir (obraz)larni yarating	Natija (mahsulot): OAVda materialni yoritish
Nutqdagi yo‘l qo‘yilgan xatolarni	Mazmun: Qo‘shimchalar	Qo‘shimchalar kiritish yoki	Mazmun: Qo‘shimchalar

⁴⁷ Drepeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 142-144-бетлар.

⁴⁸ Ўша асар. – 150-171-бетлар.

aniqlang, qo‘shimchalar kiriting yoki umumiy mazmunga ta’sir etmaydigan keraksiz so‘zlarni olib tashlang, ya’ni muammo mohiyatini ochib berishda vizual modellar va tenglamalardan foydalaning (4.NF.B.3d)	kiriting/nutqning keraksiz, hech qanday ma’no bermaydigan qismlarini olib tashlang, vizual modellar va tenglamalardan foydalaning	umumiy mazmunga ta’sir etmaydigan keraksiz so‘zlarni olib tashlash, muammo mohiyatini ochib berishda vizual modellar va tenglamalardan foydalaning	kiriting/nutqning keraksiz, hech qanday ma’no bermaydigan qismlarini olib tashlang, vizual modellar va tenglamalardan foydalaning
	Fikrlash jarayoni: echim	foydalanish orqali so‘zlar bilan bog‘liq	Fikrlash jarayoni: yaratish
	Natija (mahsulot): Ish qog‘ozi	muammolarini yarating	Natija (mahsulot): kreativ ishlanma

Izoh. CCSS; Eng yaxshi metodlarga ega gubernatorlar Assotsiatsiyasining Milliy Markazi, SHTat maktab inpektorlari Bosh kengashi, 2010a, 2010b.

**7.2-jadval. Kreativ fikrlash va jarayonlarni baholash
varaqa-sining kichik shakli (namuna)**

Fikrlashda kreativ ko‘nikma yoki jarayonning namoyon bo‘lishi	1 U qadar yorqin emas	2 Bir qadar yorqin	3 Etarli darajada yorqin	4 Juda yorqin
Tezkorlik	Bitta fikr yoki kreativlikka	Bir nechta kreativlikka	Ayrim fikrlarni qo‘llab-	Ko‘plab fikrlarni

	muvofoq keladigan fikr mavjud emas	muvofoq fikr mavjud	quvvatlash mumkin	qo'llab-quvvatlash mumkin
O'zgaruvchanlik	Bir yoki ikki turli ko'rinishdagi g'oyalar yoki o'zgarishlar	Juda oz g'oya va o'zgarishlar bir-biridan farq qiladi	Ayrim g'oya va o'zgarishlar bir-biridan farq qiladi	Ko'plab g'oya va o'zgarishlar bir-biridan farq qiladi
YAngi fikrlarning mavjudligi	O'zgalarning g'oyalari boshqa talqinda qo'llanilgan	O'ziga xos g'oyalar juda oz	Ayrim g'oyalar o'ziga xos	Juda noyob yoki o'ziga xos g'oyalar mavjud
Tadqiq etish	Tavsif juda oz	Ayrim detallar va dalillar ochib berilgan	Detallar etarlicha tavsiflanganligi sababli ularni chuqur tushunishga imkon beradi	Favqulotda tadqiq etilgan; darhaqiqat umumiy kartinani bezaydi
YAngilik	Oddiy g'oyalarning bayon etilishidagi rejalashtirish va tashkillashtirishda qiyinchiliklar mavjudligi sababli, undan foydalanish mumkin emas	Bir necha novatorlik g'oyalarini rejalashtirish va ular asosida faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi tuzilma qo'llanilgan;	YAngi va mos keluvchi novatorlik g'oyalarini rejalashtirish va ular asosida faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi tuzilma	YAngi, qo'llab-quvvatlash mumkin bo'lgan, yanada samarali va amaliy qiymatga ega novatorlik

		undan amalda foydalanish mumkin	qo'llanilgan; undan amalda foydalanish mumkin	g'oyalarni rejalashtirish va ular asosida faoliyatni tashkil etishga imkon beruvchi tuzilma qo'llanilgan; undan amalda foydalanish mumkin
Kreativ muammoning jarayonni hal qila olishi	Jarayonni hal qiluvchi kreativ muammo qo'llanilmagan	Jarayonni hal qiluvchi, biroq, ayrim kamchiliklarga ega muammo yoki samarali bo'lmagan qarashlar qo'llanilgan	Jarayonni hal qiluvchi kreativ fikrlash unsurlari qo'llanilgan yoki kreativ fikrlash to'la namoyon bo'ladi	Murakkab, o'ziga xos bo'lmagan echimga olib keluvchi jarayonni hal qilishga yordam beradigan kreativ muammo qo'llanilgan

7.3-jadval. Faollik va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan standart

samaradorligini baholovchi varaqa namunasi

(Sarah, Plain and Tall; MacLachlan, 1985)

Kreativ fikrlash ko'nikmalari	U qadar ko'zga tashlanmaydi	Bir qadar yangi	Juda yaxshi	Mutlaqo yangi
<p><i>Erkin fikrlash</i></p> <p>Talabalar kichik guruhlarda Saraning ona bo'lishida asosiy omillarni aqliy hujum strategiyasi yordamida tahlil qiladilar. O'z qarashlari va fikrlarini himoya qilish uchun asarning kerakli kismilariga iqtibos berishlari va ularni grafik organayzer ko'rinishida taqdim etishlari lozim.</p>	<p>0 yoki faqat 1 vaziyat ko'rsatilgan; Xulosalar mantiqiy bog'liqlikka ega emas.</p>	<p>2-3 vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lib, ular mantiqiy, biroq hech qanday bog'liqlikka ega emas.</p>	<p>4-5 vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lib, ular mantiqiy bog'liqlikka ega.</p>	<p>6 va undan ko'p vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lib, g'aroyib va mantiqiy g'oyalardan iborat.</p>
<p><i>Moslashuvchanlik</i></p> <p>Kichik guruhlarda talabalar agarda Sara yomon ona bo'lganida voqealar rivoji qanday tus olishini muhokama qiladilar. Muhokama jarayonida fikrlar asarga iqtibos berish asosida</p>	<p>0 yoki faqat 1 oqibat ko'rsatilgan; sabab va oqibat omillari taqdim etilmagan</p>	<p>2-3 oqibat ko'rsatilgan; sabab va oqibat omillari taqdim etilgan</p>	<p>4-5 oqibat ko'rsatilgan bo'lib, ular mantiqiy bog'liqlikka ega</p>	<p>6 va undan ko'p oqibat ko'rsatilgan bo'lib, ular original va mantiqiy bog'liqlikka ega</p>

bayon etilishi kerak				
<p><i>O'ziga xoslik</i></p> <p>Kichik guruhlarda talabalar mantiqiy xotin qidiri yo'llarini taklif etadilar. Bu takliflar voqealar rivojiga qanady ta'sir etadi?</p>	<p>1–2 g'oya, ulardan biri asar mazmuniga mos emas</p>	<p>3–4 g'oya, ularning bari asarning mazmunidan kelib chiqqan</p>	<p>5 g'oya, biri eng asosiysi bo'lib, qolganlari mazmunan bir-biriga bog'liq</p>	<p>6 va undan ko'p g'oya, ulardan ikkitasi original bo'lib, qolganlari mazmunan bir-biriga bog'liq</p>
<p><i>YAratish</i></p> <p>Sara hech qachon turmushga chiqmagan va farzandli bo'lmagan; Sara hech qachon turmushga chiqmagan va bolalari ham bo'lmagan.</p> <p>Kichik guruhlardagi talabalar Saraning bola asrab olishi sababi, nima uchun u qiyinchiliklarga duch kelishini bilsada, bunday mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olishga qaror qilganligini tahlil qiladilar va yozma ravishda bayon</p>	<p>0 yoki faqat 1 omil keltirilgan, u ham bo'lsa mantiqsiz va asar mazmunidan kelib chiqmagan</p>	<p>2–3 omillar keltirilgan bo'lib, ular asar mazmunidan kelib chiqqan</p>	<p>4–5 omillar keltirilgan bo'lib, ular mantiqiy va asar mazmunidan kelib chiqqan</p>	<p>6 va undan ko'p omillar keltirilgan bo'lib, ular original g'oyalardan iborat va va asar mazmunidan kelib chiqqan</p>

topshiradi. Fikrlarini tasdiqlash uchun talabalar asardagi kerakli matnga iqtibos beradi				
--	--	--	--	--

7.4-jadval. Kreativ va innovatsion xarakterdagi darslar samaradorligini baholash varaqasi (namuna)

Dars unsurlari*	YAngilik u qadar ko'zga tashlanmaydi	Bir qadar yangi	Juda yaxshi	Mutlaqo yangi
Ta'lim ehtiyojlarini matnli qayd etish (ihtibos)lar asosida tavsiflang	1-2-tasodifiy ta'limiy ehtiyojlar; matnli qayd etish (ihtibos)lar o'rinli berilgan	3-4-umumiy ta'limiy ehtiyojlar; matnli qayd etish (ihtibos)lar o'rinli berilgan	5-ehtiyoj: ta'limiy ehtiyojlar; ayrimlar keng tarqalgan, ayrimlari shak-shubhasiz yangi; matnli qayd etish (ihtibos)lar o'rinli berilgan	6 yoki undan ortiq ta'limiy ehtiyojlar: ayrimlar keng tarqalgan; kam deganda 1 ta yoki 2 tasi noyob yoki juda ham g'ayri oddiy; matnli qayd etish (ihtibos)lar o'rinli berilgan
Innovatsion	Bosqichlar	Ko'p holatlarda	Bosqichlar	Bosqichlar

jarayon	mavjud emas yoki ular u qadar aniq ifodalanmagan; kreativ fikrlash mavjudligini asoslab bo‘lmaydi	bosqichlar ifodalangan; kreativ fikrlash mavjudligini asoslash mumkin	to‘liq yoritilgan; ayrim o‘rinlarda kreativ qarashlar mavjudligini asoslash imkoniyati mavjud	batafsil yoritilgan; kreativ qarashlar mavjudligini har tomonlama asoslash imkoniyati mavjud
Innovatsion vosita	Tuzilma mustahkam emas; maqsad aniq ifodalanmagan	Tuzilmani mustahkamlashga harakat qilingan, biroq, u ishonchli emas; maqsad tasodifiy belgilangan bo‘lsa-da, keng ommalashgan	Tuzilma mustahkam; dizayn odiy; maqsad innovatsion xarakterga ega	Tuzilma murakkab va har tomonlama asoslangan; murakkab maqsad belgilangan va u bevosita innovatsion xarakterga ega

***5.3-jadvalga qarang**

7.5-jadval. Innovatsion jarayonni baholash varaqasi (namuna)

Jarayon va natija (mahsulot)	YAngilik u qadar ko‘zga tashlanmaydi	Bir qadar yangi	Juda yaxshi	Mutlaqo yangi
------------------------------	--------------------------------------	-----------------	-------------	---------------

5 ta bosqichda ifodalash	To'liq bo'lmagan 5 bosqich	To'liq 5 bosqich: Asosiy javoblarni tanqidiy va kreativ fikrlar tashkil etadi	To'liq 5 bosqich: tanqidiy va kreativ fikrlar mavjudligini ifodalovchi dalillarga ega batafsil javoblar	To'liq 5 bosqich: Batafsil javoblar vazifaning mohiyatiga to'liq kirib borilganligini namoyish etadi; har tomonlama tanqidiy yondashilganlik va kreativ qarashlar mavjud
Innovatsion dizayn	Hech bir yangilik mavjud emas	Innovatsion yondashuv mavjud, biroq, u u qadar samarali emas; innovatsion yondashuvning ayrim ko'rinishlari namoyon	Ayrim ko'rinishlar innovatsion xarakterga ega	Juda batafsil, yaqqol innovatsion xarakterga ega

**7.6-jadval. Talabalarda erkin fikrlash
ko‘nikmasi sifatini aniqlash formasi**

Elementlar	Sifat	Baho (1-5)	Keyingi gal
Mohiyati: o‘nlik sonlar chegaralarini ifodalash	G‘oyalar – aniq tasavvurlar Mantiqiy g‘oyalar Tezkor g‘oyalar	3	<i>Men shilmasligim va mazmun to‘g‘risida sinchikovlik bilan o‘ylashim zarur. Men o‘z javoblarimni ularni to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qayta ko‘rib chiqishim zarur</i>
Fikrlash jarayoni: ko‘plab g‘oyalarning teg‘kor tug‘ilishi	6 tadan ko‘proq g‘oyalar	5	<i>Men tashkil etgan suhbat, mening nazarimda, zerikarli bo‘lib, keng qamrov kasb etmadi</i>
Fikrlash jarayoni: noodatiy bo‘lmagan g‘oyalar	G‘oyalarning noodatiyligi	4	
Natija: g‘oyalar ro‘yxati	Oson o‘qilishi	5	

**7.7-jadval. Talabalarda original fikrlash ko‘nikmasining
sifat darajasini aniqlash varaqasi**

Elementlar	Sifat	Baho (1-5)	Keyingi gal
Mohiyati: axborot beruvchi suhbat	Mazmunga ega Axborotning mohiyatini yoritadi Mavzuning bo‘limlari haqida aniq ma’lumot beradi	5	
Fikrlash jarayoni	O‘ziga xos va keng qamrovli Tasavvur keng YUmor tuyg‘usi aks etadi	3	<i>Men tashkil etgan suhbat, mening nazarimda, zerikarli bo‘lib, keng qamrov kasb etmadi</i>
Natija: suhbatni olib borish ko‘nikmalariga egalik	Suhbat to‘g‘ri tashkil etilgan Suhbat grammatik jihatdan to‘g‘ri Mutaxassis o‘qituvchini yollash uchun asoslar etarli	5	
Mustaqil ishlash	Individual ravishda ishlash davom ettiriladi	5	

	Ishlash jarayonida vaqt e'tiborga olinadi		
--	---	--	--

7.8-jadval. Kreativ xarakterdagi o'quv topshiriqlarini bajarishda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar

Og'zaki	YOzma	Virtual	Kinestik	Asosiy texnologiyalar
Nutq/taqdimot	Tanqid	Multfilm	Kartalar bilan o'yinlar	Elektron o'yinlar
Dialog	Umumiy xulosa	Grafik organayzer	SHarada	Elektron dalaga sayohat
Dasr	Ssenariy	Plakat	Demontsratsiya	Krossvord
Qo'shiq	Esse	Sxema	Muzey	Gazeta va jurnal suratlari uchun albom
Xabarlar	Kundalik	Kitob	Ko'rgazma	Elektron muqova mashinkasi
Izoh	Maktub	Broshyura	Eksperiment	Facebook sahifasi
Diskussiya	Jurnal	Katalog	Qo'g'irchoqlar shousi	PowerPoint taqdimoti
Intervyu	Kichik hikoya	nazorat qog'oz	Ihtiro	Animatsiya
Savol-javob	Afsona va mif	CHizmalar	3D ko'rinishidashi kitob	Multimedik plakat
Debat	Nashr etish	Yo'nalish haritasi		
Og'zaki xulosa	SHe'r	Illyustratsiya		
Hikoya qilish	Anketa	Reklama		
Latifa aytish	Reja	Foto esse		
		Imzolangan rasm		

		Harita		
		Devor rasm		

7.9-jadval. Talabanning o‘z-o‘zini baholash varaqasi (namuna)

<p>Vazifa: <i>Vinn-Diksi (Winn-Dixie)</i> tasvirini yoritishga yordam beruvchi fikrlar tizimini shakllantiring. Jamoa yordamida Vinn-Diksini tasvirlash uchun boshqalar qo‘llagan fikrlar tizimini muhokama qiling. Jamoadoshlaringiz tomonidan Vinn-Diksini tasvirlashda qo‘llanilgan, biroq, asar voqeligini yoritishda u qadar ahamiyat kasb etmaydigan fikrlarni umumlashtiring. Jamoadoshingiz tomonidan bayon etilgan Vinn-Diksi tasvirini to‘ldiruvchi rezyumeni yozing</p>				
Vazifa	Ayrim jihatlar unutilgan	Vazifa bir qadar bajarilgan	Vazifa talab darajasida bajarilgan	Vazifa To‘laqonli bajarilgan
Standart: qanday dalillar mavjud?			Men matn bo‘yicha dalillarni asosladim	
Mazmun: mavzuni tushunganingizni qanday isbotlaysiz?			Men Opalni tavsiflovchi fikrlarni bayon etdim; voqelikni qayta hikoya qildim	

<p>Kreativ fikrlash jarayoni:</p> <p>Kreativ fikrlaganligingizni qanday isbotlaysiz?</p>				<p>SHaxsiy va jamoadoshim fikrlarini o‘zaro taqqoslash orqali Opalni tavsifladim</p>
<p>Natija: natija barcha talablarni qanoatlantirganligini qanday ibotlaysiz?</p>				<p>Rezyumeimda tasvirlangan voqelikda jamoadoshimning ahamiyatli fikrlari ham aks etdi, qo‘shimcha fikrlar aytilmasada, umumiy xulosa qiziqarli bo‘ldi</p>

7.10-jadval. Talabalarning kreativ ishlarini tahlil qilish namunasi

<p>Talabaning ismi: Salli Soyer</p>	<p>Sana: 12 dekabr 2012 yil</p>
<p>Vazifa: <i>Vinn-Diksi (Winn-Dixie)</i> tasvirini yoritishga yordam beruvchi fikrlar tizimini shakllantiring. Jamoa yordamida Vinn-Diksini tasvirlash uchun boshqalar qo‘llagan fikrlar tizimini muhokama qiling. Jamoadoshlaringiz tomonidan Vinn-Diksini tasvirlashda qo‘llanilgan, biroq, asar voqeligini yoritishda u qadar ahamiyat kasb etmaydigan fikrlarni umumlashtiring. Jamoadoshingiz tomonidan bayon etilgan Vinn-Diksi tasvirini to‘ldiruvchi rezyumeni yozing</p>	

Talabanning mulohazasi	
Dars maqsadiga e'tibor qaratar ekanman, mening imkoniyatlarim ...da ko'rindi	Opalni tasvirlash hamda jamoadoshimning Opal to'g'risidagi qarashlarini boyitishda muhokama jarayonida ko'plab qiziqarli fikrlar bildirdim
Dars maqsadiga e'tibor qaratar ekanman, men ... ni o'qidim	Men xarakterning shakllanishiga ko'proq e'tibor qaratdim. SHuningdek, men har bir shaxs xarakteri muayyan sharoit asosida shakllanganligiga, har shaxs tomonidan malga oshirilayotgan harakatlarning muayyan usullarga tayanishiga e'tiborni qartdim
Menga darsning ... qismi yoqadi	Menga darsda jamoadoshimning Opalni tavsirlash uchun kreativ fikrlarni bildirilgan qismi yoqdi
Keyingi gal men ... ustida ishlashim zarur	Men voqelikning bayon etilishida qo'llanilmagan, biroq, uning rivojlanishida ahamiyatli bo'lgan fikrlar tizimni samarali shakllantira olish ustida oshlashim zarur
O'qituvchining sharhi	
<p>Dars maqsadiga e'tibor qaratishda, mening fikrimcha, Sizning imkoniyatlarining ...da aks etishi zarur</p> <p><i>Brainstorming — I agree with you! YOu are a very good brainstormer; you often come up with many interesting words</i></p>	

Dars maqsadiga e'tibor qaratishda, keyingi gal Sizning ...ni inobatga olishingizga ishonaman

I agree you should think really hard about what you read so you can come up with inferential ideas about your reading, not just the words that are literally on the page.

I also think you might watch how you structure your paragraphs. For example, in the

second paragraph, the third sentence is on a different topic, so it should be in a different paragraph. Remember to have one main idea in each paragraph

7.11-jadval. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlovchi andoza

Qaytar aloqani ta'minlashdan ko'zlangan maqsad:

Siz quyidagilarda o'rinlarda: ... o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil etdingiz

Men o'quv faoliyatini tashkil etishda quyidagi o'rinlarda ayrim muammolarga duch kelishingizni angladim

Men keyingi darslarda quyidagi o‘rinlarda: ... diqqatingizni jamlay olishingizda yordam berishni xohlayman
<p>O‘quv faoliyatingizni mustaqil boshqarish yuzasidan Sizga bir necha ko‘rsatma:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 2. 3. ... <p>Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt Talabanning mustaqillik darajasi Zarur pedagogik shart-sharoitlar</p>

7.12-jadval. “Xatolarimni toping” formulasi

Vazifa: uzunlik, maydon yuzasi va hajmini o‘lchashga, sohada yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashga doir 10 ta matematik topshiriqni bajarish	Xatolar: 3 ta Xato: 1 ta
“Xatolarimni toping”	
Xato: hisoblash bo‘yicha muammo	Ko‘paytirishdagi xato
Xato: maydon yuzasini hisoblashga oid muammo	Ko‘paytirishdagi xato
Xato: maydon hajmini hisoblashga oid muammo	O‘lchashda yo‘l qo‘yilgan xato

Xato	Fikrni bayon etishda yo‘l qo‘yilgan xato
------	--

7.13-jadval. O‘qituvchilarning kreativ potensialini baholovchi mezonlar

Kreativ potensial	Mutlaqo namoyon bo‘lmaydi	Bir qadar namoyon bo‘ladi	YAqqol namoyon bo‘ladi
Darslarda o‘zinning kreativ potensialimdan kelib chiqqan holda gapiraman			
Darsning qaysi qismida savollarga to‘la kreativ yondashgan holda javob berganligimni ko‘rsata olaman			
O‘z kreativ potensialimni oshirishga yordam beradigan usullar ayta olaman			
Kreativ potensial haqidagi qarashlarimni va ularning darslarda bildirayotgan fikrlarimda qanchalik aks etishini bayon eta olaman			
Darslardagi qaytargan kreativ xarakterdagi javoblarim bilan bunday xarakter kasb etmagan javoblarim o‘rtasidagi yaqinlik va farqlarni ko‘rsata olaman			
Darslarda kreativ potensialimni kuchaytirishga yordam beradigan turli metodlarni qo‘llay olaman			
Agarda hech qanday kreativ o‘ylay olmasam, u holda menga qanday yordam zarur ekanligini bilaman			

Kreativ potensialimdan oqilona foydalana olaman			
Qachon va qaerda kreativ potensial qanchalik zarur ekanligini yaxshi anglayman			
Guruh bilan qanday holatlarda kreativ yondashgan holda ishlash samarali ekanligini yaxshi bilaman			
Kreativ potensial menga axborotlar mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi			

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, ular o‘zlaridagi mavjud kreativlik sifatleri, ularning darajasi borasida aniq tasavvurga ega bo‘ladi, ikkinchidan, ular tomonidan tashkil etilayotgan ta’lim jarayoning sifati hamda samaradorligi xususida bir to‘xtamga kelish mumkin. SHuningdek, kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash orqali pedagoglarning bu boradagi faoliyatlari yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish muayyan bosqichlarda kechadi. Mazkur bosqichlarning har birida kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarining maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish o‘qitish sifatining yaxshilanishi, samaradorligining oshishi uchun qo‘lay sharoitni yaratadi.

Nazorat savollari:

1. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini qanday metod va vositalar yordamida aniqlash mumkin?.
2. Pedagoglarda kreativlik sifatlarining rivojlanishi qanday bosqichlarda kechadi?
3. Qanday metodni pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi?

4. Patti Drapeau tomonidan talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan qanday vosita taklif etilgan?

5. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari yordamida qanday ijodiy mahsulotlarni yaratish mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bashina T.F., Ilin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 203.

3. Odaryonnye deti (Per. s ang.). – M.: Progress, 1991. – S. 177-178.

4. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

5. Turdieva M. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.

9-MAVZU: (2SOAT MA‘RUZA, 2SOAT AMALIY MASHG‘ULOT) BOSHQARUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA KREATIV YONDOSHISH

Reja:

1. Boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish.

2. Talabalar tomonidan boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etilishini ta‘minlovchi innovatsion xarakterdagi omillar.

Tayanch tushunchalar: matn, vizuallik, matnning vizuallik xususiyati, o‘quv topshiriqlari, o‘quv topshiriqlarining turlari, ish qog‘ozlari, keys, darajali test, auditoriyani jihozlash.

Ma‘ruza mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi. SHaxsda kreativlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar faqatgina ko‘ngilochar xarakterdagi topshiriq, mashq yoki vazifalardan iborat bo‘lib qolishi kerak emas. Balki, talabalarga beriladigan barcha topshiriq, mashq va vazifalar mavjud davlat ta‘lim standartlarga mos kelishi, talabalarga bilim, ko‘nikma va

malakalarini to'laqonli namoyish qila olish imkoniyatini yaratishi zarur. Mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilar talabalarni asta-sekin mas'uliyatdan ozod qilish orqali mustaqil ta'lim olishga rag'bat bildiradigan shaxs bo'lishlariga erisha olishlari lozim (Fisher, Frey, 2008 y.)⁴⁹.

Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o'zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo'lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur. Quyida ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tiladi.

1. Matnli axborotlarni grafik shakliga o'tkazish. Matnli, ayniqsa, katta hajmdagi matnli axborotlar talabalar tomonidan qiyin qabul qilinadi. Zamonaviy sharoitda matnli axborotlarni grafik shakliga o'tkazish talab etilmoqda. O'quv axborotlarini grafik shakliga o'tkazishda ma'lumotlarni model, sxema, jadval, diagramma, tasvir, klaster, matematik, fizik, geometrik ko'rinishlarida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarzda talabalarga taqdim etilgan axborotlar talabalar tomonidan samarali qabul qilinadi.

Ayni vaqtda OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" yo'nalishida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotda tinglovchilar bilan quyidagi matnli axborotni klasterda ifodalash ko'nikma, malakalari bilan qurollantirildi:

Луғавий маъносига кўра “таксономия” тушунчаси “тартиб билан жойлаштириши қонуни” маъносини англатади. Объектларни уларнинг ўзаро боғлиқлигига асосланган ҳолда мураккаблашиб борадиган даражалар кетма-кетлиги (иерархик тарз)да жойлаштирган ҳолда туркумлаштириши, тизимлаштириши “таксономия” деб аталади. Педагогик таксономия – педагогик жараённинг ўзаро боғлиқ ва хоссасига кўра кўп боғиқчли (иерархик) тузилишига эга объектларини тавсифлаш, тартибга солиш ва тизимлаштириши назарияси. Б.Блум раҳбарлигида 1956 йилда АҚШда “Педагогик таксономия” гоялари эълон қилинди. XX асрнинг 60-йилларида Д.Кратвол ва бошқалар томонидан педагогик мақсадларни ифодаловчи таксономиянинг навбатдаги гоялари шакллантирилди


B. Blum taksonomiyasi kategoriya (mezon)lari

<i>№</i>	<i>Mezonlar</i>	<i>Mazmuni</i>
<i>1.</i>	<i>Bilish</i>	<i>Bilimlardan xabardor bo'lish, ularni o'zlashtirish, yodda tutish, qayta yodga olishni ifodalaydi</i>
<i>2.</i>	<i>Tushunish</i>	<i>Bilimlar yuzasidan fikrlash, mushohada yuritish, nazariy holatdan amaliyotga ko'chish mantig'ini o'zlashtirish</i>

⁴⁹ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.


3.	<i>Qo'llash</i>	<i>Bilimlarni amaliyot (amaliy haraktlar)da qo'llash</i>
4.	<i>Analiz</i>	<i>Mavjud bilimlarga tayangan holda yaxlit, bir butun ob'ekt, hodisa, voqelik va jarayonni tarkibiy elementlarga ajratgan holda o'rganish, juz'iy xulosa chiqarish</i>
5.	<i>Sintez</i>	<i>Mavjud bilimlarga tayangan holda ayrim, alohida tarkibiy elementlar asosida yaxlit, bir butun ob'ekt, hodisa, voqelik va jarayon to'g'risida umumiy xulosa chiqarish</i>
6.	<i>Baholash</i>	<i>SHaxsning nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma, malakalarga egaligini baholash</i>

“B.Blum taksonomiyasi” mavzusidagi o‘quv axborotining klasterdagi ifodasi



2. Maxsus testlar bilan ishlash. Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarda kreativlik qobiliyati va sifatleri mavjudligini aniqlashda E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalanish samarali natijalarni beradi.

Mazkur test quyidagi shtrixlaran iborat noaniq tasvirlardan iborat bo‘lib, tinglovchilarga ularni tugatib berish topshirig‘i beriladi:



OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi qo‘llash jarayonida tinglovchilar tomonidan ko‘plab takliflar beriladi. Berilgan takliflar tinglov-pedagoglarning qay darajada kreativlik sifatlariga egaligi, tasavvurining qanchalik boyligini ifodalaydi.

3. Interfaol metodlardan foydalanish. Mashg‘ulotlarda interfaol metod (strategiya, grafik organayzer)lar bilan ishlash talabalar tomonidan o‘quv axborotlarini tizimli, yaxlit holda o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, interfaol metodlar yordamida talabalar o‘quv axborotlari bilan ishlashda bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, muhim tushunchalarni tizimlashtirish, ob‘ekt, jarayon, faoliyat, voqea, hodisalarning umumiy mohiyatini aniq ifodalash kabi ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Quyida peagogik turkum fanlarini o‘qitish hamda talabalar, OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakalarini oshirish kursleri tinglovchilarida kreativlik sifatleri, ijodiy-kasbiy faoliyat malakalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanishga oid misollar keltiriladi.

3.1. “Sinkveyn” strategiyasi. J.Still, K.Meredit, CH.Temil tomonidan ishlab chiqilgan “O‘qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi”da har


bir o‘quvchi (talaba) va o‘quvchi (talaba)lar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun “Sinkveyn” strategiyasini qo‘llash samarali ekanligi aytiladi.

Bu o‘rinda strategiyaning mohiyati bilan tanishib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Синквейн (фр. “беш қатор”) – маълумотларни синтезлаш (алоҳида маълумотлар асосида яхлит ғояларни шакллантириш)га ёрдам берадиган қофиясиз шеър бўлиб, у асосида ўрганилаётган мавзу (тушунча, ходиса, воқеа)ларга оид маълумотлар тўпланади; ҳар бир талаба ушбу маълумотлар йиғиндиси (қофиясиз шеър)ни ўз сўзлари

Синквейн тузиш – мураккаб ғоя, сезги ва ҳиссиётларни бир неча сўз орқали яққол, ёрқин ифодалаш малакаси бўлиб, бу жараён мавзунини пухтароқ ўзлаштириш, маълумотларни яхшироқ англашга ёрдам беради

Sinkveyn tuzishning maqsadli yordamchi usuli, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun:



strategiyasi yordamida yoritilgan mohiyati

1-қатор. Windows (1та от)

2-қатор. Ҳужжатни тез ва сифатли тайёрлайди (2 та сифат)


3-қатор. Маълумотларни ёзиш, қайта ишлаш ва сақлашга ёрдам беради (3 та феъл)

4-қатор. Windows тизими муҳитида ишлайди (4 та сўз)

5-қатор. Word матн муҳаррири Microsoft office дастурлари пакетига киради, унинг пиктограммаси “W” белгиси, унда ишланган файл кенгайтмаси .doc саналади (1 та гап)


3.2. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri (GO) talabalarda mavzuga tahliliy yondashish, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

YOzuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



GO talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



topshiriqlarni bajaradi. Talabalar e’tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammani ng tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“Venn diagrammasi” qo‘llashga oid misollar

“Ta’lim va tarbiya jarayonlarining mohiyati”

mavzusidagi Venn diagrammasi

Таълим жараёни:

1. Илмий билимлар берилади.
2. Ҳукувчи ва ўқувчилар иштирок этади.
3. Узлуксиз таълимнинг муайян босқичини акс эттиради.
4. Рейтинг синови таълим натижасини белгилайди.
5. Натижани белгиланган муддатларда кўриш мумкин.
6. Натижа – маълумотга эга бўлиш

Умумий жиҳатлар

1. Шахсни шакллантиришга хизмат қилади.
2. Субъектлар Иштирокида ташкил этилади.
3. Даврийлик хусусиятига кўра ўзаро фарқланади.
4. Турли воситалар ёрдамида қўрилган натижага эришганлик аниқланади.
5. Муайян натижаларни кафолатлайди.
5. Натижа – ҳар томонлама ривожланган, қўрилган шахс

Тарбия жараёни:

1. Ахлоқий сифатлар шакллантирилади.
2. Тарбиячи ва тарбияланувчилар иштирок этади.
3. Узоқ муддатли.
4. Натижани қисқа муддатда кўриш мумкин эмас.
5. Ташхис шахснинг тарбияланганлик даражасини белгилайди.
6. Натижа – шахснинг ижтимоий онг ва ахлоқий сифатларга эга бўлиши

“Power Point va exzel dasturlarini qiyosiy o‘rganish” mavzusidagi Venn diagrammasi

Power Point dasturiga xos xususiy jihatlari:

1. Amaliy dastur.
2. Kўrgazmali grafika.
3. Microsoft Office paketiga tegishli.
4. Windows muhiti da ishlaydigan dasturiy vosita.
5. Universal.
6. Keng imkoniyatlar ga ega.
7. Slaydlar ni yaratish imkonini beradi.
8. Matn, rasmlar, chizmalar, grafikalar, ovoz, animatsiya effektlari, videorolik va boshqalardan tashkil topgan.
9. U erda da kўrgazmali kurollar ni yaratish mumkin.
10. Ma'lumotlar bazasi sifatida ham qullaniladi.
11. Multimedia vositalarini boshqarish vazifasini ham bajaradi.

Umumiy jihatlari:

1. Kompyuter dasturi.
2. Microsoft Office paketiga tegishli.
3. Aniq vazifani bajarish ga xizmat qiladi.
4. Keng imkoniyatlar ga ega.
5. Samarali ishlash ga erdam beradi.
6. Ma'lumotlar ni uzoq vaqt saqlash mumkin.
7. Ularda ishlash ma'lum kunlik, matakalar ga ega bulish ni taqozo etadi.
8. Ma'lumotlar ni qayta ishlash da samarali.

Excel dasturiga xos xususiy jihatlari:

1. Elektron jadval.
2. Microsoft Office paketiga tegishli.
3. Hisob ishlarini amalga oshirish ga erdam beradi.
4. Ma'lumotlar ni qayta ishlash da samarali.
5. Hisoblash samaradorligini oshiradi.
6. Unda fayllar .xls kengaytmasi ga ega.
7. U ish kitobi – Workbook.
8. Har bir ish kitobida bir nechta “ish qogozlari” mavjud.
9. Ularning har biriga 1 dan to 255 tagacha elektron jadval joylashtirish mumkin.
10. Ish qogozlariga List1, List2 va xokazo tarzida nom beriladi.
11. Qatorlar sonlar, ustunlar esa A, B, C, ...Z, AA, B, ... kabii lotin harflari bilan ifodalana di.


3.3. “Barcha omillarni hisobga ol!” (BOHO) metodi. BOHO – shaxs e’tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat qiluvchi metod. Uni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, tafakkurini boyitishdir. Metod aniq maqsad asosida qo‘llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Agar talaba u yoki bu fikrni ochiq aytishga tortinsa, u holda metodni qo‘llash hech qanday samara bermaydi.

Mashg‘ulotlar jarayonida metoddan foydalanishda quyidagi savollarga javob topgan holda mavzuni samarali o‘zlashtirish imkonini beradigan omillarning ro‘yxatini tuzib olish maqsadga muvofiqdir:

Мавзунни ўзлаштиришда қайси омиллар ҳисобга олинди	?
Мавзунни ўзлаштиришда қандай омиллар ҳисобга олинмади	
Рўйхатга яна қандай омилларни киритиш мумкин	
Масаланинг яна қайси жиҳатларига эътибор бериш зарур	

“Barcha omillarni hisobga ol!” (BOHO) metodini qo‘llashga oid misol

“Barcha omillarni hisobga ol!” (BOHO) metodiga asoslangan Grafikaning tarkibiy vositalari




2. О‘quv topshiriqlarining turlari va o‘quv mashg‘ulotlar uchun o‘quv topshiriqlari turlarini belgilash. Rejalashtirilgan maqsadlar tizimi ushbu maqsadlarning bajarilishini ta’minlovchi harakatlar tizimi bilan uzviy bog‘lanadi. O‘quv materiallarini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchini faol harakatga undaydigan omil – o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. O‘quv topshiriqlari – o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta’limiy vazifalar yig‘indisi.

SHu sababli o‘quv topshiriqlarini to‘g‘ri shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi. Pedagogika OTMda tahsil olayotgan talabalar o‘quv topshiriqlarini

to'g'ri shakllantirish ko'nikma, malakalariga ega bo'lishi zarur. O'quv topshiriqlarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Ўқув топшириқларининг мураккаблик даражасини аниқлай олиш.
2. Дарсинг мақсадига мувофиқ ўқув топшириқлари тизимини шакллантириш

Bu o'rinda D.Tollingerova tomonidan quyidagi o'quv topshiriqlari taksonomiyasi taklif etilgan (18-rasm):



18-расм. Харақтерига кўра ўқув топшириқларининг турлари

Har bir o'quv topshirig'i o'z ichiga yana bir necha kichik turdagi topshiriqlarni qamrab oladi. Ular quyidagilardir:

I. Xotirada saqlash, qayta yodga tushirishni talab etuvchi topshiriqlar:

- 1) xabardor bo'lishga oid topshiriqlar;
- 2) alohida dalil, son, tushunchalarni yodga olishga doir topshiriqlar;
- 3) ta'rif, me'yor, qoidalarni yodga olishga oid topshiriqlar;
- 4) katta hajmdagi matn, bo'lim, she'r, jadval va b.ni yodga olishga oid topshiriqlar.

II. Raqam va ma'lumotlar bilan ishlashda oddiy fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar:

- 1) dalillar (o'lchash, tortish, hisoblash va b.)ni aniqlashga oid topshiriqlar;
- 2) dalillarni keltirish va ta'riflashga (hisoblash, sanab o'tish va b.)ga doir topshiriqlar;
- 3) harakatlar jarayoni va usullarini tashkil etish va tavsiflashga oid topshiriqlar;
- 4) ajratish va yig'ish (tahlil va sintez)ga doir topshiriqlar;
- 5) qiyoslash va farqlash (taqqoslash va bo'lish)ga oid topshiriqlar;
- 6) taqsimlash (kategoriyalashtirish va tasniflash)ga doir topshiriqlar;

7) dalillar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik (sabab, oqibat, maqsad, vosita, ta'sir, foydalilik, vosita, usullar)ni aniqlashga oid topshiriqlar;

8) mavhumlashtirish, aniqlashtirish va umumlashtirishga doir topshiriqlar;

9) murakkab bo'lmagan (kattalik, o'lchamlari noma'lum bo'lgan) misollarni echish.

III. Raqam va ma'lumotlar bilan ishlashda murakkab fikriy operatsiyalarni taqozo etuvchi topshiriqlar:

1) ko'chirish (biror joyga uzatish, shaklini o'zgartirish)ga oid topshiriqlar;

2) bayon qilish (sharhlash, ma'nosini tushuntirish, mohiyatini yoritish, asoslash)ga doir topshiriqlar;

3) induksiya (juz'iy xususiyatga tayangan umumiy xulosa chiqarish)ga oid topshiriqlar;

4) deduksiya (umumiy holatga ko'ra xususiy xulosalar chiqarishga) doir topshiriqlar);

5) isbotlash (dalillashtirish) va tekshirishga oid topshiriqlar;

6) baholashga doir topshiriqlar.

IV. Ma'lumotlarni e'lon qilishga oid topshiriqlar:

1) umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot, qoralama, mazmun va b.ni ishlab chiqishga doir topshiriqlar;

2) hisobot, ma'lum muammoga bag'ishlangan ilmiy asar, ma'ruzalarni tayyorlashga oid topshiriqlar;

3) mustaqil ravishda yozma ishlar, chizmalar, loyihalar va b.ni bajarishga doir topshiriqlar.

V. Ijodiy fikrlashni talab etuvchi topshiriqlar:

1) amaliy takliflarni ishlab chiqarishga doir topshiriqlar;

2) muammoli masala va vaziyatlarni hal qilishga oid topshiriqlar;

3) savollarni qo'yish va masala yoki topshiriqlarni ifodalashga doir topshiriqlar;

4) shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda echimni topishga oid topshiriqlar;

5) shaxsiy mulohazaga asoslangan holda echimni topishga doir (ratsional echimga asoslangan) topshiriqlar.

Anglanganidek, pedagoglar ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv materiallarining xarakteridan kelib chiqqan holda yuqorida qayd etilgan topshiriqlardan ikki va undan ortig'ini tanlash imkoniyatiga ega. Bir mashg'ulotda talabalarni bir necha turdagi topshiriqlar bilan ishlashga jalb etish talabalarda o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqishni oshiradi va o'quv-bilish faoliyatini kuchaytiradi.

3. O'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini tayyorlash. Ish qog'ozlari asosida o'quv topshiriqlarining bajarilishi mazkur jarayonni tezlashtirish, talabalar faoliyatini osonlashtirish va eng muhimi, mumkin qadar vaqtni tejash imkonini yaratadi. SHu tufayli etakchi xorijiy mamlakatlar tajribasida o'quv topshiriqlari bilan ishlash jarayoni uchun ish qog'ozlarini shakllantirish va ularni mashg'ulotlar uchun tayyorlashga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida ta'limni tashkil etishga innovatsion yondashish natijasida uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida deyarli har

bir dars, o'quv mashg'ulotida o'quvchi va talabalarning amaliy faoliyatini ish qog'ozlari vositasida tashkil etish an'anasi bir qadar shakllandi. Ayni vaqtda bu boradagi tajribani yanada boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud. SHu sababli OTM pedagoglarida ish qog'ozlarini shakllantirish borasidagi ko'nikma, malakalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, o'quv mashg'ulotlarida bajariladigan topshiriqlar uchun ish qog'ozlarining tayyorlanishi pedagoglarda kreativlik qobiliyatini yanaa rivojlanishiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashda grafik organayzerlarning grafikli tavrilaridan ish qog'ozlari sifatida foydalanish mumkin.

O'MMning "Ilovalar" qismida so'nggi yillarda o'quv mashg'ulotlarida tobora keng qo'llanilayotgan ish qog'ozlaridan namunalar (1-ilova) keltiriladi.

6. Kreativ yondashuv asosida o'quv fanlari bo'yicha nazorat-sinov topshiriqlarini tayyorlash, keys va darajali testlar to'plamini shakllantirish. Zamonaviy ta'limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o'zlashtirish garchi talabalarning borliqni anglashlarini, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, u yoki bu ko'rinishdagi kishilik faoliyati mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq, borliq va ijtimoiy munosabatlarning mavjud holatini ifodalovchi hodisa, voqelik, jarayonning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorlikni tushunish, sabab-oqibatlarini tahlil qilish, faoliyat mazmuni, yo'nalishi va eng muhimi, natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. SHu kabi salbiy holatning olini olishda talabalarni "muammo vaziyatlar"ga ro'para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi.

Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash, "muammo-muammoni hal qilish jarayoni-echim" tizimi asosida masalani tahlil qilish, echim borasida farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, echimni bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o'quv-bilish faoliyatiga tanqiliy yondashish, o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladiki, xuddi shu holat jamiyat tomonidan ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi. YA'ni, muammoli o'qitish, uni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar respublika uzluksiz ta'lim tizimi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan har tomonlama (aqliy, axloqiy, jismoniy, hissiy jihatdan) rivojlangan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta'minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitni vujudga keltiradi. SHu sababli bugungi kunda ta'lim tizimida muammoli ta'limdan foydalanish, muammoli ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli

ta'lim texnologiyalari orasida muhim o'rin egallagan "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash tajribasi shakllanmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida ham "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash asosida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish borasida boy amaliy tajriba to'plangan va mazkur texnologiya jahon o'qitish tizimida eng ommalashgan o'quv texnologiyasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik turkum fanlarini o'qitishda "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash xususida so'z yuritishdan avval uning tushuncha sifatida o'zida qanday mohiyatni yoritishi xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

"Keys-stadi" texnologiyasi (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya⁵⁰, real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi⁵¹ deya e'tirof etiladi.

Texnologiyaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko'nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta'minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish⁵².

Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

"Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870 yilda aqshning garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. ushbu texnologiya garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo'llanila boshlangan. keyslarning ilk to'plami 1925 yilda biznes haqidagi garvard universiteti hisobotlari asosida chop

⁵⁰ Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015. – 81-б.

⁵¹ Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла / Учеб.-мет.пособие. – СПб.: Изд-о Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. – С. 3.

⁵² Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.-мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО "Удмуртский университет", 2013. – С. 9.

etilgan⁵³. hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. o'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

zamonaviy o'qitish amalyotida ta'limiy xarakterdagi keyslarning quyidagi turlari qo'llanilmoqa:

- muammoning echimi va qarorlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan keyslar;
- qaror yoki yaxlit muammoni ifodalovchi keyslar;
- talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini beruvchi keyslar.

ta'limda qo'llaniladigan "keys-stadi"ning tayyor variantlari ham mavjud bo'lib, ularni sotib olish mumkin. biroq, eng samarali yo'l har bir fan bo'yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. birgina garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. ularning narxi 10 \$. ammo ba'zi keyslarning narxi 500 ta 1000 \$ gacha. london biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi.

texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

"keys-stadi" yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalar⁵⁴ga ega bo'ladi:

1. tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

2. amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

3. ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni echish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha echimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

⁵³ Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.

⁵⁴ Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: "Сано стандарт" нашриёти, 2015. – 81-б.

4. muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

5. ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o'zini boshqara olishi lozim).

6. o'z-o'zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim).

har o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) tushunilmasligi;
- savol yoki topshiriqlar ma'lum darajada murakkab bo'lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish;
- tezda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon etish;
- ta'limning barcha yo'nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;
- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha echim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta'minlay olishi.

o'quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e'tiboriga adabiyotlar ro'yxatining taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning echimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi.

adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan masala (muammo, mavzu)ga bevosita taalluqli bo'lishi zarur. keyslarni echishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. keys (muammo) bilan tanishing.
2. muammoning dolzarbligini baholang.
3. muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. keys (muammo)ni samarali echish yo'llarini aniqlang.
5. keys (muammo)ning samarali echimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.

6. keys (muammo)ning samarali echimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantirish.

xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (evropa), katta (aqsh) hajmga ega bo'ladi. ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida echiladi. ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiq. o'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lmagan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

1. pedagogik annotatsiya.
2. kirish.
3. keys (muammo)ning bayoni.
4. keys (muammo)ni echish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
5. foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
6. metodik ko'rsatmalar.
7. keysni echish jarayoni (tahlil va echim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
8. keys echimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
9. keys echimini tahlil qilish.
10. o'qituvchi (keysolog)ning echimi.

mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

1. keys (muammo)ning bayoni.
2. keys (muammo)ni echish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
3. foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
4. metodik ko'rsatmalar.
5. keysni echish jarayoni (tahlil va echim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).

6. keys echimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.

7. keys echimini tahlil qilish.

8. o'qituvchi (keysolog)ning echimi.

anglanganidek, ta'lim jarayonida o'quv keyslarini qo'llashda jarayon (mashg'ulot) yakunida albatta o'qituvchi (keyolog)ning echimi taqdim etilishi zarur. buning didaktik ahamiyati bu echim asosida talabalarning o'z o'quv-bilish harakatlarining qanchalik to'g'ri, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. shunga ko'ra talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

agar keys savolli-keys bo'lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va echishga oid bir necha savollar keltiriladi. m:

1. yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishining asosiy omillari nimalardan iborat?

2. yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishlarida o'qituvchining o'rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

agar keys topshiriqli-keys bo'lsa, u holda keysni echish jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqlar beriladi. m:

1. yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni samarali shakllantirish yo'llarini belgilang.

odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalardan, balki ommaviy axborot vositalari, jumladan, internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mumkin.

pedagogik turkum fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko'ra b.blum taksonomiyasi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo'llash)ga muvofiq bir necha guruhga ajratish mumkin. xususan:

1) pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keyslar;

2) pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keyslar;

3) ta'lim va tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo'naltirilgan keyslar;

4) ta'lim va tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keyslar;

5) pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keyslar.

pedagogik turkum fanlarni o'qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o'rinli foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi. quyidagi misollar ushbu fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi.

1. pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.

Keys bayoni. sobir o'rta maktabning 9-sinfini tamomladi. shahodatnomasida "uch" baholar ko'p bo'lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadi. har bir kollejning rahbari sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. biroq, sobirning ota-onasi har gal o'g'illarini o'zlari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta'lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Keys savollari:

1. ayting-chi, kasb-hunar kollejlarning rahbarlari sobirni o'qishga qabul qilmaslikka haqlimlar?

2. ayni vaziyatda sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

O'qituvchining echimi. kasb-hunar kolleji rahbarlari ijtimoiy xavf bo'lmagan holda "uch" bahoga o'qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko'zga tashlanishi uchungina sobirni o'qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. ular shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqini poymol etishgan. qolaversa, kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. shu sababli sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o'zlari tanlay oladi.

bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va sobirning o'zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o'ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi.

bu vaziyatda sobirning bilim olish huquqi (o'zbekiston respublikasi "ta'lim to'g'risida"gi qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar kollejlarning rahbarlari ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

2. pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

Keys bayoni. uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o'rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o'qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o'zining karikatura

janrida ishlangan rasmini ko‘radi. karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. butun guruh o‘qituvchining karikaturagaya, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutyapti. biroq, o‘qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: “karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto o‘chirgim kelmayapti. rasm ijodkori – yosh rassom uni qog‘ozga ko‘chirib olishi kerak. men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!”.

Keys savollari: 1. o‘qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan siz qanday baholaysiz?

2. bu vaziyatda o‘qituvchi qanday tarbiya metodini qo‘lladi?

O‘qituvchining echimi. bu vaziyatda o‘qituvchi o‘zining tarjibali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. u karikaturani o‘zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san‘at asari sifatida qabul qildi. natijada o‘qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. buning o‘rniga o‘zining san‘atga bo‘lgan muhabbatini ko‘rsatdi. bunday yondashuv talabalarga o‘qituvchining irodali, o‘ziga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, hissiyotlarini jilovlay olish, o‘z-o‘zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko‘rsatdi. oqibatda talabalar o‘qituvchining ruhan barqaror ekanliklarini angladi. shu sababli keyingi safar ular o‘qituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istashmaydi.

bayon etilgan vaziyatda o‘qituvchi: 1) **izohlash** (o‘zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganlikni ifodalovchi hissiy-og‘zaki ta‘sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni rag‘batlantirish metodlaridan biri bo‘lgan – **qo‘llab-quvvatlash metodidan** foydalandi.

3. ta‘lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo‘naltirilgan keys.

Keys bayoni. tarix fani o‘qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi:

- 1) ma‘lumotlarni izchil bayon qildi;
- 2) zarur o‘rinlarda tayanch tushunchalarga alohida urg‘u berdi;
- 3) xaritadan tarixiy voqealar sodir bo‘lgan joylarni ko‘rsatdi;
- 4) vaqti-vaqti bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi;
- 5) o‘quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

Keys topshirig‘i. o‘qituvchining xatti-harakatlari qanay metodlar yordamida amalga oshirilganligini aniqlang.

O‘qituvchining echimi. tarix fani o‘qituvchisi qo‘llagan metodlar: 1) hikoya; 2) tushuntirish; 3) tasvirlash; 4) suhbat; 5) namoyish.

4. ta‘lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keys.

Keys bayoni. mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining;
- 2) zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi;
- 3) dastlabki bajarilishi o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi.

ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto'g'ri ko'rsatilgan.

Keys topshirig'i. mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifodalang.

O'qituvchining echimi. mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:


- 1) o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
- 3) o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- 4) zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

5. pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keys.

Keys bayoni. og'zaki bayon qilish metodlari o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys topshirig'i. og'zaki bayon qilish metodi turlarini "baliq skeleti" grafik organayzerida ifodalang.

O'qituvchining echimi:



zamonaviy ta'lim tizimida darajali test topshiriqlaridan foydalanish va ularni hal etish shaxs kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. darajali testlar talabalarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. bu turdagi testlarni tuzish murakkab jarayon bo'lib, u pedagogdan, albatta, kreativ fikrlashni talab etadi. darajali testlarni tuzish orqali pedagog, birinchidan o'zidagi kreativ sifatlarni rivojlantirish borsa, ikkinchidan talabalarni ham ijodiy fikrlashga undaydi. shunday ekan, darajali testlar ham shaxs kreativligini rivojlantirishdagi muhim ahamiyatga ega.

otm pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilari “pedagogik kvalimetriya” moduli doirasida darajali testlarni samarali shakllantirish va echishga doir ma'lumotlar bilan etarlicha tanishish imkoniyatiga egaliklari sababli o'qimning “ilova” qismi (2-ilova)da “ijtimoiy pedagogika” fani bo'yicha tayyorlangan darajali testlardan namunalar keltiriladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga kreativ yondashish. o'quv mashg'ulotlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun auditoriya (joy)ni jihozlashga kreativ yondashish. Pedagogning faoliyati faqatgina o'qitishdan iborat emas. Bir vaqtning o'zida u tarbiyachilik vazifasini ham bajaradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish ham pedagog faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. SHunday ekan, pedagog ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil etishga ham ijodiy yondasha olishi zarur. Bunda u quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsaga muvofiq, izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etish;

- o'quv yili uchun puxta asoslangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqishi;

- rejadan talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan hamda dolzarb mavzulardagi muammolarga bag'ishlangan tadbirlarning o'rin olishiga erishish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning reja uchun emas, balki talabalarning ehtiyojlarini qondirish, ularni shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ularning yo'nalishi, mazmuni, xarakteriga, ko'lami va b. xususiyatlariga ko'ra turli shakllardan interfaollik asosida tashkil etilishiga erishish;

- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning aniq maqsad asosida tashkil etilishi va albatta, kutilgan natijani kafolatlay olishini ta'minlash;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda akademik guruhning barcha talabalari birdek faol ishtirok etishlariga erishish.

Nafaqat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladigan joy, balki o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan auditoriyaning jihozlanishiga erishish pedagogning ham tashkilotchilik, ham kreativ faolligidan dalolat beradi. Har ikki holatda ham pedagog o'rganiladigan, tahlil etiladigan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda o'quv auditoriyasi va tadbir o'tadigan joy (xona)ni o'ziga xos ruhda bezata olishi maqsadga muvofiqdir.

O'quv mashg'ulotlarida auditoriyaning mavzuning xarakteriga ko'ra plakatlar, mulajlar, gerbariylar, xaritalar, badiiy adabiyotlar, olimlar, rassomlar, yozuvchilar, sarkardalar hamda davlat arboblarning portretlari, ish jihozlari, yozishmalari, adabiyotlari, badiiy asarlari va h.k. bilan bezatilishi mashg'ulot va tadbir ruhiyatini ko'tarishga, talabalarga ijobiy, hissiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog qanchalik kreativ bo'lsa, o'quv auditoriyasi va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladigan xonani talabalar bilan hamkorlikda, ularning ijodiy imkoniyatlari, kreativlik layoqatlariga tayangan holda jihozlashga muvaffaq bo'ladi. Natijada ham talabalarning kreativ faolligi oshadi, ham mashg'ulot, tadbirning ta'sirchanligi kuchayadi.

SHunday qilib, zamonaviy o‘qitishda muammoli ta’lim muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta’lim texnologiyalari talabalarda fikrlash, qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantirish ko‘nikma, malakalarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Bu kabi texnologiyalar orasida “Keys-stadi” texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keys-stadidan ta’lim jarayonida o‘rinli, maqsadli, izchil foydalanish o‘qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, shu bilan birga talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtiradi.

Nazorat savollari:

1. Ma’ruza mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi qanday ahamiyatga ega?
2. O‘quv topshiriqlarining qanday turlari mavjud?
3. O‘quv mashg‘ulotlar uchun topshiriqlarni shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratiladi?
3. O‘quv topshiriqlari uchun ish qog‘ozlarini tayyorlash qanday didaktik ahamiyatga ega?
4. Kreativ yondashuv asosida o‘quv fanlari bo‘yicha nazorat-sinov-topshiriqlarini tayyorlashda qanday talablar inobatga olinadi?
5. Talabalarning o‘quv faolligini oshirishda keys va darajali testlar to‘plamini shakllantirishning ahamiyati qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolgorukov A. Metod case-study kak sovremennaya texnologiya professionalno-orientirovannogo obucheniya: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.*
4. Saveleva M.G. Pedagogicheskie keysy: konstruirovaniye i ispolzovaniye v protsesse obucheniya i otsenki kompetensiy studentov / Ucheb.-met.posobie. – Ijevsk: FGBOUVPO “Udmurtskiy universitet”, 2013. – S. 9.
5. Sbornik keysov dlya vuzov po dissiplinam gumanitarnogo i sotsialno-ekonomicheskogo sikla / Ucheb.-met.posobie. – SPb.: Izd-o Sankt-Peterburgskogo universiteta upravleniya i ekonomiki, 2015. – S. 3.

11-MAVZU: (4SOAT MA’RUZA, 4SOAT AMALIY MASHG‘ULOT)

TALABALARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Reja:

1. Ta’lim oluvchining kompetensiyasi.
2. Kasbiy kompetensiya. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi omillar.
3. Kasbiy kompetentligini shakllantirish

1. Ta’lim oluvchining kompetensiyasi.

Mehnat bozorining o'zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti glabollashishi ta'sirida maktab bitiruvchisiga qo'yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. SHu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o'z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta'lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur. Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo'lishini shiddat bilan rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. SHu bois maktab ta'lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchanlik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o'zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma'naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqazo etadi.

Buning uchun ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir pedagogning kompetensiyaga ega bo'lishi muhimdir.

“Kompetensiya” tushunchasi lotincha **competere** degan so'zdan olingan bo'lib, **“loyiq”**, **“mos kelmoq”** ma'nosini beradi.

Kompetensiya- olingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga qo'llay olish qobiliyati va layoqati

Kompetentlik deganda, aniq vaziyatda kompetensiyani namoyon qilish tushuniladi. Kompetentlik - shaxsning bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko'nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqazo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur? Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma, malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni angelay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda; - kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:
- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; - davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3) **SHaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4) **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakani boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5) **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolgorukov A. Metod case-study kak sovremennaya texnologiya professionalno-orientirovannogo obucheniya: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.*
4. Saveleva M.G. Pedagogicheskie keysy: konstruirovaniye i ispolzovaniye v protsesse obucheniya i otsenki kompetensiy studentov / Ucheb.-met.posobie. – Ijevsk: FGBOUVPO "Udmurtskiy universitet", 2013. – S. 9.
5. Sbornik keysov dlya vuzov po dissiplinam gumanitarnogo i sotsialno-ekonomicheskogo sikla / Ucheb.-met.posobie. – SPb.: Izd-o Sankt-Peterburgskogo universiteta upravleniya i ekonomiki, 2015. – S. 3.

KREATIV FIKRLASH FANIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) darslik va o'quv qo'lanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o'rganish;
- 2) tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish.

Talabalarning mustaqil ta'limi har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ta'limning bir necha turlaridan foydalaniladi:

- 1) Adabiyotlar bilan ishlash;
- 2) Ijodiy ish;
- 3) Ba'zi mavzular bo'yicha esse ,tezis yozish.

1. "Kreativlik" va "Kreativ fikrlash" tushunchalarining mohiyati.
2. Kreativlik – yaratish, ijod qilish ekanligi.
3. Kreativ fikrlashning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
4. SHarq mutafakkirlarining kreativ qarashlari.
5. G'arb mutafakkirlarining kreativ qarashlari
6. Kreativ fikrlashning muhim kategoriyalari. Kreativ fikrlashning boshqa fanlar bilan aloqadorligi..

7. Talabanning kreativlik potentsiali.
8. Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari.
9. Talabanning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar
10. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.
11. AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Finlyandiya ta'lim tizimi
12. Germaniya va boshqa davlatlar ta'lim tizimi.
13. Kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda Ken Robinson, Gardner, Emebayl, P. Torrens qarashlaridan foydalanish
14. OTM talabalarida ijodiy yondoshish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish
15. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlari.
16. Talabalarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar.
17. Talabalarda kreativligini ifodalovchi belgilar.
18. OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metod va vositalar
19. Talabalarning kreativlik imkoniyatlari.
20. Talabalarkreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari.
21. Talabalarning kreativlik imkoniyatlari. Talabalarda kreativ imkoniyatini ifodalovchi tamoyillar.
22. Kreativlik imkoniyatiga ega talabalarda namoyon bo'ladigan malakalar.
23. Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash yo'l va shakllari.
24. Talabalarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash metod va vositalari.
25. Talabalarning kreativlik sifatlarini aniqlovchi psixologik testlar.
26. OTM talabalarida kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiyalar

27. Talabalar kreativ imkoniyatining muhim darajalari.
28. Talabalarning kreativlik imkoniyati darajasini aniqlovchi mezonlar. Kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash.
29. Talabalar kreativ imkoniyatining tarkibiy asoslari.
30. Talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
31. Talabalarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalar.
32. Boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etish.
33. Talabalar tomonidan boshqaruv faoliyatni kreativ yondashuv asosida tashkil etilishini ta'minlovchi innovatsion xarakterdagi omillar.
34. Ijodkorlik, ijodkorlikni o'z o'rnida ishlatish, amaliy tafakkur, qiziquvchanlikni rivojlantirish masalalar
35. Talabalarni kasbiy kompetentligini shakllantirish
36. Ta'lim oluvchining kompetensiyasi.
37. Kasbiy kompetensiya. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi omillar.
38. Mustaqil fikrlash madaniyati haqida falsafiy, psixologik va pedagogik qarashlar.
39. Mustaqil fikrlashning turlari va vazifalari.
40. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini tarbiyalash shartlari va vositalari.
41. Talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning modeli.
42. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari.
43. Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar.

GLOSSARIY

Tushunchalar	O‘zbekcha	Inglizcha
Bunyodkor shaxs Creative personality	Ham jarayon, ham natija sifatida ob’ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs	An individual who carries out objective creativity as a process and as a result and produces high quality creative products
Davrlashtirish (yunon. “peridos” – “doira bo‘ylab aylanish”) Periodization (from “Greekl”, “peridos” – gyre, helix)	Muayyan hodisani o‘zida qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan ma’lum vaqt birliklariga ajratilishi	Division of a certain phenomenon into units of time that comprise a completed process
Kasbiy-ijodiy imkoniyat Professional and creative ability	1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o‘zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi	1) possessing professional competence and skills; 2) mastering basics of professional creativity methodology; 3) level of development of creative thinking; 4) development of professional and creative tendency and personal qualities
Kasbiy-ijodiy faoliyat Professional and creative activity	mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati	an innovative behavior or an activity of a specialist characterizing his success in solving professional issues in a creative way
Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi Methodology of professional creativity	Ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob’ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko‘rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta’limot	A doctrine about logical organization and composition of a creativity as an object of a process and result in the form of attitude toward the distinct types of professional activity, methods and means
“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan,	Talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil	A technique that allows students to develop skills of identifying the best

metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) Case study technique	qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	solution to the context by analyzing certain, real or non-authentic problem-based situations
Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) Creativity	Individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati	An ability of an individual characterizing readiness for producing new ideas and an independent factor comprising creative skills
Kreativlikning rivojlanish bosqichi Stage of development of creative	muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi	a level of development of certain creative skills
Kreativlikning rivojlanish davri Period of development of creativity	Ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi	A time unit of complete of certain creativity skills development
Kreativ pedagogika Creative pedagogy	1) pedagogda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish; 2) talabalarda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan,	1) developing teacher’s creative approach toward organizing educational process and skills of positive solving of existing pedagogical problems; 2) a science about developing students’ positive and independent attitude toward mastering the learning materials, promotion of new ideas when fulfilling assignments; covering professional training basics based on the step by step development, studying issues of development individual’s creativity in accordance

	shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan	with peculiarities of different age stages
Kreativ shaxs Creative personality	Jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni echishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs	An individual who is ready to express creativity as a result or within a process, who tends to come up with nontraditional solutions to the problems, to promote novelties and to bring creative outcome
Kreativ shaxsni tayyorlash Training a creative individual	Ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni	Teaching to be creative as well as essence of development of individual's creative skills during a process of creative expressing of himself
Kreativ qobiliyat Creative skills	Shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati	An individual peculiarity of a person that identifies a possibility of organizing creative activity and providing its effectiveness.
Ijod Creative work	Ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi	A results of a work acknowledged by a society or a certain group of people on subject's novelty, significance and usefulness
Ijodiy tafakkur Creative thinking	Tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni	A type of thinking that expresses the organization of creative work and predicts its results

	ifodalovchi turi	
Ijodiy topshiriqlar Creative assignmens	Muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi	A system of issues intended to solve based on the systematic analysis of problem-based cases
Ijodkorlik Creativeness	Muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi	An individual's activity and its result that identify significance and usefulness of novelties
Ijodkor shaxs Creative personality	Ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs	An individual who successfully carries out a creative process and possesses certain creative result
Ijodkor shaxsni shakllantirish Training a creative persponality	Kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va alakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish	Formation and development of an individual's skills on producing creative ideas based on the experience of professional and creative activity
Ijodiy qobiliyat Creative ability	Ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati	An individual peculiarity demonstrated in assessing creative activity and its effectiveness
Tabaqalashtirish (lot. "diferentia" – "farqlanish", "darajalanish") – Differentiation	Butunning turli bosqich yoki darajalarga ajratilishi	Separation of a whole into various levels or stages
O'zini o'zi ijodiy faollashtirish Creative self-activation	SHaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi	Development and absolute demonstration of abilities in individual's creative activity

FOYDALANISH TAVSIYA ETILADIGAN O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 80 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli farmoni

III. Maxsus adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Casestudy” uslubi: nazariya, amaliyot, tajriba. – T.: “Tafakkur qanoti”nashriyoti, 2012.
2. Abdullaeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – Farg‘ona: FarDU, 2008.
3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.
5. Zunnunov A.va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: SHarq, 2000.
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2004.

7. Ibragimov X.I., Abdullaeva SH.A. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Ishmuhammedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009.
9. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar.– T.: “Moliyaiqtisod” nashriyoti, 2009.
10. Yo‘ldoshev J.G‘. Xorijda ta’lim. –T.: SHarq, 1995.
11. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
12. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremennyye innovatsionnyye texnologii obucheniya. – M.: “GEOTAR-Mediya”, 2008.
13. Muxamedov O‘. X., Usmonboeva M. H., Rustamov S. S. Ta’limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar.o‘quvslubiy tavsiyalar.- – T.: 2012.
14. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
15. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2008.
16. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
17. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat . –T.: TDPU, 2005.
18. Toxtaxodjaeva M.X. va boshqalar Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi.– T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.
19. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti. 2011.
20. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi . -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
21. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma.– Toshkent: “Fan”, 2006.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: www.uzedu.uz
3. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
5. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz